



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI**

HUSANOV O.T.

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ ATAMALARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

O.T.Husanov

**KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ
ATAMALARI**

Izohli lug‘at

TOSHKENT

KBK- 67.0

H - 98

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti o'quv-uslubiy Kengashida ma'qullangan. 2024-yil 15-yanvar kunidagi 6-sonli bayonnoma.

Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq atamalari: Izohli lug'at. – T.: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024. – 163 bet.

Ushbu izohli lug'atda Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy huquq, "Konstitutsiyaviy huquq" fanida uchraydigan atamalarga izoh berilgan. Bu nashr avvalgi nashrlarning to'ldirilgan shakli bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida qo'yilgan vazifalarni hayotga tadbiq etish maqsadidan kelib chiqadi. Undan o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanish mumkin. Izohli lug'at oliy o'quv yurti talabalari, maktab o'quvchilari, davlat xizmatchilari va keng ommaga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Rustambayev M.X. – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist.

Taqrizehilar:

Turg'unov O.K. – yuridik fanlar doktori, professor;

Zulfiqorov Sh.X. – yuridik fanlar doktori, professor.

© Husanov O.T., 2024

© O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024

*Taniqli huquqshunoslar: Anvar Agzamxo'jayev
va Alisher Azizxo'jayevlarning xotirasiga
bag'ishlanadi.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi, taraqqiyoti Konstitutsiya bilan bog'liq. Konstitutsiya mamlakatimizni jahon miqyosida o'z o'rnini topishiga, davlatchiligimizni mustahkamlanib borishiga hissa qo'shar ekan, hech vaqt inson qadr-qimmat, huquq va erkinliklarini chetlab o'tmaydi. Inson qadr-qimmatini joyiga qo'yuvchi, uni oliy qadriyat sifatida namoyon bo'lishini ta'minlovchi qoidalar Konstitutsiyada belgilanib qo'yilishi bilan cheklanmay, ularni ro'yobga chiqishi, amalga oshishi uchun konstitutsiya ko'plab va kuchli choralarni belgilab qo'ydi.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada ham inson huquqlarini yanada kengaytirish, yangi huquqlar belgilash, mavjudlarini yangi mazmunda talqin qilish, huquq va erkinliklarning kafolatlarini kuchaytirish, bu borada davlatning mas'uliyatini kuchaytirishga alohida e'tibor berildi.

Inson huquqlari bo'yicha Konstitutsiyada moddalar, normalar anchaga ko'paydi, yangi asosiy huquqlar belgilandi.

Lekin Konstitutsiya mazmun-mohiyatini, uning qoida va normalarini har bir fuqaro chuqur bilmasa, anglamasa, yurakdan his qilmasa, bularni o'zi inson huquqlarini ta'minlanishida yetarli bo'lmaydi.

Shuning uchun ham mamlakatimiz XXI asrga Konstitutsiyani chuqur o'rganish zaruratini his qilgan holda qadam qo'ydi.

Konstitutsiyani chuqur o'rganish masalasi kun tartibida bekorga paydo bo'lgani yo'q. "Nima uchun Konstitutsiyani o'rganish kerak?" degan savolga I. Karimov Konstitutsiyaning 8 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida

aniq va lo'nda qilib, "Ming afsuski bu sir emas ko'pchiligimiz Konstitutsiyaning ma'no-mazmunini yaxshi bilmaymiz, uni sinchiklab o'rganmaymiz. Vaholanki, agar Konstitutsiyamizning mohiyatiga kirib borsak, mag'zini chaqsak, bugun oldimizda turgan ko'pgina savollarga, muhim muammolarni yechishda javob topishimiz mumkin" deb javob berdi.

Haqiqatdan ham Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lsa ham, u faqat davlatnigina emas, fuqarolar manfaatini ko'zlab, ularga xizmat qilishi kerak. Davlat Konstitutsiyasiz ham yashay oladi, unday paytda uning faoliyati cheklanmaydi. Bundan fuqarolar aziyat chekadi. Konstitutsiya ana shu aziyat, zo'ravonlik bo'lmasligi uchun ham kerak.

Unda fuqarolarning haq-huquqi, fuqarolar oldida davlatning burchi, fuqarolar bilan davlat munosabati hamda fuqarolar manfaatining ustunligi belgilanadi. Konstitutsiya bo'lmasa, yoki fuqaro bor konstitutsiyani chuqur bilmasa, u o'z qonuniy manfaatlarini himoya qila olmaydi yoki himoya qilishi juda qiyin kechadi.

Shuning uchun yana fuqarolar manfaatidan kelib chiqib, Konstitutsiyani o'rganishni davlat siyosati darajasiga ko'tarish maqsadida Respublikaning Birinchi Prezidenti 2001-yil 4-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida» maxsus Farmoyish qabul qildi. Unga asosan, Konstitutsiyaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, ma'no-mazmuni va mohiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash hamda yuksaltirish, shuningdek, Konstitutsiyani bilish, uning mazmun-mohiyatini targ'ib va tashviq qilish maqsadida O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha bolalar va o'quvchilarda mustahkam bilimlarni shakllantirish hamda Konstitutsiya mohiyatini keng omma ongiga singdirishga qaratilgan Konstitutsiyani o'rganish dasturini yaratish, uning asosida maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqish va tegishli

metodikalarni tayyorlash bo'yicha komissiya tuzildi. Komissiya zimmasiga juda mas'uliyatli vazifalar yuklandi.

Konstitutsiya bu huquqiy hujjat, uning mazmun-mohiyati, vazifasi, huquqiy tabiati, normalarini chuqur bilgandagina u har birimizga naf keltirishi, uni hurmat qilishimiz, u bilan faxrlanishimiz mumkin. Aks holda u boshqa oddiy qog'ozdan farq qilmaydi.

Konstitutsiyani chuqur o'rganishda qo'llaniladigan usullar, yo'llar xilma-xildir. O'rganish manbaalari ham har xil. Ular darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar bo'lishi mumkin.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani o'rganishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2023-yil 8-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" Farmon qabul qilib, unda "o'quvchilarga, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha zamonaviy metodika asosida darsliklar, o'quv qo'llanmalari va maxsus adabiyotlar yaratish choralari ko'rish" vazifasini yukladi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, konstitutsiyani chuqur o'rganishda uning atamalarini, qolaversa, konstitutsiyaviy huquqning atamalari mazmunini bilish muhimdir. Shularni e'tiborga olib, mazkur atamalar izohi tayyorlandi. Bu lug'at shaklida tayyorlangan to'plamni avvalgi nashr qilingan izohli lug'atdan ancha farqi mavjud. Bu farq konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishlar, ularning natijasida yangi institutlarni, atamalarni vujudga kelishi natijasida ko'rinadi.

To'plamda faqat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqidagi atamalarga izoh berish bilan cheklanmay, jahon konstitutsiyaviy huquqida keng qo'llaniladigan ayrim atamalarga ham izoh beriladi, jumladan "absenteizm", "lobbizm", "monarxiya" va boshqalar. Bularni o'rganish natijasida

o'quvchining bilimi ancha kengayadi.

Izohli lug'atning asosiy maqsadi konstitutsiyani o'rganishga yordam berish ekan uni natijasida Konstitutsiya nima degan savolga ham javob beriladi.

Konstitutsiya insoniyat tarixida, taraqqiyotning ma'lum bosqichida ezgulikning razillik ustidan, yangilikning eskilik ustidan, adolatning zo'ravonlik ustidan, erkinlikning haqsizlik ustidan, taraqqiyotning to'sqinlik ustidan g'alabasi sifatida vujudga kelgan hujjatdir.

Jahonda Konstitutsiya qabul qilinishi bilan jamiyat a'zolari turli tazyiqlardan, kamsitilishlardan, qiynoq va azoblardan saqlanish imkoniyatiga ega bo'la boshladilar. Konstitutsiya davlat hokimiyatini, uning asossiz, cheksiz zo'ravonligini jilovlash imkoniyatini berdi. U xalqning, fuqarolarning tafakkuri, intilishi, hamjihatligi mahsuli bo'ldi.

1787-yilda dunyoda birinchi bo'lib AQShda Konstitutsiya qabul qilingandan keyin, ko'plab mamlakatlarda Konstitutsiya qabul qilina boshlandi. Bu jarayon turli mamlakatlarda turlicha kechdi. Ba'zi mamlakatlarda qon to'kilishlar ham bo'ldi. Xalq ko'chaga "Konstitutsiya uchun" deb o'z haq-huquqi uchun kurashga chiqdi.

Azaldan juda qiynalgani, qadrsizlangani, tahqirlanganligi Alloh taolo tomonidan inobatga olindimi, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tinch yo'l bilan, qon to'kishlarsiz, larzasiz o'z Konstitutsiyasiga ega bo'ldi.

Mustaqillik bizga Konstitutsiya ishlab chiqish va qabul qilish imkoniyatini berib qolmay, bu katta mas'uliyatni ham vujudga keltirdi. Birinchi marta O'zbekistonda huquqshunoslar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar, deputatlar konstitutsiya ishlab chiqish va qabul qilishdek mas'uliyatli, murakkab, keng qamrovli ishga to'qnash keldi. Avvalgi mavjud bo'lgan: 1927, 1937, 1978 yili Konstitutsiyalarni ishlab chiqish va qabul qilishda hech qanday

qiyinchilik, muammolar bo'lmagandi, chunki ular ittifoqda belgilanar, O'zbekistonda esa nomiga qabul qilinar edi. Amaldagi konstitutsiyani qabul qilish o'z chekimizga tushdi. Bu konstitutsiyaning talabga javob beradigan shaklda bo'lishi, u jahon andozalariga to'g'ri kelishi, umume'tirof etilishi uchun loyiha tayyorlashda maqsadning to'g'ri qo'yilganligi katta rol o'ynadi.

1992-yil 8-dekabrda Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda komissiya raisi tomonidan qo'yilgan vazifalar: konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasini o'rganish; boshqa mamlakatlarning inson huquqlari borasida, demokratiya sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarini hisobga olish; milliy davlatchiligimiz an'alaridan foydalanish orqali keng xalq ommasi diliga yaqin va tushunarli bo'lgan hujjat yaratish vazifasi to'la bajarildi.

Konstitutsiya boshqa qonunlardan farq qilib, faqat mavjud ijtimoiy munosabatlarnigina emas, muhim maqsadlarni va vazifalarni mustahkamlovchi Qonundir.

Mustaqillik davrida mamlakatimiz iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy hayotda sezilarli o'zgarishlarga erishdi. Shaxs bilan davlat munosabati ijobiy tomonga o'zgardi. Yangi vazifalar: inson huquq va erkinliklarini yanada kengaytirish, chuqurlashtirish, ularning kafolatini kuchaytirish; davlat boshqaruv shaklini, davlat yuridik tabiatini aniq belgilash; fuqarolik institutlari, oila ahamiyatini yangicha belgilash; hokimiyat bo'linishi prinsipi asosida hokimiyat tuzilmalari munosabatini yangicha o'rnatish; Parlament palatalari vakolatlarini mutanosib belgilash; Vazirlar Mahkamasi tarkibini ixchamlashtirish va mas'uliyatini kuchaytirish; yuridik xizmat ko'rsatishni takomillashtirish; mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini takomillashtirish; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqeini kuchaytirish Konstitutsiyada o'z ifodasini topishini taqozo etdi. Va ular yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o'z ifodasini topdi.

Konstitutsiyani o'rganishni maqsad qilar ekanmiz, nimalarga

e'tibor berishimiz kerak?

Birinchidan, Konstitutsiyani mazmun-mohiyatini bilish kerak. Konstitutsiyamiz mustaqillik mahsuli bo'lib, unga xalqimiz ruhiyati, axloqi, ma'naviyati, irodasi, orzu-istaklari singdirilgan. Konstitutsiyani ishlab chiqish va qabul qilishda xalqning chetda turmasdan faol ishtirok etishi natijasi uning xalqchil, insonparvar bo'lishini va hech qanday xatoliklarga yo'l qo'yilmaganligini nazarda tutmoq joizdir. Konstitutsiya xalq ijodkorligi, dunyoqarashi, bilimi mahsulidir. Shuningdek, mustaqillik g'oyalarning aks etishi Konstitutsiya mazmun-mohiyatini boyitdi.

Ikkinchidan, Konstitutsiyaning avvalgi konstitutsiyalardan farqini bilish kerak. Bu konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq bilishga olib keladi. Bunda, eng asosiysi, amaldagi Konstitutsiyamiz avvalgi Konstitutsiyalardan o'zida inson manfaatlarini ustun qo'yishi bilan farq qilib, unda demokratik, huquqiy davlatlarga xos ko'p partiyaviylik, hokimiyat bo'linishi prinsipi, fikrlar xilma-xilligi, o'zini o'zi boshqaruv, davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar va jamiyat oldidagi mas'ulligi, bozor munosabatlari prinsiplari va g'oyalari mustahkamlangan.

Uchinchidan, Konstitutsiyaning ahamiyatini bilish zarur. Konstitutsiya, konstitutsiyaviy davlat tuzumini o'rnatib, unga mos hokimiyat tizimi va ularni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimini belgilar ekan, bu eng avvalo, inson manfaati uchun qilinganligini anglash zarur. Konstitutsiya fuqarolarni har qanday tazyiq, adolatsizlik, zo'ravonlikdan saqlab qoluvchi vosita, shuning uchun turli salbiy holatlarning oldini oladigan Konstitutsiyadagi barcha qoida va normalarni bilish darkor. Konstitutsiya boshqa qonunlar uchun asos bo'lishini, boshqa qonunlar esa Konstitutsiyaga zid bo'lmasligini bilib olish zarur. Shunda qandaydir sabab bilan boshqa qonunlarda fuqarolar manfaati buzilsa, unga Konstitutsiya ro'kach qilinishi va buzilgan huquq

tiklanishi mumkin. Shuningdek, Konstitutsiya tinchlik-osoyishtalikni saqlashda ham katta ahamiyatga ega bo'lib, bu osoyishtalikni ta'minlovchi normalarni albatta bilish kerak.

To'rtinchidan, konstitutsiyaning asosiy prinsiplari va xususiyatlarini bilish, konstitutsiya prinsiplari bilan konstitutsiyaviy prinsiplarni ajrata bilish, ular o'rtasidagi farqni ajrata olish zarur.

Bularni bilish orqali mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rni, davlatning jamiyatdagi o'rni va eng muhimi, fuqarolarning jamiyatdagi o'z o'rmini bilish imkoniyati tug'iladi. Hokimiyatning birdan-bir manbai xalq ekanligi, malakali, to'g'ri va samarali amalga oshirishi uchun hokimiyat davlatga ishonib topshirilganligi, hokimiyatni amalga oshirishda ishtirok etish uchun davlat tomonidan sharoitlar yaratib berilishi haqida ham tasavvur hosil bo'ladi. Ana shu prinsiplarga to'la amal qilgandagina bosh maqsad-insonning oliy qadriyat darajasiga ko'tarilishi bilib olinadi.

Beshinchidan va bu eng asosiysi, inson o'zining huquqiy holatini aniq bilishi uchun Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarni, ularning kafolatlarini hamda burchlarini o'rganishi zarur. Buning natijasida fuqarolar o'z ijtimoiy-shaxsiy hayotini, o'zining qonuniy manfaatlarini himoya qilishni, huquq, erkinliklari buzilgan taqdirda ularni tiklash uchun qanday harakat qilishni, davlatdan, uning tuzilmalaridan, mansabdor shaxslardan nima talab qilishni bilib oladilar. Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni yaxshi bilish, inson huquqlarining boshqa hujjatlar bilan kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi. Huquq va erkinliklarni bilish, belgilangan huquqlarni konstitutsiyada belgilangan qoidalardan tashqari hech qanday asosda va tartibda cheklash mumkin emasligi haqida fuqarolarga tushuncha beradi. Konstitutsiyaviy kafolatlarni yaxshi bilish huquq va erkinliklar kuchli vositalar orqali ta'minlanishi haqida tasavvur hosil qiladi va har bir fuqaroda

davlatga, kelajakka ishonch hosil bo‘ladi. Shaxsiy huquq va erkinliklarni bilish fuqarolarga or-nomusi, qadr-qimmati, daxlsizligi, erkinligini ro‘yobga chiqarishga, siyosiy huquqlarni bilish siyosiy hayotda, davlat boshqaruv ishlarida samarali, ongli ishtirok etish, iqtisodiy huquqlarni bilish turmushini to‘g‘ri tashkil qilish, farovonlikka erishishda yordam beradi. Konstitutsiyada o‘rnatilgan burchlarni bilish ba‘zi harakatlarni sodir etishdan tiyilish, ba‘zi harakatlarni albatta ongli ravishda amalga oshirishga olib keladi. Natijada, har bir fuqaro jamiyatdagi o‘z o‘rnini aniq biladi va taqdiri birinchi navbatda o‘ziga bog‘liqligini his qiladi, bu esa Konstitutsiyani muqaddas deb qarashga olib keladi.

Oltinchidan, Konstitutsiyaviy tuzum, uning asoslarini, davlat shakli va boshqaruv shaklini, hokimiyatni amalga oshiruvchi organlar tizimi va ularning faoliyatini bilish kerak. Konstitutsiyaning bu masalalar haqidagi normalarini bilish, fuqarolarning dunyoqarashini kengaytirib, davlatga uning tomonidan o‘rnatilgan tartiblarga, hokimiyat organlari tizimiga hurmat hissini vujudga keltiradi. Ular haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish davlat va jamiyat ishlarida ongli, faol ishtirok etishni, davlat tuzilmalari, mansabdor shaxslar faoliyati ustidan nazorat qilishda ishtirok etishini ta‘minlaydi. Hamma shaxs va fuqarolar yuqoridagilarni bilishi ijobiy holatlarga olib keladi.

Yettinchidan, Konstitutsiya nima uchun yangi tahrirda qabul qilinganligini, undagi o‘zgartirishlar, inson manfaatlarini yuqori ko‘tarib, inson – davlat munosabatlarida inson manfaatlarini ustuvorligini ta‘minlashga qaratilganligini, davlat zimmasiga ko‘plab jiddiy mas‘uliyatlar yuklanganligini bilish zarur.

Konstitutsiyani o‘rganish masalasi hech vaqt kun tartibidan tushmagan. Bu masalaga Sh.Mirziyoyev ham alohida e‘tibor bermoqda. Uning «Konstitutsiyani o‘rganishga jiddiy yondoshish lozim. Umumta‘lim maktablari uchun “Konstitutsiya alifbosi”, “Konstitutsiya saboqlari”, “Konstitutsiya asoslari” kabi darsliklarni

yaratish zarur deb hisoblayman»¹ va “**Yangi O‘zbekiston – ma’rifiy jamiyat**” konsepsiyasi asosida konstitutsiyaviy ta’lim masalasiga ham alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Parlament tomonidan Konstitutsiyani o‘qib-o‘rganish bo‘yicha **Milliy faoliyat** dasturi qabul qilindi. Asosiy qonunimizni o‘rganishni bolalar bog‘chasidan boshlash, barcha darajadagi ta’lim muassasalari, aholining turli qatlamlari, ayniqsa, davlat xizmatchilari ushbu jarayonga to‘liq jalb etilishi lozim. Shuning uchun davlat xizmatiga ishga kirishda Konstitutsiya asoslari bo‘yicha imtihonlar o‘tkazish tizimini amalda tatbiq etishimiz zarur”² degan so‘zlari gapimiz isbotidir. Mazkur lug‘at esa Konstitutsiyani o‘rganishga hissa qo‘shishi mumkin.

¹ Халк сўзи, 2019 йил, 8 декабрь.

² Халк сўзи, 2023 йил, 8 декабрь.

A

ABSENTEIZM – jahon saylov tajribasida uchraydigan holat. U saylovlarda va referendumda ovoz berishda ishtirok etmaslikka nisbatan ishlatiladi. Absenteizm fuqarolarning saylov tizimidagi nodemokratik holatlarga yoki saylanadiganlarga nisbatan noroziligini namoyon qilishdir. Absenteizm saylov natijalariga qiziqmaslik, manfaatdor bo‘lmaslik natijasida ham vujudga keladi. Absenteizm saylovlarning ixtiyoriyligi natijasidir.

O‘zbekistonda aholining mutloq ko‘pchiligini ovoz berishda ishtirok etishi, bu holat bizning saylov tajribamizda uchramasligini ko‘rsatadi.

AGENTLIK – asosiy vazifasi sifatida tegishli sohada davlat xizmatlarini ko‘rsatish va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqni qo‘llash funksiyalarini amalga oshiruvchi, respublika ijro etuvchi organi hisoblanadi.

ADVOKAT – Oliy yuridik ma’lumotga ega, advokatlik faoliyatini yuritish huquqini beruvchi litsenziyaga (ruxsatnoma) ega, fuqarolar va tashkilotlarga huquqiy yordam beruvchi shaxs. Huquqiy yordam huquqiy masalalar yuzasidan maslahatlar berish, tushuntirish, ariza, shikoyatlarni rasmiylashtirish, sudda da’vogar, javobgarni vakili bo‘lish, dastlabki tergovda ishtirok etish orqali namoyon bo‘ladi. A.lar hay’atlarga birlashib faoliyat ko‘rsatadi. Yakka tartibda ham faoliyat ko‘rsatishi mumkin.

Mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlar A.ni huquqini oshirishga qaratilmoqda. Mamlakatimizda prokuror va A.lar tengligini (sudda) ta’minlashga qaratilgan chora tadbirlar shular jumlasidandir. A.lar va advokatura faoliyati maxsus “Advokatlar to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinadi.

ADVOKATURA – advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning ixtiyoriy, kasbiy birlashma ko‘rinishidagi tuzilmasi. Xususiy advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar ham qonunga asosan birlashma tuzib faoliyat ko‘rsatishi yoki yakka tartibda ish olib borishi mumkin. A. yuridik va jismoniy shaxslarga, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga yuridik yordam ko‘rsatadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlar A. faoliyatini ham takomillashtirishga qaratilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga “Advokatura” to‘g‘risida alohida XXIV bob kiritilib, uning vazifasi va ish faoliyati prinsiplari belgilab qo‘yildi (141, 142 moddalar).

ADLIYA (YUSTITSIYA) – jahon miqyosida barcha sud tashkilotlari, ularning faoliyati, odil sudlovni ta‘minlashning yig‘indisi sifatida ishlatiladigan atama. Keyingi paytlarda yuvinal yustitsiya atamasi tez-tez uchramoqda. Bu bolalar, ya‘ni voyaga yetmaganlarning sudlov ishlariga nisbatan ishlatiladigan xalqaro atamadir.

O‘zbekistonda A. atamasi alohida bir vazirlikka nisbatan ishlatiladi. Mamlakatimizda A. ishlari shu vazirlik tomonidan yuritiladi. Sudning mustaqilligini ta‘minlash maqsadida uning sudni nazorat qilish, unga kadrlar tanlash faoliyati bekor qilingan.

Adliya vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari qilib, norma ijodkorligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini, qonuniylikni ta‘minlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish va boshqalar belgilab qo‘yildi. Vazirlikning vazifalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 23 avgustdagi «O‘zbekiston

Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida batafsil ko'rsatilgan.

Adliya vazirligi sud faoliyatidan butunlay ajratilmagan. Yuqoridagi farmonda unga "Sud hokimiyatini mustaqilligini yanada mustahkamlashga, sud hujjatlarini so'zsiz ijro qilinishiga, sudlar faoliyatini har tomonlama moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish" vazifasi yuklangan.

ADOLAT (ODILLIK) – axloq va huquqning me'yoriy kategoriyasi. A. natijasida tenglikka erishiladi, insonparvarlik ta'minlanadi. A. asosiga qurilgan jamiyatda fuqarolar o'rtasida, davlat bilan fuqarolar o'rtasida ijobiy munosabatlar o'rnatiladi. Fuqarolarning yaxshi turmush kechirishiga, moddiy ne'matlardan keng foydalanishiga imkoniyat yaratiladi. A. ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'z o'rnini topgandagina odillik hukm suradi. Jamiyatda yashovchi kishilar ertangi kunga ishonch bilan qaraydi. Qonunlarning to'g'ri qo'llanilishida ham adolatga asoslanilsa, ish to'g'ri yo'lga qo'yilib, qonunlardan barcha birdek naf ko'radi. «Kuch adolatdadir» degan Amir Temur so'zlarining ma'nosi keng va chuqurdir. A. tayanmagan kuch esa zo'ravonlikdir. Bizning jamiyatimizda A. qonun kuchiga tayanadi va qonun bilan birlashib, kuchli A. vujudga keladi. Ana shunday adolatdangina jamiyatning barcha a'zolari manfaatdor bo'ladi.

Konstitutsiyamizda «adolatga» konstitutsiyaviy maqom berilib, u «ijtimoiy adolat» sifatida davlat faoliyatida qo'llaniladigan asosiy prinsiplar sifatida talqin qilinadi (14-modda).

AFV ETISH – shaxsning sodir etgan jinoyati uchun tayinlangan yoki tayinlanadigan jazoni o'tashdan ozod etish, ya'ni kechirish. Bunda har bir kishining shaxsi, avvalgi xizmatlari, o'zini tutishi, yaxshi yo'lga kirganligi, jinoyatning xarakteri (og'ir-yengilligi), yetkazilgan zarar hamda kechirim so'rash haqidagi iltimoslari e'tiborga olinadi. Afv orqali shaxs jazoning hammasini o'tashdan yoki o'talmagan qismini o'tashdan ozod qilinishi mumkin. Afv e'lon qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tegishlidir. (Konstitutsiyaning 103-modda, 23-bandi)¹.

AYBLANUVCHINING HIMOYALANISH HUQUQI –

Har qanday shaxs (fuqaro, chet el fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxs) himoyalaniş huquqi bilan ta'minlanishi, advokat xizmatidan foydalanish huquqi Konstitutsiyamizda (29-modda) belgilab qo'yilgan. Shaxs tergov va sud yuritishning har qanday bosqichda malakali yuridik yordam olish huquqiga ega. Bu huquq advokatlar faoliyati orqali ta'minlanadi. Ayblanuvchi advokatini o'zi tanlashi va uni xizmatiga tegishli haqni to'lashi mumkin. Agar ayblanayotgan shaxsda bunday imkoniyati bo'lmasa, unga advokat davlat tomonidan tayinlanadi. Konstitutsiyaning 29-moddasida belgilangan "Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi" degan qoida ayblanuvchining himoyalaniş huquqini yanada kengroq ta'minlaydi.

AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI – ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki gumondorning aybi tegishli qonuniy tartibda isbotlanmaguncha uni aybsiz deb hisoblash. Konstitutsiyamizda bu atama to'g'ridan-to'g'ri ishlatilmasada, uning 28-moddasida belgilangan. "Jinoyat

¹ Bundan keyin Konstitutsiyaning faqat modda raqami va bandi kўrsatilgan.

sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uni aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi", degan so'zlar aynan shu ma'noni bildiradi. A.p. mavjudligi shaxslarning asossiz ayblanishi, jazo olishini oldini oladi.

AKTIV SAYLOV HUQUQI (SAYLASH HUQUQI) –

saylash huquqiga ma'lum yoshga yetgan, muomalaga layoqatli mamlakat fuqarolari ega bo'ladi. O'zbekistonda saylash huquqiga 18 yoshga yetgan barcha fuqarolar egadirlar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin (128-modda). Bundan ko'rinib turibdiki, endi saylovda ishtirok etmaslik uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida bo'lishni o'zi kifoya emas. Buning uchun sud qarorida ularni saylovda ishtirok etmasligi ko'rsatilishi kerak.

AMNISTIYA – muhim sanalar, bayramlar munosabati bilan jinoyat sodir etganlar hamda jinoyati uchun jazo o'tayotganlarni jazodan ozod etish, yoki jazoning ma'lum qismini kamaytirish bo'lib, A. umumiy afv hisoblanadi.

A. odatda uncha og'ir bo'lmagan, ijtimoiy xavfi yuqori hisoblanmaydigan jinoyatlar uchun, nogiron, keksa, voyaga yetmagan, ayollarga nisbatan qo'llaniladi. Mamlakatimizda A. haqidagi qaror O'zbekiston Prezidentining taqdimiga binoan, Oliy Majlis Senati tomonidan qabul qilinadi va qarorni sudlar amalga oshiradi (95-modda, 7-bandi, 109-modda, 23-bandi).

AN'ANAVIY QADRIYATLAR – Insoniylik, Vatanga sadoqat, oiladagi mehr-oqibat har qanday millatni rivojlanish ozuqasidir. Shuning uchun davlat an'anaviy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish choralarini ko'radi, ularni ijtimoiy hayotning turli jabhalarida qo'llanilishi choralarini ko'radi. O'zbekistonda oilani shakllantiruvchi omil – nikoh xalqimizni an'anaviy qadriyatlariga asoslanishi Konstitutsiyada belgilab qo'yildi. Nikohda an'anaviy qadriyatlar deganda nikoh ikki jins (ayol va erkak) o'rtasida tuzilishi nazarda tutiladi.

ARALASH SAYLOV TIZIMI – Aralash saylov tizimida majoritar va proporsional tizim birgalikda qo'llaniladi. O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi 75 ta deputati majoritar saylov yo'li bilan bir mandatli saylov okurgidan, 75 tasi proporsional saylov yo'li bilan yagona okurgdan saylanadi.

Qarang: Majoritar saylov tizimi; Proporsional saylov tizimi.

ASOSIY QONUN – Konstitutsiyaga nisbatan ishlatiladigan atama. Konstitutsiyaning sinonimi, faqat Konstitutsiyagina asosiy qonun hisoblanadi. Ayrim mamlakatlarda (Mongoliyada), boshqa maxsus qonunlarga nisbatan ham asosiy qonun atamasi ishlatiladi. O'zbekistonda asosiy qonun bitta u ham bo'lsa Konstitutsiyadir.

ATROF-MUHITGA EHTIYOTKORONA MUNOSABATDA BO'LISH – bu fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlaridan biri (62-modda). Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish bilan, ona tabiatimizni saqlaydi. Yer, havo, suv tozaligi saqlanadi. O'rmonlarimiz saqlanib insoniyat uchun xizmat qiladi. Tabiatni sof saqlanishi insonlar sog'lig'i, uzoq umr ko'rishi kafolatidir. Tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish hayotni davom etishiga

yoki aksincha hayotni to'xtashiga olib keluvchi asosiy sabablardandir. Bu burch ixtiyoriy bajarilmagan holatda tegishli majburlov choralari qo'llaniladi.

AXBOROT OLISH ERKINLIGI – O'zbekiston fuqarolarining bu erkinligi fuqarolar o'zi istagan axborotlarni izlashi, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxldor bo'lgan hujjat va boshqa materiallar bilan tanishish uchun imkoniyat yaratib berishi demakdir.

Axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi faqat qonunga muvofiq va tegishli hollarda cheklanadi (33-modda).

AXLOQ – kishilarning bir-biriga, oilaga, Vatanga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlar yig'indisidir. A. har bir kishining xulqini, ichki dunyosini ko'rsatadi. A.qa milliy urf-odatlar, an'analar ta'sir qiladi. Ba'zi millat kishilari o'rtasidagi munosabatlarda oddiy hol deb qaraladigan xatti-harakatlar boshqa millatlar axloq qoidalarida rad etilishi mumkin. A.ning yuksak darajada bo'lishi jamiyatning rivojiga bevosita ta'sir qiladi yoki aksincha. A. axloq normalari bilan tartibga solinadi, ular huquqiy normalardan farq qilib, majburiy xarakterga ega emas. Axloqiy normalar urf-odat, namuna kuchi, jamoatchilik fikri ta'sirida vujudga keladi. Axloqiy normalarni bajarish ixtiyoriy, vijdonga bog'liq. Uning buzilishiga nisbatan ommaviy qoralash, jamoat izzasi qo'llaniladi. A. ishontirish, tushuntirish bilan ta'minlanadi. Axloq – ma'naviyatning o'zagi. A. ma'naviyatning amaldagi ifodasidir. U insof va adolat tuyg'usi, iymon va halollik kabi tushunchalar bilan bog'liq.

AXLOQIY NORMALAR – Qarang: Axloq.

B

BEVOSITA DEMOKRATIYA – demokratiyaning bir shakli bo‘lib, u har bir fuqaroning davlatni boshqarishda, davlat ishlarida bevosita ya’ni shaxsan ishtirok etishidir. Bevosita demokratiyaning ko‘rinishlariga saylovda ovoz berish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish, qonun loyihalari va boshqa tadbirlarning muhokamasi, referendum (umumxalq ovozi), fuqarolar yig‘ini ishlarida hamda davlat organlariga takliflar kiritishda ishtirok etish va boshqalar kiradi.

BILIM OLISH HUQUQI – O‘zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlaridan hisoblanadi. Davlat bepul umumiy o‘rta va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim barcha fuqarolar uchun majburiydir.

Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv (ularga mos) ta’lim va tarbiya ta’minlanadi (50-modda).

Fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli (51-modda).

BIRLASHISH (UYUSHISH) HUQUQI – bu siyosiy huquqlardan biri bo‘lib, siyosiy va boshqa xarakterdagi birlashmalarga birlashish imkoniyatidir. Har qanday ittifoq va assotsiatsiyalarga birlashish ham shu huquq, orqali amalga oshadi. Konstitutsiyaviy tuzumga, fuqarolar manfaatiga ziyon keltiruvchi tashkilotlar tuzish va ularga birlashish taqiqlanadi. (39, 71-moddalar)

BOSH VAZIR – (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri) ¹
O‘zbekiston hukumati boshlig‘i. U Vazirlar Mahkamasi

¹ Bosh vazirning faoliyatiga taalluqli konstitutsiyaviy qonunlar asosan Konstitutsiyaning 98-moddasida mustahkamlangan.

faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uni samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi. Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi; xalqaro munosabatlarda Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko'radi va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi (117-modda).

BOSH VAZIRNI LAVOZIMGA TASDIQLASH – B.v. nomzodi Oliy Majlis palatalarining mansabdor shaxslari saylangandan so'ng bir oy ichida Qonunchilik palatasiga ko'rib chiqish va ma'qullash uchun Prezident tomonidan siyosiy partiyalar, fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng taqdim etiladi. Qonunchilik palatasi kiritilgan kundan 10 kun ichida taqdimnomani ko'rib chiqadi.

B.v. shu paytda Qonunchilik palatasiga yaqin muddatga va istiqbolga mo'ljallangan Harakat dasturini taqdim etadi. Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining yarmidan ko'pi ovoz bersa nomzod ma'qullangan hisoblanadi. Nomzod uch marta rad etilsa, Prezident Bosh Vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuboradi.

BOSH VAZIRNI ISTE'FOGA CHIQUARISH (LAVOZIMDAN OZOD ETISH) – Ijro hokimiyatini vakillik hokimiyati oldida mas'ulligini kuchaytirish natijasi sifatida B.v.ni iste'foga chiqarish tartibi konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yildi.

Konstitutsiyaga asosan B.v. iste'foga chiqarish masalasi, B.v. bilan Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar muntazam tus olgan holda ko'tariladi. Agar shunday hol vujudga kelsa, Qonunchilik palatasi deputatlarining umumiy sonining kamida uchdan bir qismining ovozi bilan Prezidentga B.v. iste'foga chiqarish taklifi kiritiladi.

Prezident shu taklif asosida Oliy Majlis palatalariga B.v. ishonchsizlik votumi bildirish haqida masalani kiritadi.

Ishonchsizlik votumi unga qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari umumiy sonining uchdan ikki qismi yoqlab ovoz bersa qabul qilingan hisoblanadi. Shunday holat yuz bersa Prezident B.v. lavozimdan ozod qilish haqida qaror qabul qiladi, bunda Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi iste'foga chiqadi (119-modda).

O'zbekiston Prezidenti har qanday vaqtda o'z ixtiyori bilan Bosh vazirni, Vazirlar Mahkamasini iste'foga chiqarish huquqiga ega (118-modda).

«Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi qonunning 5-moddasida B.v. lavozimidan ozod qilish asoslari va tartibi belgilangan, unga ko'ra Prezident tomonidan quyidagi hollarda u lavozimidan ozod etiladi.

- B.v. iste'foga chiqish to'g'risidagi (o'z xohishiga ko'ra) arizasiga binoan;
- B.v. o'z vakolatini bajarishi mumkin bo'lmay qolgan taqdirda (kasallik va boshqa sabablar);
- Vazirlar Mahkamasi tarkibida uning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda, shuningdek Vazirlar Mahkamasi bir necha marta Konstitutsiyaga, Qonunlarga, Prezident farmoni, qarori, farmoyishiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda;
- Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining Prezident ko'rib chiqish uchun taqdim etgan tashabbusiga binoan. Agar bunday asosli tashabbusni qonunchilik palatasidagi yetakchi siyosiy partiya fraksiyasi

qo'llasa va mazkur tashabbus Prezident tomonidan Oliy Majlis palatalarida ovozga qo'yilganda, palatalar a'zolarining uchdan ikki qismining ovozi bilan tashabbus ma'qullansa, Prezident B.v. lavozimdan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Qanday asosda B.v. lavozimidan ozod etilmasin, uning lavozimidan ozod bo'lishi, bir vaqtning o'zida Respublika hukumatining to'la iste'foga chiqishiga sabab bo'ladi.

BOSH VAZIRNING HISOBOTI – B.v. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisi oldida javobgardir. (116-modda). Konstitutsiyaning 94-modda 4-bandida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Bosh vazir mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari yuzasidan hisobot beradi.

BOSH PROKUROR – Prokuratura tizimida eng yuqori mansabdor shaxs, yakka boshchilik asosida prokuratura tizimini boshqaradi. Bosh prokurorni O'zbekiston Prezidenti Oliy Majlisning Senati ma'qullaganidan so'ng lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi. B.p. vakolat muddati besh yil. U o'z faoliyati yuzasidan Prezident va Senat oldida mas'ul. Konstitutsiyada B.p.ni Senat hisobotini eshitishi belgilab qo'yilgan. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Bosh prokurori lavozimini egallashi mumkin emas.

BOSHQARUV SHAKLI (DAVLAT BOSHQARUV SHAKLI) –hokimiyatni tashkil qilish, uning manbalari, oliy davlat hokimiyati organlarining tuzilishi va huquqiy holati, davlat boshlig'i, parlament, hukumatni, hamda ular o'rtasida o'rnatilgan munosabatlarni tartibidan iborat konstitutsiyaviy huquqiy institut.

Boshqaruv shaklining aniqlashda muhim belgi davlat

boshlig'ining huquqiy holati va uni lavozimga kelish usuli (tartibi) hisoblanadi. Shu asosda boshqaruv shakli davlatning respublikami, monarxiyami degan savolga javob beradi.

Agar davlat boshlig'i saylov yo'li bilan lavozimga kelsa, belgilangan muddatda o'zgarib tursa u respublika shaklidagi davlat, agar davlat boshlig'i lavozimga nasldan-naslga o'tish asosida kelsa, umrbod shu lavozimda tursa unday davlat monarxiya shaklidagi davlat bo'ladi. Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga egaligi ko'rsatilgan.

BURCH – qonun va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan ayrim harakatlarni sodir etish, ayrim harakatlarni sodir etishdan esa tiyilishdir. Burchni buzish turli javobgarliklarga tortish va jazolashga sabab bo'ladi. Burch ixtiyoriy bajarilganda jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiladi. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari Konstitutsiyaning XI bobida belgilangan.

BUDJET (DAVLAT BUDJETI) – davlatning moliyaviy manbasi, pul manbasini vujudga kelishi va xarajatlari tartibi bo'lib, davlat funksiyasini amalga oshishini ta'minlovchi asosiy vositadir. B. hukumat tomonidan tayyorlanib Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadi (93-modda, 9-band). Uni ijrosi uchun hukumat javobgar. Davlat budjeti umumiy bo'lsa, bundan tashqari viloyat, tuman, tashkilot, hatto oilalarning ham budjeti bo'ladi. Mamlakat farovonligi, davlatning kuch qudrati budjetini to'g'ri tashkil qilish va undan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

BO'SHAB QOLGAN O'RINLARGA DEPUTATLAR SAYLASH – Qonunda ko'rsatilgan asoslar natijasida deputatlik o'рни bo'shab qolsa, shu okrugda saylov o'tkaziladi. Deputat o'рни bo'shasa, Markaziy saylov

komissiyasi saylov o'tkazishga kamida bir oy qolganda saylov tayinlaydi. Saylov "Saylov kodeksi"da belgilangan tartibda o'tkaziladi.

D

DAVLAT BELGILARI – bu davlatni mustaqil mamlakat sifatida ko'rsatadigan tushunchalardir. Mustaqil davlat bo'lish uchun har bir davlatning o'z hududi, Konstitutsiyasi, aholisi (xalqi), davlat ramzlari, fuqaroligi, armiyasi, oliy hokimiyat organlari, pul birligi bo'lishi zarur.

DAVLAT BOSHLIG'I – mamlakatdagi bosh mansabdor shaxs bo'lib, davlatni, xalqni oliy vakili. Ayrim hollarda ijro etuvchi hokimiyat ham unga tegishli bo'ladi. Monarxiya shaklidagi davlatlarda davlat boshlig'i monarx (qirol, podsho, imperator) bo'lib, u nasldan naslga o'tadi. Respublika shaklidagi davlatlarda davlat boshlig'i Prezident bo'lib, u bevosita fuqarolar tomonidan saylanishi (O'zbekiston, Rossiya, Fransiya), yoki fuqarolar vakillari tomonidan pog'onali asosda saylanishi (AQSh Argentina) yoki Prezident saylash uchun tashkil qilingan organ tomonidan saylanishi (Germaniyada) yoxud Parlament tomonidan saylanishi (Chexiyada) mumkin. Odatda prezidentlik Respublikasida Prezident bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyatning ham boshlig'i bo'lsa, Parlamentar respublikada u faqat davlat boshlig'i bo'ladi, ijro etuvchi hokimiyatning boshqa shaxs boshqaradi. Davlat boshlig'ining vakolatlari Konstitutsiyada belgilanadi. O'zbekistonda Prezident faqat davlat boshlig'i hisoblanadi (105-modda).

DAVLAT BOSHQARUVI – ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum bir davrida vujudga kelgan va doimo rivojlanib borayotgan ijtimoiy boshqaruvning bir turi. U tartibga solish, ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etish, majburlov faoliyatlarini yig’indisidan iborat. D.b. mamlakatdagi asosiy farmoyish beruvchi hamda ijro etuvchi faoliyatdir. Davlat boshqaruvi siyosiy holatgagina emas, iqtisodga ham, madaniyatga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. D.b. demokratik prinsiplarga, ilg‘or tajribalarga asoslansa, jamiyat rivojlanadi, nodemokratik prinsip, usullarga, ma’muriy buyruqbozlikka asoslansa, jamiyat rivojiga to’sqinlik qiladi.

DAVLAT BOSHQARUV SHAKLI – Davlat boshlig‘ini lavozimga kelishi bilan bog‘liq ijtimoiy hodisa. Buni jahon davlatchilik tajribasida ikki turi uchraydi – monarxiya va respublika. Monarxiya boshqaruvidagi davlatlarda davlat boshlig‘i – monarx (u turli nomlar bilan ataladi: qirol, imperator, amir, podshoh va hokazo). Monarxiya davlatlarida davlat boshlig‘i nasldan naslga meros bo‘lib bir umrga tayinlanadi. Respublika davlatlarida davlat boshlig‘i turli xil saylovlar orqali ma’lum muddatga saylanadi. Respublikalar parlamentar respublika, prezidentlik respublika, boshqaruvning aralash ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. (Qarang: Prezidentlik respublikasi, Parlamentar respublika). O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiya-sida «O‘zbekiston boshqaruvning respublika shakliga ega...» – deb mustahkamlab qo‘yilgan.

DAVLAT BUDJETI – aholining normal turmush tarzi, davlat organlari faoliyatini ta’minlash hamda davlat funksiyasini amalga oshirishga xizmat qiluvchi, ma’lum usulda shakllanadigan va sarflanadigan pul manbasi. Davlat budjeti hukumat tomonidan ishlab chiqilib, Oliy Majlis tomonidan

tasdiqlanadi. **Yana qarang: Budget.**

DAVLAT GERBI – davlat ramzlaridan biri (5-modda), davlatning rasmiy emblemasi bo‘lib, muhrlarda, turli hujjat nusxalarida, pul birligida aks ettiriladi. Uning ko‘rinishi maxsus qonun bilan belgilanadi. O‘zbekiston Gerbining markazidagi Humo qushi baxt-saodat va erksevarlik ramzi, sakkiz qirrali yulduz respublikamizning sobit va barqarorligi timsoli, quyosh yo‘limizning hamisha nurafshon bo‘lishi, boshqoq rizq-ro‘zimiz, paxta O‘zbekiston boyligi, bug‘doy va paxta chanog‘idagi tasma xalqlarimiz do‘stligi ramzidir. Gerb haqidagi qonun 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan. Keyinchalik unga o‘zgartirishlar kiritilgan.

DAVLAT ISHLARINI BOSHQARISH HUQUQI – davlat ishlari maxsus organlar tomonidan boshqariladi. O‘zbekiston fuqarolari ham davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda vakillari orqali ishtirok etadilar. Davlat ishlarini boshqarish huquqi umunlashgan huquq bo‘lib, bu huquq boshqa siyosiy huquqlar orqali (saylov huquqi, siyosiy partiyalarga a‘zo bo‘lish, referendum, umumxalq muhokamasida ishtirok etish o‘zini-o‘zi boshqarish davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati orqali amalga oshadi (36-modda).

DAVLAT MADHIYASI – O‘zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzi hisoblanadi (5-modda). Davlat madhiyasiga zo‘r ehtirom bilan qarash O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir. Madhiya musiqa va she‘r vositasida ifodalanadi hamda davlat organlari tomonidan o‘tkaziladigan tantanali marosimlar va boshqa tadbirlar vaqtida ijro etiladi. Madhiya maxsus qonun bilan tasdiqlanadi. Ushbu qonun 1992 yil 10 dekabrda qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,

*Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!*

Naqorat:

*Oltin bu vodiylar jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!
Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni, Xalqsevar, ona
yurt, mangu bo'l obod!*

Naqorat:

*Oltin bu vodiylar jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!*

DAVLAT MAS'ULIYATI – davlat albatta bajarishi kerak bo'lgan vazifalar. Ularning asosiylari konstitutsiyada belgilab qo'yilgan. Odatda mas'uliyat davlat organlari faoliyati orqali amalga oshiriladi. Masalan, Konstitutsiyaning 2-moddasida «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar» deb belgilangan. Konstitutsiyaning 54-moddasida «Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi» degan qoida ham davlatning mas'uliyatini mustahkamlaydi.

Prezident, hukumat va boshqa organlarning mas'uliyati ham davlat mas'uliyatidan kelib chiqadi.

DAVLAT MUKOFOTLARI VA UNVONLARI – davlat mukofotlari fuqarolarning turli sohalarda erishgan yutuqlarini taqdirlash, rag'batlantirish vositasidir. «Davlat mukofotlari to'g'risida» maxsus qonun bo'lib, unga asosan o'rnatilgan orden, medallar davlat mukofoti hisoblanadi. Ular bilan taqdirlash va uning natijalari ham shu qonunda belgilangan. Eng oliy davlat mukofot «O'zbekiston qahramoni» unvonidir.

Bundan tashqari har bir sohani yetakchi tashabbuskor xodimlari faxriy unvonlar bilan mukofotlanadi. Masalan, xizmat ko'rsatgan artist, xalq artisti, xizmat ko'rsatgan yurist, xizmat ko'rsatgan sport ustasi va hokazolar.

Davlat mukofoti sovrindorlari belgilangan imtiyozlardan foydalanadilar va bir marotabalik pul mukofoti yoki shu qiymatdagi sovg'a bilan taqdirlanadi. Faxriy unvon egalari esa har oyda belgilangan miqdorda pul oladi.

Davlat mukofotlari va unvonlarini Oliy Majlis tatbiq etadi (93-modda, 14-band). Ular bilan mukofotlash Prezident vakolatiga kiradi (109-modda, 21-band).

DAVLAT ORGANLARI – davlatning vazifalarini amalga oshiruvchi tuzilmalardir. Davlat hokimiyati alohida turdagi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Hokimiyatni samarali amalga oshirish davlat hokimiyatining tarmoqlarga bo'linishi qonunchilik (vakillik), ijro, sud organlari bo'lishi zaruratini tug'diradi. O'zbekistonda davlat organlari – qonunchilik (vakillik) hokimiyati organlaridan, bular Oliy Majlis va xalq deputatlari Kengashlari; ijro organlari Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, hokimlar; Sud hokimiyati sud organlaridan iborat. Bundan tashqari maxsus vazifalarni

bajaruvchi Prokuratura va boshqa organlar mavjud (qarang: Oliy Majlis, O.M. palatalari, Vazirlar Mahkamasi, Sud, Vazirlik, Mahalliy vakillik organlari, Hokim, Prokuratura).

DAVLAT RAMZLARI – Konstitutsiyada belgilangan bo‘lib (5-modda), bayroq, gerb va madhiya hisoblanadi. Ularning tuzilish shakli, maqsadi, ishlatilishi maxsus qonunlar bilan tasdiqlangan. Bular mamlakatning mustaqilligini ifodalovchi ramziy belgilardir. Ularda mamlakat xususiyatlari aks ettiriladi. Qarang: Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi, Davlat madhiyasi.

DAVLAT SUVERENITETI Qarang: Suverenitet.

DAVLAT TILI – mamlakatda qonunchilikda, rasmiy ish yuritishda, sud jarayonida, o‘quv faoliyatida qo‘llaniladigan asosiy til. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir (4-modda). O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi maxsus qonun bilan ham belgilangan. Konstitutsiya va qonunda o‘zbek tilining davlat tili deb belgilanishi boshqa har qanday tillarning muomalada bo‘lishini rad etmaydi. Boshqa tillardan ham kundalik hayotda, turmushda keng foydalanish imkoniyati yaratiladi. Ba’zi mamlakatlarda bir necha til davlat tili sifatida belgilanishi mumkin.

DAVLAT FAOLIYATINING ASOSIY PRINSIPLARI – Demokratik, insonparvar davlatning faoliyati inson farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashdir. Shu maqsadda “Qonuniylik”, “Ijtimoiy adolat” prinsiplariga tayanadi. Bu haqda qarang: Adolat, Qonuniylik prinsiplari.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada bu prinsiplar qatoriga “Birdamlik” prinsipi qo‘shildi. Birdamlik har qanday jamiyatni rivojlanishi, mamlakat xavfsizligi, jamoat

tartibi, iqtisodiy o'sish, inson manfaatlarini ta'minlashdagi asosiy ko'rsatkich. Birdamlik bo'lmasa hech qanday maqsad, vazifa bajarilmaydi (14-modda).

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHISI – Davlat xizmatining bir turi. Davlat fuqarolik xizmatchilari, davlat boshqaruv organlari, ijtimoiy soha, xizmat ko'rsatish muassasalari faoliyatida tegishli vazifalarni bajaradi. Davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati "O'zbekiston Respublikasining davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi.

DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI – Mamlakatning xavfsizligini, davlat chegaralarini daxlsizligini ta'minlovchi, konstitutsiyaviy tuzumga qarshi har qanday harakatlarni oldini oluvchi, ularga qarshi kurashuvchi maxsus tuzilma. DXX urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etish, harbiylashtirilgan va diniy-siyosiy tashkilotlar tuzishga, shundaylar tuzilgan bo'lsa, ularni faoliyatiga qarshi kurashadi. DXX biror bir hokimiyat tizimiga kirmaydi va faqat Prezidentga bo'ysunadi.

DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI RAISI – mamlakatimiz xavfsizlik xizmatini yakkaboshchilik prinsipida boshqaradi. Davlat xavfsizlik xizmati raisi Prezident tomonidan Oliy Majlis Senati bilan maslahatlashuvdan so'ng lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi (109-modda, 12-band).

DAVLAT XIZMATIGA KIRISHDA TENG HUQUQLILIK – O'zbekiston fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega. Davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi (37-modda). Chet el fuqarolarini, fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslarini davlat xizmati o'tashi maxsus ruxsat asosida amalga oshiriladi.

DAVLAT XIZMATCHISI – davlat organlari, tashkilotlari, muassasalarining shtat jadvalidagi lavozimni egallagan, ish haqi evaziga o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiruvchi xatti-harakatlari davlatni majburlovligi bilan ta'minlanadigan, O'zbekiston fuqarosi bo'lgan va qonunlarda belgilangan boshqa talablarni bajaradigan shaxs hisoblanadi. Davlat xizmatchisi fuqarolik davlat xizmatchilari yoki maxsus davlat organlari xizmatchilari bo'ladi (prokuratura, kuch ishlatuvchi organlar xodimlari). Davlat xizmatiga kirishda teng huquqlilik o'rnatilgan (Konstitutsiyaning 37-moddasi).

DAVLAT CHEGARASI – Mamlakat hududini boshqa mamlakatlardan ajratib turadigan chiziq (belgi). Chegara doirasiga yer, suv, havo kiradi. Davlat chegarasi daxlsiz bo'lib, u turli vositalar orqali qo'riqlanadi. Chegarani mustahkam bo'lishi davlat qudratiga bog'liq va u ichki barqarorlikni ta'minlash vositasidir. O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir (3-modda).

DAVLAT HOKIMIYATI – xalq hokimiyatni maxsus tuzilma davlat orqali amalga oshirilishi. Davlat o'zining organlari orqali siyosiy hokimiyatni amalga oshiradi. Hokimiyat davlat qo'lida to'plangandagina u malakali va samarali amalga oshirilishi mumkin. Davlat o'ziga tegishli hokimiyat yordamida majburlov va ta'sir choralarini qo'llaydi. Davlat hokimiyati qonuniydir, ya'ni davlatning, uning organlarining vakolatlari qonun bilan belgilab qo'yiladi. Davlat hokimiyatining birdan-bir manbai – xalqdir (7-modda).

DAVLAT HOKIMIYATI TIZIMI – davlat hokimiyati tizimi hokimiyatlar bo'linishi prinsipi asosida vujudga keladi. Davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi (vakillik), ijro etuvchi, sud hokimiyatini yig'indisidir. Qarang: hokimiyat

bo‘linishi prinsipi (11-modda).

DAVLAT HUDUDI – chegara bilan belgilangan makon. Unga yer, suv, havo manbalari kiradi. Davlat hududi chegara singari daxlsizdir (3-modda). Uni daxlsizligi o‘z navbatida chegara mustahkamligiga bog‘liq. Davlat o‘z hududida o‘z ixtiyoricha ish olib boradi, undagi tabiiy boyliklardan, yer osti boyliklaridan o‘z ixtiyoricha, fuqarolar manfaatini ko‘zlab foydalanadi. Davlat hududi mamlakat hududi hamdir.

DAVLAT HUQUQI – «Konstitutsiyaviy huquq» atamasining o‘xshashi. Ayrim mamlakatlarda huquqning alohida va yetakchi tarmog‘i bo‘lib, mamlakatning sotsial-iqtisodiy, siyosiy, ma‘muriy tuzilishi asoslarini, fuqarolarning asosiy huquq, erkinlik va burchlarini, davlat organlari tizimini o‘rnatuvchi huquqiy normalar yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

DAVLATNING VAZIFASI – mamlakatning normal rivojlanishini ta‘minlash hisoblanadi. Bu fuqarolarning huquq, erkinliklari va xavfsizligini ta‘minlash, iqtisodni tashkil qilish natijasida farovon hayotni yaratish demakdir. Mamlakatning xavfsizligini ta‘minlash ham davlatning vazifasidir. Davlat o‘z vazifasini bajarish jarayonida chet mamlakatlar bilan aloqalar o‘rnatadi va o‘z fuqarolarining manfaatini chet mamlakatlarda ham himoya qiladi.

DAVLATNING OLIY MAQSADI – Davlat o‘z oldiga ko‘plab maqsadlar qo‘yadi. Jamiyat rivojlanishi, farovon turmushga erishish, fuqarolar manfaatini himoya qilish maqsadi har qanday davlatga xosdir. O‘zbekiston davlati ham o‘z oldiga ko‘plab maqsadlarni qo‘ygan. Maqsadlar qisqa muddatda bajariladigan yoki istiqbolga mo‘ljallangan hamda doimiy bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonning doimiy belgilangan maqsadi, u oliy maqsad ham deb ataladi – inson huquq va

erkinliklarini ta'minlashdir (54-modda).

DAVLATNING TUZILISH SHAKLI – davlatning tuzilishini bildiruvchi xususiyat bo'lib, davlatlar federativ (murakkab) yoki unitar (oddiy) shaklda bo'lishi mumkin. Federativ davlat bir necha mustaqil davlatlar yoki alohida hududlarning birlashishi natijasida vujudga keladi. Ularda bir nechta konstitutsiya, bir necha oliy davlat organlari, sud organlari bo'lishi mumkin. Bunda federatsiya subyektlari va federatsiyaning konstitutsiyasi, oliy organlari nazarda tutiladi. Federativ davlatlarga AQSh, Braziliya, Germaniya, Hindiston, Rossiya misol qilib ko'rsatish mumkin. Unitar davlat yagona konstitutsiyaga, yagona qonunchilik yagona fuqarolik va oliy idora organiga ega markazlashgan davlatdir. Unitar davlatlarga O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Fransiya, Italiya va boshqalar kiradi.

DAVLAT VA INSON O'RTASIDA VUJUDGA KELADIGAN ZIDDIYATLARNI HAL QILISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSI – Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatida vujudga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi (hal qilinadi) (20-modda).

DAM OLISH HUQUQI – Konstitutsiyada belgilangan bo'lib (75-modda), u kishilarning mehnat qobiliyatini tiklash uchun zarur sharoitdir. Bu huquq natijasida kishilar ish kuni tugagandan keyingi ish kunigacha, haftalik, bayram kunlari, mehnat ta'tillari vaqtida dam oladilar. Bu davrlarda xodimlar, mehnat qilishga jalb etilmaydilar. Haq to'lanadigan mehnat ta'tillarining muddatlari mehnat qonunlari bilan belgilab qo'yiladi. Dam olish vaqtini har bir kishi xohlagancha o'tkazadi.

DEKLARATSIYA – siyosiy-huquqiy akt nomi. Deklaratsiyada ma’lum voqealarga tantanali ruh beriladi. 1990 yil 20 iyulda O‘zbekiston hali ittifoq tarkibida turgan vaqtda, mustaqillik uchun asos solgan hujjat “Mustaqillik deklaratsiyasi” Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan. D. xalqaro hujjatlarning nomi ham bo‘lib, ular tavsiyaviy xarakterga ega bo‘ladi. Masalan: Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi.

DEMOKRATIK DAVLAT – bunday davlatda davlat organlarini tashkil qilishda, ularning faoliyatida mamlakat fuqarolari turli tuman yo‘llar orqali keng ishtirok etadilar. Fuqarolarning davlat organlarini tashkil qilishdagi ishtiroki qonun yo‘li bilan kafolatlanadi va ularning ishtirokiga keng imkoniyatlar yaratiladi. Demokratik davlatda inson manfaati, qadr-qimmat, hayoti, sog‘lig‘i har narsadan yuqori turadi. Davlat fuqarolarning huquq erkinliklarini ta’minlash choralarini doimiy ravishda ko‘rib boradi. Davlat fuqarolar nazoratida bo‘lib, ularga turli vositalar orqali hisob beradi. Demokratik davlat o‘zini o‘zi boshqarish, ko‘p partiyalilik ommaviy axborot vositalarining erkin bo‘lishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi. O‘zbekiston demokratik davlat ekanligi Konstitutsiyada belgilangan (1-modda).

DEMOKRATIYA – «xalq hokimiyati» degan ma’noni bildiradi. Demokratiya xalqning davlat organlarini tuzish, ularning ishida ishtirok etishi, davlat organlari ishini tashkil etish, mamlakatda inson huquqlarini ta’minlash orqali namoyon bo‘ladi. U davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Demokratiya bevosita demokratiya va vakillik demokratiyasi shaklida bo‘ladi. Demokratiya hamma narsada xohlagancha erkinlik emas, qonunga asoslangan erkinlikdir. Demokratiyaning ajralmas qismi intizom, qonunlarni hurmat

qilish, boshqalarning haq-huquqini hurmat qilishdir.

DENONSATSIYA – xalqaro atama bo‘lib, xalqaro shartnomalarni bir tomonlama bekor qilish hisoblanadi. Xalqaro shartnomalarni denonsatsiya qilish Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatiga kiradi (93-modda, 4-band). Shartnomalarni denonsatsiya qilish taklifi shartnoma darajasiga qarab O‘zbekiston Prezidenti hamda hukumat vakolatiga kiradi.

DEPUTAT – Qonunchilik palatasiga, mahalliy Kengashlarga saylovchilar tomonidan besh yilga saylanadigan vakillardir. Qonunchilik palatasi deputatlari professional asosda faoliyat ko‘rsatadi. Ular pedagogik va ilmiy faoliyatdan boshqa haq oladigan ishda ishlashi mumkin emas. Mahalliy Kengash deputatlari faoliyatini jamoatchilik asosida, asosiy ish joyidan ajralmagan holda olib boradi. Deputatlikka saylanuvchilar oldiga ma‘lum talablar qo‘yiladi va deputatlar deputatlik daxlsizlik huquqidan foydalanadi. O‘zbekistonda olib borilayotgan ma‘muriy islohotlar, mahalliy Kengash deputatlarining ma‘lum qismini haq evaziga deputatlik faoliyatini bajarishni nazarda tutmoqda.

DEPUTAT GURUHI – O‘zbekistonda deputat guruhlar mahalliy Kengashlarga siyosiy partiyalar tomonidan nomzod ko‘rsatilib saylangan deputatlar tomonidan tuziladi va partiya guruhlar deb ataladi. Ular partiya manfaatini ifoda etadi. Masalalarni muhokamasida ishtirok etadi.

DEPUTAT ODOBI – Parlament ishida vakillik organlari ishtirok etishda amal qilinadigan axloqiy ma‘naviy normalar yig‘indisi bo‘lib, u orqali deputatning qonun chiqaruvchi organga, mahalliy vakillik organiga uning tuzilmalariga, boshqa deputatlarga munosabati, ular bilan aloqasi shakllanadi. Deputat odobi faqat axloqiy normalar bilan

belgilanmay, tegishli huquqiy hujjatlarda qayd qilingan deputatning huquq va burchlari bilan ham belgilanadi. Deputat odobining buzilishi ijtimoiy va intizomiy choralari ko'rishga sabab bo'ladi. Deputat odobiga rioya etilishi ustidan nazorat vakillik organlarida maxsus tuzilgan komissiya tomonidan olib boriladi.

DEPUTAT SAYLASH Qarang: Saylov.

DEPUTAT SO'ROVI – deputat va vakillik organlarining nazorat shakllaridan biri. Deputat so'rov bilan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari sessiyalarda va Qonunchilik palatasi sessiyalarida ijro hokimiyati organlariga, mansabdor shaxslarga ijtimoiy xarakterga ega masalalarga javob olish uchun murojaat qiladi. So'rov yuzasidan berilgan ma'lumot sessiyada muhokama qilinib, qaror qabul qilinadi. So'rov alohida deputatlar yoki bir guruh deputatlar tomonidan berilishi mumkin. U iltimos va shikoyatdan farq qiladi.

DEPUTATLAR BIRLASHMASI – o'zlarini nomzodlarini ko'rsatganlarni manfaatini vakillik organlarida ifodalash maqsadida tuziladi. D. b. fraksiya, guruh, blok ko'rinishida bo'ladi.

DEPUTATLARNI RO'YXATGA OLIISH – Markaziy saylov komissiyasi saylov okruglari bayonnomasi asosida Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarni ro'yxatga oladi. Mahalliy Kengash deputatlarini hududiy saylov komissiyalari bayonnomasi asosida ro'yxatga oladi. Deputatlar ro'yxatga olingan paytdan boshlab deputatlik maqomiga ega bo'ladi.

DEPUTATLIK DAXLSIZLIGI – deputatlarga o'z deputatlik faoliyatini mustaqil, holi olib borish imkoniyatini yaratadigan kafolatdir. Qonunlarga asosan har bir vakillik organining deputatlari, shu vakillik organlari va u vakolat

bergan organ roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi, mumkin emas.

DEPUTATNING INTIZOMIY JAVOBGARLIGI –

yuridik javobgarlikning alohida turi sifatida faqat saylab qo'yiladigan deputatga nisbatan qo'llaniladi. Bu javobgarlik deputat vakillik organi reglamentida belgilangan majburiyatini bajarmasa, deputatlik odobi qoidalarini buzsa vujudga keladi. Javobgarlikka nisbatan jazo choralari tegishli hujjatlarda ko'rsatiladi.

DEPUTATNING HUQUQIY MAQOMI –

deputatlarga tegishli huquq va burchlarning qonun bilan belgilangan yig'indisi. Deputatlarga ma'lum huquqlar berilishi bilan birga, ularga ma'lum burchlar ham yuklanadi. Deputatning sessiyalarda ishtirok etishi, savol va so'roq berishi, ovoz berishda ishtirok etishi ularning huquqi bo'lsa, sessiyada albatta ishtirok etish zarurligi uning burchi hamdir, bundan tashqari deputatlarning saylovchilar oldida hisob berishi, belgilangan vaqtlarda saylovchilarni qabul qilishi ularning burchlaridandir. Huquq va burchlar birgalikda deputatning huquqiy maqomini bildiradi. Deputatning huquqiy maqomi maxsus qonunda o'z ifodasini topgan.

DEPUTATNI CHAQIRIB Olish –

deputat vakolatini muddatidan avval tugatishdir. Deputatni chaqirib olish asoslari maxsus qonunda belgilangan bo'lib bular: respublika qonun hujjatlarini belgilangan turdagi javobgarlikka olib kelishi mumkin bo'lgan darajada buzishlik; axloq, deputatlik odobini umum e'tirof etilgan normalarini qo'pol ravishda buzish va vakillik organlarining obro'siga putur yetkazuvchi harakatlar sodir etish; o'z vazifa va majburiyatlarini muntazam ravishda uzrli sababsiz bajarmaganlik.

Deputatni chaqirib olish to'g'risidagi qaror Qonunchilik

palatasi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan qabul qilinadi va qaror Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi. Qaror asosida Markaziy saylov komissiyasi, saylov to'g'risidagi qonunchilik asosida ovoz berishni tashkil etadi. Ovoz berish tegishli okruglardagi saylov uchastkalarida o'tkaziladi. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning yarmidan ko'pi chaqirish haqidagi qarorni yoqlab ovoz bersa deputat chaqirib olingan hisoblanadi. Saylovchilarni yarmidan ko'pi yoqlab ovoz bermasa deputat chaqirib olinmagan hisoblanadi. Ovozlar teng bo'lib qolganda ham deputat chaqirib olinmagan hisoblanadi.

DINIY TASHKILOTLAR – Fuqarolarning ko'ngilli birlashmalari bo'lib, uni tuzishdan maqsad dinga jamoa bo'lib e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlari birgalikda jamoa bo'lib ado etishdir. D.t.lar shakllari diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlardir. Har bir dinga e'tiqod qiluvchilar o'z uyushmasini tuzishi mumkin.

D.t.lar yuz nafardan kam bo'lmagan, shu yerda doimiy istiqomat qiluvchi fuqarolar tashabbusi bilan tuzilishi mumkin.

D.t.lar Adliya organlaridan ro'yxatdan o'tgach, yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va qonuniy hisoblanadi. Diniy tashkilotlar davlat ishiga, siyosiy hayotga aralashmaydi. Diniy tashkilot va birlashmalar davlatdan ajratilgan. Davlat diniy tashkilotlar ishiga aralashmagan holda, ularni nazorat qiladi.

DIPLOMATIK VAKIL – davlatning boshqa xorijiy mamlakat va xalqaro tashkilotlardan rasmiy vakili. D.v. institutida diplomat alohida rol o'ynaydi. O'zbekistonning chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillari Prezident

taqdimiga asosan Oliy Majlis Senati tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. D.v. tashqi ishlar idoralarining professional xodimidir. Diplomatik vakil xorijiy mamlakatlar bilan munosabatda o'z davlatini manfaatlarini himoya qiladi. O'zbekiston vakillari xorijiy mamlakatlardan tashqari, xalqaro tashkilotlarda ham, jumladan BMTda faoliyat yuritadi.

DUNYOVIY DAVLAT – davlatning huquqiy tavsifi. Ayrim mamlakatlarning Konstitutsiyasida mazkur davlat dunyoviy davlat deb ko'rsatib qo'yilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasida davlatimiz dunyoviy davlat ekanligi mustahkamlangan (1-modda). Dunyoviy davlatda din davlatdan ajratilgan, diniy tashkilotlar maktab ishlariga aralashmaydi; davlat va diniy tashkilotlar faoliyatida aniq chegara mavjud va ular bir birini ishiga aralashmaydi. Dunyoviy davlatda biror bir din ustuvorlikka ega emas, u davlat dini bo'la olmaydi. Davlat mamlakatdagi barcha dinlarga bir xil munosabatda bo'ladi.

E

ERKIN OVOZ BERISH HUQUQI — ovoz berishni demokratlashtiruvchi prinsip. Konstitutsiya va saylov qonunchiligiga ko'ra ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. Hech kim ovoz berishga yoki biror bir nomzod uchun ovoz berishga majbur qilinmaydi. Shuningdek saylovchini ovoz berishga to'sqinlik ham qilinmaydi. Ovoz berishni erkinligi tufayli saylovchi xohlasa ovoz berishda ishtirok etadi, xohlamasa ovoz berishda ishtirok etmaydi. Buning uchun hech kim hech qanday tazyiqqa uchramaydi.

ERKIN HARAKATLANISH HUQUQI — O'zbekiston fuqarosi

mamlakat hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish (harakatlanish), ya'ni turar joyini o'z ixtiyori bilan tanlash, O'zbekiston Respublikasiga kelish yoki undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda o'rnatilgan cheklashlar bundan mustasno bo'lib, cheklash xavfsizlik nuqtai nazaridan bo'lishi mumkin (32-modda).

ERKINLIK — bu nimadadir (xulq-atvorda, faoliyatda) biror bir ya'ni qonun bilan taqiqlangan cheklashni yo'qligi. Fuqarolarning o'z huquqlarini erkin amalga oshirishi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat belgilaridandir. Ko'pincha “erkinlik” so'zi “huquq” so'zi bilan birga ishlatiladi. Masalan, Konstitutsiyaning 35-moddasida shunday deyiladi: “hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega”.

F

FAVQULODDA SUDLAR — alohida sud organlari bo'lib, istisno holatlarida tuziladi (urush, favqulodda vaziyat amalda bo'lgan paytda, davlat to'ntarishi bo'lgandi). Favqulodda sudlar har doim terroristik xarakterga ega. Favqulodda sudlar odatdagi o'rnatilgan qonunlar bilan belgilanadigan sudlov tartibi qoidalariga aloqasi yo'q. Ular hattoki, ko'pincha odil sudlovning eng elementar prinsiplariga amal qilmaydi. (Masalan, aybsizlik prezumpsiyasi, ayblanuvchining himoyalanih huquqi). Odatda, favqulodda sudlar o'z ishlarini yopiq holda ko'radi va ularning qarorlari ustidan shikoyat qilinmaydi. Shuning uchun butun dunyodagi barcha ma'rifiy, demokratik mamlakatlarning konstitutsiyalarida favqulodda sudlarni tuzish to'g'ridan-to'g'ri taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 131-

moddasiga muvofiq favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

FAVQULODDA HOLAT — Konstitutsiyaviy huquqning muhim institutlaridan biri, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining, korxona, muassasa va tashkilotlar faoliyatining alohida rejimi bo'lib, bu rejimga muvofiq fuqarolarning huquq va erkinliklari, yuridik shaxslarning huquqlari maxsus qonunlarda belgilangan tartibda cheklanadi. Ular zimmasiga qo'shimcha majburiyatlar yuklatiladi. Favqulodda vaziyat yuz berganda favqulodda holat e'lon qilinadi. Bu odatda vaqtinchalik tadbir bo'lib, avvalambor, jamoatchilik va davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'rnatiladi. Favqulodda holat o'rnatish uchun quyidagi sabablar asos bo'la oladi: 1) real tashqi xavf; 2) ommaviy tartibsizliklar; 3) yirik halokat; 4) tabiiy ofat, epidemiyalar. Ko'pchilik mamlakatlarda favqulodda holatni joriy etish davlat boshliqlari zimmasida bo'lib, parlament tomonidan tasdiqlanishi shart hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida favqulodda holatni O'zbekiston Prezidenti joriy etadi. Bu haqdagi qaror uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdig'iga kiritiladi. (109-modda, 19-band).

FARMON — ayrim mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda davlat boshlig'i Prezident tomonidan qabul qilinadigan hujjatning nomi. O'zbekiston Prezidenti o'ziga tegishli vakolatlar yuzasidan farmonlar chiqaradi. Farmon qonundan keyingi yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan huquqiy hujjatdir. Qarang: Prezident qabul qiladigan hujjatlar.

FEDERATIV DAVLAT — davlat tuzilishining murakkab shakli. Federativ davlat ma'lum siyosiy mustaqillikka ega davlatlarning birlashishi natijasida vujudga keladi. Federativ

davlat tarkibiga kiruvchi milliy va hududiy tuzilmalar federatsiya subyektlari deb atalib, ular turli huquqiy maqomga ega bo'ladi. Federativ davlat milliy yoki hududiy tamoyillar asosida tuzilishi mumkin. Federatsiyaning subyektlari respublika, viloyat, o'lka (Rossiyada), shtat (AQSh va Hindistonda), yerlar (Germaniyada) deb ataladi. Federativ davlatlarda bir necha Konstitutsiya, bir necha fuqarolik bo'ladi.

FIKRLASH ERKINLIGI —insonning eng asosiy shaxsiy huquqlaridan biri bo'lib, eng avvalo, shaxsning har qanday mafkuraviy tazyiqdan holi, erkin ekanligini, har kim o'zi uchun xohlagan ma'naviy qadriyatlar tizimini mustaqil tanlashini anglatadi. Fikrlash erkinligi insonning intellektual va ma'naviy hayotining hamma yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Fikrlash erkinligi insonning shaxsiy huquqi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasiga ko'ra, har kim fikrlash erkinligi huquqiga ega, fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

FRAKSIYA — deputatlar birlashmasi. O'zbekistonda fraksiya siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladi. Fraksiya tuzish uchun zarur bo'lgan deputatlar soni belgilab qo'yiladi. Fraksiya belgilangan tartibda Qonunchilik palatasidan ro'yxatdan o'tkaziladi. Bir necha fraksiyalar blokka birlashishi mumkin. Shuningdek, fraksiyalar o'zini parlamentdagi muxolifat deb e'lon qilishi mumkin. Fraksiyalar faoliyati Qonunchilik palatasi reglamenti bilan tartibga solinadi.

FUQARO — shaxsning huquqiy asoslar orqali ma'lum davlatga

mansubligi. Shaxs fuqaro hisoblansa, ma'lum huquq va erkinliklarga ega bo'ladi hamda burchlarni bajarishga majbur bo'ladi. Fuqaroning huquqiy holati tegishli mamlakatda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning yoki chet el fuqarolarining huquqiy holatidan farq qiladi. Masalan: siyosiy huquqlar faqat fuqarolarga taalluqli bo'ladi. Yana qarang fuqarolik.

FUQARONING KONSTITUTSIYAVIY BURCHI —

davlatning o'z hududida bo'lgan har qanday shaxs yoki o'sha davlat fuqarosiga, u qayerda bo'lishidan qati nazar konstitutsiyaviy-huquqiy me'yorlar asosida qo'yadigan talabidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra barcha fuqarolar konstitutsiyada belgilangan burchlarni bajaradilar (59-modda), O'zbekiston fuqarolari Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga (60-modda); O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga (61-modda); atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga (62-modda); qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga (63-modda), O'zbekiston Respublikasini (Vatanni) himoya qilish, shuningdek, qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar (64-modda).

FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH

ORGANLARI — fuqarolarning xalq hokimiyatini amalga oshirishining, davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishining vositalaridan biridir. O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarning (aholining) yig'inlari hisoblanadi. O'zini o'zi boshqarish organlari shaharcha, qishloq, ovullarda, ularning tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda tashkil qilinadi. Ular o'z

yig'inlarida Raisni saylaydi. Fuqarolar yig'ini yoki ularning vakillari yig'ilishida shu yerda istiqomat qiluvchi 18 yoshga yetgan barcha fuqarolar ishtirok etishi mumkin. O'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish tartibi, vazifasi, vakolatlari dastlab 1993 yil 2 sentabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" gi qonunda belgilab qo'yilgan edi. Bu Qonun 1999 yil 14 aprelda va 2013 yil 22 aprelda yangi tahrirda qabul qilindi.

FUQAROLARNING TENG HUQUQLILIGI —

Konstitutsiyaviylikning asosiy prinsiplaridan va demokratiyaning asosiy elementlaridan biri bo'lib, fuqarolarning davlat, qonun, sud oldida teng deb rasman tan olinishi, ya'ni muayyan davlat fuqarolarining jinsi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan, yashash joyi, dinga munosabati, e'tiqodidan qat'i nazar huquq va erkinliklarda, majburiyatlarda shuningdek qonun oldida teng ekanligini anglatadi. Ushbu konstitutsiyaviy prinsip O'zbekiston Konstitutsiyasining 19-moddasida mustahkamlangan.

FUQAROLIK — ma'lum shaxsning ma'lum bir davlat bilan barqaror huquqiy aloqa o'rnatishi, shaxs fuqarolikka ega bo'lgach, davlat uning hamma huquq va erkinliklarini e'tirof etadi, ularni amalga oshishini ta'minlash choralarini ko'radi. Fuqarolarning manfaatini davlat, fuqarolar boshqa mamlakatlar hududida turgan vaqtda ham himoya qiladi. Uz navbatida, fuqarolar davlat, jamiyat oldida ba'zi burchlarni bajaradilar. O'zbekistonda yagona fuqarolik o'rnatilgan, ya'ni O'zbekiston fuqarolari bir vaqtning o'zida boshqa mamlakatlarning fuqarolari bo'lishi mumkin emas.

FUQAROLIK JAMIYATI — ma'lum ijtimoiy tizim bo'lib, unda shaxsga iqtisodiy va siyosiy turmushini o'z ixtiyori asosida

qurishga to'la erkinlik kafolatlanadi. Fuqarolik jamiyatida umuminsoniy huquqlar ta'minlanadi va siyosiy turli fikrlilik o'rnatiladi. Fuqarolik jamiyatida davlat faoliyati yuzasidan fuqarolarning to'la nazorati o'rnatiladi, davlatning ko'pgina vazifalari mahalliy joylarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, jamoat birlashmalariga, nodavlat tashkilotlariga o'tadi. Hozir O'zbekiston fuqarolik jamiyati qurish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI — fuqarolik jamiyati – demokratik jamiyat bo'lib, unda iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar eng yuqori darajada va inson manfaatlariga mos tushadigan tarzda o'rnatiladi. Fuqarolik jamiyati har bir kishiga o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini yaratadigan jamiyatdir. Yuqori darajadagi ijtimoiy munosabatlarni vujudga kelishida, har kimga o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishiga imkoniyat yaratishda davlat bilan birga boshqa tashkilotlar – nodavlat tashkilotlar muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ular fuqarolik jamiyati institutlari sifatida e'tirof etiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ularga konstitutsiyaviy maqom berildi. Uning XIII bobi, "Fuqarolik jamiyati institutlari" deb nomlandi. 69-moddaga asosan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyati institutlari bo'lib, ular jamiyatining asosini tashkil etadi.

FUQAROLIK HUQUQI — fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishi asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilash, shartnoma

majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek, boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari yig'indisidan iborat. Fuqarolik huquqi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga asoslanadi.

FUQAROLIKDAN CHIQISH — har bir fuqaro, jumladan, O'zbekiston fuqarosi o'z ixtiyori bilan fuqarolikdan chiqishi mumkin. Fuqarolikdan chiqmoqchi bo'lganlar oldiga ma'lum shartlar qo'yiladi, ya'ni ular davlat, jamoa, fuqarolar oldida hech qanday majburiyatga, qarzga ega bo'lmasligi, davlat va harbiy sirlardan voqif bo'lmasligi kerak. Agar fuqarolikdan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lsa yoki unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro etilishi zarur bo'lgan sud hukmi bo'lsa, u fuqarolikdan vaqtincha chiqarilmaydi. Quyidagi hollarda O'zbekiston fuqarosi fuqaroligini yo'qotadi: 1) chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, politsiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati idoralariga ishga kirsa; 2) chet elda yashovchi O'zbekiston fuqarosi besh yil davomida uzrli sababsiz konsullik hisobiga turmasa; 3) fuqarolikni soxta hujjatlar taqdim etib olgan bo'lsa, fuqarolikdan chiqarish O'zbekiston Prezidenti vakolatiga kiradi.

FUQAROLIKKA EGA BO'LISH — buning bir necha yo'llari bor. Fuqarolikka tug'ilish bilan ega bo'linadi, ya'ni O'zbekiston fuqarolarining farzandlari, ular qaysi mamlakatda tug'ilmasin O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Ota-onalari turli mamlakat fuqarosi bo'lgan farzandlarning fuqaroligi qonun bilan hal qilinadi. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yoki chet el fuqarolari o'z ixtiyorlari bilan O'zbekiston fuqaroligiga o'tishi mumkin. Bunda ular

ma'lum muddat O'zbekistonda yashagan, chet el fuqarosi bo'lsa, tegishli mamlakat fuqaroligidan chiqqan bo'lishi, qonuniy tirikchilik manbalariga ega bo'lishi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini tan olishi va bajarishi kerak. Fuqarolikka qabul qilish huquqi O'zbekiston Prezidenti vakolatiga kiradi.

FUQAROLIKNI TAN OLISH — Fuqarolikka ega bo'lish usullaridan biri bo'lib, u davlatning o'z hududida doimiy yashab kelayotgan yoki tegishli qonunda belgilangan tartibda mazkur davlat fuqaroligiga qabul qilingan shaxslarning mavjud huquqiy holatini yuridik mustahkamlaydigan o'z ixtiyoriga ko'ra amalga oshiradigan xatti-harakati. «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida» gi Qonunga ko'ra, kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodi, mashg'ulotining turi, saviyasidan qati nazar, ushbu qonun kuchga kirgan vaqtda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmagan hamda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari deb tan olinadi.

FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLAR — biror bir mamlakatga huquqiy mansub bo'lmagan shaxslardir. Bunday shaxslar har qanday mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham mavjud. Ular siyosiy huquqlardan foydalanmaydi. O'zlarining xohishi bilan O'zbekiston fuqaroligiga o'tishi mumkin. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning manfaati, huquq-erkinliklari qonun bilan himoya qilinadi. O'zbekiston qonuni mamlakatda fuqaroligi bo'lmagan shaxslari kamaytirishni nazarda tutadi, ya'ni O'zbekistonda tug'ilgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning

farzandlari, O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

FUQAROLAR YIG'INI — Qarang: Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.

FUQAROLAR YIG'INI RAISI — Konstitutsiyaga binoan, rais fuqarolar yig'ini tomonidan uch yilga saylanadi. Rais fuqarolar yig'ini ishini tashkil qiladi va hududda o'zini o'zi boshqarish faoliyatini doimiy bo'lishini ta'minlaydi. Rais mahalladagi, barcha 18 yoshga yetganlar (fuqarolar yig'ini a'zolari) tomonidan yoki ularning vakillari tomonidan ochiq yoki yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Rais lavozimiga nomzodlar qoida tariqasida oliy ma'lumotli bo'lishi, saylov kuni tegishli hududda doimiy yashab turgan bo'lishi, tashkilotchilik qobiliyatiga, hayotiy tajribaga, aholi o'rtasida obro', e'tiborga ega bo'lgan shaxslardan tanlanadi.

FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQ VA BURCHLARI — turli mamlakatlarda fuqarolar uchun o'rnatilgan va konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq, erkinlik va burchlar yig'indisi. Asosiy huquq va burchlar Konstitutsiyada belgilangani uchun ular konstitutsiyaviy huquq va burchlar ham deb ataladi. Asosiy huquq va burchlar boshqa (oddiy) huquq va burchlarni kelib chiqarishi mumkin. Masalan, mehnat qilish asosiy huquq bo'lsa, uning natijasida fuqarolar qulay sharoitlarda mehnat qilishi, mehnat qurollaridan, texnika yutuqlaridan foydalanish huquqlariga ham ega.

FUQAROLAR HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFILI — fuqarolarning huquq va erkinliklarini amal qilishini, ta'minlanishining muhim sharti huquq va erkinliklarga rioya etilishining kafili O'zbekiston Prezidentidir. U bu mas'uliyatni o'z qasamyodida tantanali qayd qiladi.

FUQAROLAR MUROJAATLARI — fuqaro o'zi, yoki

boshqalar bilan birga (jamoa bilan) vakolatli davlat organlariga, hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Murojaatlar belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqiladi. Ariza, taklif, shikoyat-murojaatlar turlari bo'lib, ularning shakli, mazmuni, maqsadi har xil. Fuqarolar, shuningdek davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan bevosita sudga shikoyat qilish huquqiga ham ega. Fuqarolarning murojaatlari mamlakatdagi ahvolga baho berishga yordam beradi. Ular natijasida muammolar aniqlandi (40-modda). Bu masala maxsus qonun bilan tartibga solinadi.

FIKRLASH, SO'Z, E'TIQOD ERKINLIGI — Qarang: so'z erkinligi.

FIKRLAR XILMA-XILLIGI — jamiyat rivojlanishini ta'minlovchi vositalardan biri. Erkin jamiyatning ajralmas xususiyati. Shaxs erkinligining amal qilish, fikrlar xilma-xilligi so'z erkinligi, matbuot erkinligi orqali amalga oshadi.

FARZANDLARNING OTA-ONA OLDIDAGI BURCHI — Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarni o'z otalari haqida g'amxo'rlik qilish majburiyati (80-modda). Har bir farzand otasiga hayot kechirishi uchun qulay sharoit yaratishi kerak. Bu ularni qulay sharoitli turar joy, normal kiyim-kechak, yetarli oziq-ovqat bilan ta'minlashni bildiradi. Farzandlar burchiga otasini sog'lig'ini saqlash, zarur hollarda ularni davolash ham kiradi.

FARZANDLARNING TENGLIGI — otasining kimligi — nasl-nasabi, millati, mulkiy holati va fuqaroligidan qat'i nazar farzandlar qonun oldida tengdirlar.

FUQAROLIK HOLATLARI DALOLATNOMALARINI QAYD QILISH ORGANLARI — fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd qilish, tegishli oqibatlarni keltirib chiqaradi. Tug'ilish, o'lim, nikoh tuzish, nikohdan ajrash kabi voqealar har bir shaxs hayotida muhim voqea. Bu masalalar maxsus organlar tomonidan qayd qilinadi va yuridik ahamiyatga ega bo'ladi. Bu organlar farzandlikka olish, otalikni belgilash, familiya, ism va ota ismini o'zgartirish kabi faktlarni o'z dalolatnomalari bilan rasmiylashtiradi.

H

HARBIY MAJBUR — harbiy xizmat o'tish majburiyati. Erkak jinsidagi, ma'lum yoshga yetgan va ma'lum yoshgacha bo'lgan, sog'lig'i shu ishga yaroqli fuqarolarni ma'lum muddat harbiy xizmat o'tash burchi. Harbiy majburlik natijasida fuqarolar turli davrlarga harbiy o'quv mashg'ulotlariga jalb qilinib turiladi.

HARBIY SUDLAR — Harbiy sudlar, bular ham umumiy yurisdiksiya sudlari tizimiga kiradi. Lekin o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning vazifasi, odil sudlovni amalga oshirib, harbiy xizmatchilar huquqi va erkinliklarini buzadigan harbiy boshqaruv organlari va harbiy mansabdor shaxslar xatti-harakatiga qonuniy baho berishdir.

HARBIY HOLAT — urush holati atamasining o'xshashi. Ayrim mamlakatlarda shunday ataladi.

HISOB PALATASI — davlatning moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi tashkilot, muassasalar ajratilgan budjet mablag'laridan qonuniy foydalanish ahvolini tekshiruvchi organ. Hisob palatasi Oliy Majlis oldida hisob beradi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, va Senati reglamentlarida

Qonunchilik palatasi va Senat har yili Hisob palatasini hisobotini eshitishi belgilab qo'yilgan. Hisob palatasi raisi hisob palatasini ishini tashkil qiluvchi oliy mansabdor shaxs. Hisob palatasini raisi nomzodini Senat ma'qullaganidan so'ng Prezident lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi (109-modda, 11-band).

HOKIM – O'zbekiston Respublikasida joylardagi oliy mansabdor shaxs, mahalliy ijro hokimiyati boshlig'i. Hokimlar viloyatlarda, tumanlarda va shaharlarda mavjuddir. Ularning vakolat muddati besh yil. Konstitutsiyaga asosan Prezident viloyat va Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi. Tuman va shahar hokimlari yuqori turuvchi hokim tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi hamda bu masala tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushiradigan xatti-harakat sodir etish tuman va shahar hokimlarini Prezident o'z qarori bilan lavozimidan ozod qilishga haqli. Hokimlar yakkaboshchilik prinsipida ish olib boradi va ularning chiqargan hujjatlari shu hududda bajarilishi shart. Hokimlik faqat yakkaboshchilik boshqaruvigina emas, kuchli mas'uliyat hamdir. Hokim faqat o'zining qarorlarigina emas, o'zi rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun ham shaxsan javobgardir. Hokim tegishli kengash oldida hisob beradi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shaharning hokimi etib tayinlanishi mumkin emas.

HOKIMIYAT BO'LINISHI PRINSIPI — huquqiy davlatning muhim shartlaridandir. Bu prinsip orqali aslida yagona bo'lgan davlat hokimiyati tarmoqlarga bo'lingan holda

amalga oshiriladi. U davlat o'z vazifasini malakali amalga oshirishini ta'minlaydi. Shu prinsip asosida davlat organlari tashkil qilinadi, biror-bir davlat organida haddan tashqari vakolatlar to'planib qolishining oldi olinadi, turli davlat organlarining vakolatlari aniq bo'lib, ular bir-birining vazifasini bajarishga, o'rni bosishga harakat qilmaydi, turli davlat organlari bir-birini nazorat qilib turadi, vakolatlar bir yerda to'planib qolmaydi. Bundan oqibat natijada fuqarolar manfaatdor bo'ladi. Hokimiyatning bo'linishi prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida belgilangan bo'lib, unga asosan hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linadi.

HUJJATLAR BILAN TANISHISH HUQUQI — fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlaridan hisoblanadi. Uning amali natijasida barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan har qanday hujjatlar (qaror, farmoyish, hukm, hal qiluv qaror, ajrim) bilan tanishib chiqishiga imkoniyat yaratib beradi. Fuqarolar hujjatlardan ko'chirma (nusxa) olishi, kerakli ma'lumotlarni yozib olishi mumkin (30-modda).

HUKUMAT — Qarang: Vazirlar Mahkamasi.

HUKUMAT BOSHIG'I — davlat hokimiyatining oliy ijro organi rahbari, turli mamlakatlarda hukumat boshlig'i turlicha nomlanadi: Bosh vazir, Vazirlar Kengashining Raisi, Hukumat boshlig'i va hokazolar. Ayrim mamlakatlarda Prezident bir vaqtning o'zida hukumat boshlig'i hisoblanadi.

HUQUQ — ushbu so'zning bir necha ma'nosi bo'lib, birinchidan, u davlat tomonidan bajarilishi majburiyligi o'rnatilgan yurish-turish qoidalari, xatti-harakatlardir. Ikkinchidan, huquq tushunchasi fuqarolarga nisbatan olinsa, u ularga

berilgan imkoniyat. Huquq konstitutsiyaviy yoki oddiy huquqlarga bo'linadi. Konstitutsiyaviy huquqlar konstitutsiyaviy normalar bilan, oddiy huquqlar oddiy qonunlar bilan belgilanadi. Uchinchidan, huquq o'z navbatida tarmoqlarga bo'linadi: konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi va boshqalar; ular alohida hujjatlarda mustahkamlab qo'yiladi.

HUQUQ BUZILISHI — huquq normalariga, ya'ni qonun va boshqa hujjatlarga rioya qilmaslik. Huquq qasddan yoki ehtiyotsizlikdan ham buzilishi mumkin. Bundan tashqari huquq harakat tufayli yoki harakatsizlik tufayli ham buziladi. Huquq oddiy fuqarolar tomonidan ham, mansabdor shaxslar tomonidan ham buzilishi mumkin. Ko'p hollarda qonunlarni bilmaslik ham huquq buzilishiga olib keladi. Huquq buzilishi turli javobgarliklarni keltirib chiqaradi. Huquq buzilishi tegishli organlar tomonidan aniqlanadi va unga nisbatan choralar ko'riladi. Buzilgan huquq qayta tiklanadi.

HUQUQ VA ERKINLIK LARNI DAVLAT TOMONIDAN TA'MINLASH — huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlarda yozib qo'yilishi bilan masala hal bo'lmaydi. Huquq va erkinliklarni qonunlarda yozib qo'yish eng oson ish. Ularni amal qilishi ta'minlanmasa huquq erkinliklar qog'ozda qolib ketadi. Shuning uchun huquq va erkinliklarni ta'minlash murakkab va mas'uliyatli ish bo'lgani sababli, ularni ta'minlashni davlat o'z zimmasiga oladi. «Davlat Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi» deb Konstitutsiyada yozib qo'yilgan (54-modda). Bu huquq va erkinliklarning muhim, samarali kafolatidir.

Davlatning bu vazifasi vakillik, ijro Sud hokimiyati, prokuratura organlari faoliyatini muhim qismini fuqarolar

huquqlarini himoya qilishga qaratishni taqozo etadi. Shuning uchun ularning tarkibida inson huquqlarini himoya qiluvchi bo'linmalar tashkil qilingan. Bundan tashqari mamlakatimizda davlat tomonidan inson huquqlarini ta'minlovchi, himoya qiluvchi Milliy institutlar tizimi yaratilgan. Mamlakatimizda Milliy institutlar Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi shular jumlasidan bo'lib, ular davlatning fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash vazifasini amalga oshirishga ko'maklashmoqda.

HUQUQ VA ERKINLIKLARNI DAXLSIZLIGI — huquq va erkinliklarni sud qarorisiz mahrum etishga, cheklashga hech kimni haqli emasligini bildiradi. Inson huquqlariga tegishli konstitutsiyaning ayrim moddalarida huquq va erkinliklar qanday paytda cheklanishi ko'rsatib qo'yilgan. Masalan, 33-moddada, fikr yuritish va uni ifodalash, axborot olish faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkinligi ko'rsatilgan.

HUQUQ VA ERKINLIKLAR KAFOLATI — huquq va erkinliklarning amalga oshishini, ro'yobga chiqishini ta'minlovchi vositadir. Huquq va erkinliklarni qonunlarda yozib qo'yish bilan cheklanmay, shu qonunlarda ularni amalga oshirish yo'llari ham belgilanishi huquqiy kafolat hisoblanadi. Konstitutsiyaning 10-bobi huquq va erkinliklarning kafolatlarini belgilab qo'ygan. Unga asosan huquq va erkinlik davlat, sud hokimiyati tomonidan kafolatlanadi, O'zbekiston Prezidenti ham huquq va erkinliklarning kafilidir. Bundan tashqari huquq va erkinliklarning amalga oshishi uchun iqtisodiy manbalar, imkoniyatlar ham zarur. Ana shu imkoniyatlarning

yaratilishi iqtisodiy kafolat hisoblanadi. Davlatimiz iqtisodiy jihatdan qanchalik baquvvat bo'lsa huquq va erkinliklardan foydalanish imkoniyati shunchalik kuchayadi.

HUQUQ VA ERKINLIKLARNI TIKLASH — fuqarolarning turli sabablar bilan buzilgan huquqlarini tegishli tartibda tiklash mexanizmi. Har qanday mamlakatda fuqarolarning huquqlari boshqa fuqarolar davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari tomonidan buzilish hollari uchrab turadi. Bundan O'zbekiston ham mustasno emas. Davlatning vazifasi esa buzilgan huquq, erkinliklarni darhol tiklash, huquq buzilishi natijasida vujudga kelgan turli zararlarni o'rnini qoplatishdir. Buzilgan huquqlar fuqaroni talabiga ko'ra fuqarolar, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari tomonidan ixtiyoriy tiklanishi, yoki ularning yuqori tashkilotlarini aralashuvi bilan tiklanishi mumkin. Agar bunday hol ro'y bermasa, buzilgan huquq va erkinliklar sud tomonidan tiklanadi. Har bir fuqaro sudga murojaat qilishi mumkin. Fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklashda «Ombudsman» instituti alohida rol o'ynaydi. Qarang: Ombudsman.

HUQUQ MANBALARI – huquqiy normalar qayd qilingan hujjatlar. Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy qonunlar, qonunlar, farmonlar va hokimiyat organlarining hujjatlari huquq manbalari hisoblanadi. Ularning har biri belgilangan tartibda, vakolatli organlar tomonidan qabul qilinadi va kuchga kiritiladi.

HUQUQ SUBYEKTI – huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchilardir. Bular jismoniy shaxslar (kishilar) va yuridik shaxslar (idora, korxona, tashkilot, muassasalar) bo'lishi mumkin. Turli huquq tarmoqlarining subyektlari har xil

bo'lishi mumkin. Huquq subyekti muomala layoqatiga ega bo'lishi kerak.

HUQUQ-TARTIBOT — huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan, bajarilishi hamma uchun majburiy tartiblar. Bu tartib ko'pchilik manfaatiga mos bo'ladi va davlat tomonidan o'rnatiladi, hamda muhofaza qilinadi.

HUQUQ TIZIMI — har bir mamlakatda mavjud bo'lgan turli huquq tarmoqlarining yig'indisi. Masalan, konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, xo'jalik huquqi, moliya huquqi, mehnat huquqi, jinoyat huquqi va O'zbekistondagi boshqa barcha huquqlar birlashib, O'zbekiston Respublikasining huquq tizimini tashkil etadi. Jamiyatning rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarning kengayishi, huquq tizimining rivojlanishiga ta'sir qilsa, o'z navbatida, mukammal huquq tizimining mavjud bo'lishi ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri va sifatli tartibga solishga olib keladi va bu jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiladi. Aksincha, huquq tizimining mukammal bo'lmasligi taraqqiyotga to'sqinlik qilishi mumkin.

HUQUQIY DAVLAT — davlat tuzilishi va faoliyatining huquqqa asoslanganligi. Huquqiy davlatda quyidagi shartlar albatta bo'lishi kerak: xalq hokimiyatining amalga oshishi; shaxsning huquq va erkinliklarining hech kim, shu jumladan, davlat tomonidan ham hech qanday holda buzilmasligi; Konstitutsiya va qonunning ustunligi; hokimiyatning bo'linishi tamoyiliga amal qilish; sudlarning mustaqilligi. Huquqiy davlatda eng oliy qadriyat inson hisoblanadi. Davlat faqat huquq yaratib qolmay, o'zi ham ana shu huquq normalariga amal qilishi huquqiy davlatning asosiy xususiyatidir.

HUQUQIY JAVOBGARLIK — huquqiy normalarga rioya

qilmaslik, ularni ochiqdan ochiq buzish natijasida vujudga keladi. Qanday huquq normalari buzilsa, shu huquq buzilishi bo'yicha javobgarlik vujudga keladi. Masalan, ma'muriy huquq buzilsa ma'muriy javobgarlik, jinoyat huquqi buzilsa jinoiy javobgarlik, fuqarolik huquqi buzilsa mulkiy javobgarlik va hokazo.

HUQUQIY MADANIYAT — fuqarolarning yetukliligi va ongliligini ko'rsatuvchi mezon. Huquqiy madaniyat tushunchasi huquqning rivojlanish darajasi, aholining huquq haqidagi tushunchasi, qonunlarning ahvoli, huquqni amalga oshirish ishlarini tashkil etish darajasi, huquqning obro'yi singari elementlardan tashkil topadi. Huquqiy madaniyatga huquq fanining rivojlanish darajasi, huquqni tashviqot qilishning qanday yo'lga qo'yilganligi, madaniyatning umumiy darajasi ta'sir qiladi. Huquqiy madaniyat huquqiy ongning amaliyoti, ya'ni huquqni qo'llash, amaliyotga tatbiq etishdir. Shaxs qanchalik huquqiy bilimga ega bo'lmasin, qonun va boshqa qoidalarga amal qilmasa, u jamiyat uchun katta zarardir. Bu huquqiy madaniyatsizlikdir.

HUQUQIY MUNOSABATLAR — huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar. Mehnat, mulkiy, pul-kredit munosabatlari huquqiy munosabatlarga kiradi.

HUQUQIY NORMALAR — huquqni belgilovchi, huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar. Ular turli ko'rinishda, shaklda namoyon bo'ladi. Huquqiy normalar Konstitutsiyada, qonunlarda va boshqa normativ hujjatlarda bayon qilinadi.

HUQUQIY ONG — kishilarning huquqqa, qonunga, odil sudlovga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlar yig'indisi. Huquqqa hurmatda bo'lish yoki huquqni mensimaslikka ta'sir qiladi. Kishining huquqiy ongi

qanchalik kuchli bo'lsa, huquq normalarining ixtiyoriy bajarilishiga olib keladi. Huquqiy ong huquqiy bilimlar asosida shakllanadi va huquqiy madaniyat orqali amal qiladi.

HUQUQIY TA'SIR CHORALARINING MUTANOSIBLIGI

— Davlat organlari tomonidan insonlarga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari (jazo) mutanosiblik prinsipiga asoslanib qo'llanilishi, ta'sir choralari qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi lozim (20-modda).

I

IQTISODIY SUDLAR – Iqtisodiy munosabatlar sohasida vujudga keladigan davolarni ko'rib chiqib, masalani qonun asosida hal qiluvchi sud tuzilmasi. Tadbirkorlar faoliyatida ularning manfaatlarini himoyachisi.

IQTISODIY FAOLIYAT – turmush uchun, hayot uchun zarur moddiy ne'matlar yaratish manbasi. Shuning uchun davlat yaratuvchanlikka qaratilgan har qanday iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi, rag'batlantiradi, shu faoliyatni yanada rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi.

IQTISODIY, IJTIMOY, MADANIY VA EKOLOGIK HUQUQLAR – insonga normal turmush kechirish, hayotni davom ettirish uchun zarur bo'lgan imkoniyatni yaratuvchi huquqlar. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar konstitutsiyaning IX bobida 41-53-moddalarda berilgan.

IJRO HOKIMIYAT BOSHIG'I – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro hokimiyat boshligi maqomi yo'q bo'lgach, bu atama faqat hokimlarga nisbatan ishlatiladi. Hokim tegishli hududda ijro hokimiyatining boshlig'idir. U yakkaboshchilik asosida faoliyat ko'rsatadi.

IJTIMOY DAVLAT – bunday davlatda fuqarolarning ijtimoiy-

iqtisodiy huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning asosiy vazifasi qilib belgilanadi. Bunda davlat kishilar o'rtasida ijtimoiy tafovutlarni yo'qotish uchun harakat qiladi. Mamlakatda kam ta'minlangan fuqarolarni Har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini ko'radi. Davlat ijtimoiy huquqlarni ta'minlash bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyatni oladi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O'zbekistonning ijtimoiy davlat ekanligi belgilandi.

IJTIMOY TA'MINOT HUQUQI – ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan biri. Har kim keksalikda, mehnat layoqatini yo'qotganda, boquvchisidan ajrab qolganda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Ijtimoiy ta'minot turlari, miqdori, uni olish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi (71-modda). Bundan tashqari, davlat kam ta'minlangan oila va kishilarni, nafaqaxo'r, nogironlarni turli vositalar bilan ijtimoiy ta'minlash chorasini ko'rib boradi.

IJTIMOY TUZUM (TUZILISH) – ijtimoiy munosabatlar tizimidan iborat bo'lib, bu munosabatlar jamiyatni tashkil qilish, ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulotlarni taqsimlash va ayirboshlashdan kelib chiqadi.

IMMUNITET – Ayrim mansabdagi shaxslarga (davlat boshlig'i, sudyalari va deputatlarga) qonun doirasida beriladigan imtiyoz.

INSON VA FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY BURCHLARI – Konstitutsiya normalari bilan o'rnatilgan burchlar. Bunda ayrim harakatlarni qilish taqiqlanishi yoki, aksincha, albatta qilish, bajarish zarurligi belgilab qo'yiladi. (Konstitutsiyaning XI bobi, 59-64-moddalar).

INSONNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMI – Insonning Konstitutsiya bilan kafolatlangan huquq,

erkinliklari va oʻrnatilgan burchlari yigʻindisi. Uning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining asosiy prinsiplari inson huquqlarining daxlsizligi va ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qoʻyishga hech kimning haqli emasligi, huquq va erkinliklarining samarali kafolatlari mavjudligi; qonun oldida teng huquqlilik; huquq va burchlar oʻrtasida oʻzaro aloqaning mavjudligi hisoblanadi. Huquqiy maqomni aniqlashda fuqarolik alohida rol oʻynaydi, shaxs fuqaro boʻlsagina barcha huquq erkinliklardan foydalanadi hamda burchlarni bajaradi.

INSON HUQUQLARI – Insonga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik sohada faoliyat koʻrsatishi uchun zarur qonun va boshqa hujjatlarda belgilab qoʻyilgan imkoniyatlar. Huquqlar hamma vaqt davlat tomonidan qabul qilingan hujjatlarda (Konstitutsiya, qonun, farmon va boshqalarda) oʻz aksini topadi. Ayrim huquqlar, shaxsiy yoki tabiiy huquqlar deyiladi, bular albatta boʻlishi kerak boʻlgan huquqlar, davlat uni taʼminlashi, hech qachon cheklamasligi kerak (masalan, yashash huquqi, qiynoqqa solinmasligi va hokazo), ayrim huquqlarni davlat oʻz imkoniyatidan kelib chiqib belgilaydi. Ular sharoit va imkoniyatga qarab chegaralanishi, toʻxtatilishi mumkin (masalan, siyosiy partiyalar tuzish, namoyish, miting oʻtkazish, taʼminot olish va boshqalar). Inson huquqlari faqat oʻrnatilmay, davlat tomonidan taʼminlanadi. Buzilgan huquqlar qayta tiklanadi. Har bir mamlakatda inson huquqlarini taʼminlovchi muassasalar tizimi mavjud.

INSON HUQUQLARINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATI – asosiy huquqlarning Konstitutsiyada mustahkamlash qoʻyilishi bilan birga huquq va erkinliklarni chegaralash, undan mahrum qilish hollarini ham

Konstitutsiyada belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ko'plab mamlakatlarning konstitutsiyalardan farq qilib, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning kafolatlarini alohida bobda mustahkamlab qo'ygan (Konstitutsiyaning X bobi, 54-58-moddalar).

INSONNING HUQUQIY HOLATI – insonlarning qonun yo'li bilan davlat tomonidan e'tirof etilgan va kafolatlangan huquq, erkinlik va burchlari hamda manfaatlarining tizimi (yig'indisi). Huquq va erkinlik insonning davlat tomonidan e'tirof etilgan va ta'minlanadigan imkoniyatlari. Burchlar davlat tomonidan o'rnatilgan, ko'pchilik manfaatiga mos tushuvchi ayrim harakatni sodir etishdan tiyilish, ayrim harakatlarni albatta sodir etishdir.

BMTga a'zo har bir davlat xalqaro hujjatlarda ko'rsatilgan huquq va erkinliklarni ta'minlash majburiyatini oladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson huquqlariga taalluqli normalarida shu hujjat qoidalari o'z o'rnini topgan. Har bir mamlakatda inson huquqlariga taalluqli huquqiy hujjatlar, shu hujjatlarga zid bo'lmasligi kerak.

IQTISODIY TIZIM – mulkchilik shakli va munosabatlari, ishlab chiqarish munosabatlari, moddiy va ma'naviy ashyolarni taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol qilishdagi munosabatlar va ularni tartibga soluvchi prinsip hamda normalarning yig'indisi. Qarang: Jamiyatning iqtisodiy negizi.

IQTISODIY, IJTIMOIIY, MADANIY VA EKOLOGIK HUQUQLAR – insonga normal turmush kechirish, hayotni davom ettirish uchun zarur bo'lgan imkoniyatni yaratuvchi huquqlar. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar konstitutsiyaning IX bobida, 41-53-moddalarda berilgan.

IJTIMOIIY ADOLAT Qarang: Adolat.

IJTIMOIIY ShERIKLIK – mehnat munosabatlarida qo‘llanilib kelgan, xodimlar bilan ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlar (hamkorlikka asoslangan) tizimi. Hozirgi paytda u mehnat munosabatlari bilan cheklanmay, nodavlat, notijorat tashkilotlari bilan davlat tuzilmalari munosabatida qo‘llanish zarurati tug‘ildi. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida” qonun qabul qilish zarurligi ko‘rsatildi va hozir shunday qonun mavjud. Qonun nodavlat tashkilotlar va davlat tuzilmalarining o‘zaro munosabatini aniq chegarasini, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini belgilaydi. Ijtimoiy sheriklikda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti mahallani davlat organlari bilan o‘zaro yaqin munosabatini ta‘minlash alohida muhim o‘rin turadi.

IMPICHMENT – xalqaro atama bo‘lib, davlatning oliy mansabdor shaxslarini, Prezidentni muddatdan avval lavozimidan ozod qilinishini alohida tartibidir. Bu institut ba’zi mamlakatlarning qonunchiligida mavjud. O‘zbekiston Konstitutsiyasida bunday holat ko‘zda tutilmagan.

INAUGURATSIYA – xalqaro atama, davlat boshlig‘i (Prezidentning) saylovdan so‘ng lavozimga rasmiy kirishishiga tantanali tus berish, bu turli mamlakatlarda turlicha belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida qasamyod qabul qilganidan boshlab kirishadi.

INSON HUQUQLARINI BUZILISHI – Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan inson huquqlarini fuqarolar, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari tomonidan buzish, ularni amalga oshishiga to‘sqinlik qilishidir. Bunday holda huquqi buziluvchini, uning vakili,

maxsus organlar talabi bilan buzilgan huquq tiklanadi. Bunda Sud, Adliya, Prokuratura organlari, inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutlar alohida rol o'ynaydi. Inson huquqlarini tiklashda. Xalqaro tashkilotlar ham ishtirok etishi mumkin. Inson huquqlari ko'pincha urush holatlari, terrorchilik harakatlari natijasida buziladi.

INSON HUQUQLARI BO'YICHA MILLIY INSTITUTLAR –

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari xamda vositalarini to'ldiradi. Shuningdek, ular fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga, va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashadi (56-modda). Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- inson huquqlarini himoya qilish borasida vakolatlarga egaligi;
- faoliyatini qonun hujjatlarida mustahkamlanganligi;
- davlat organlaridan mustaqil bo'lishi;
- fuqarolarning shikoyatlarini ko'rib chiqishi.

Yuridik adabiyotlarda O'zbekistonning Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlari tizimiga – Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi va boshqalar kiritiladi.

IMTIYOZ – Kishilarni xizmati, jismoniy qobiliyati, yoshiga qarab beriladigan qulayliklar, moddiy manbalar. Imtiyozlar ijtimoiy adolat prinsipiga mos bo'ladi va qonunlarda belgilangan tartibda beriladi. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart (19-modda).

IKKI PALATALI TIZIM – Qonunchilik hokimiyati

parlamentning tarkibiy tuzilishi. Parlament bir palatali yoki ikki palatali tuzilishda tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2002 yilgacha bir palatali tuzilishda shakllantirilgan bo'lsa, keyinchalik referendum natijasida ikki palatali tuzilishga o'tildi. Parlament ikki palatali bo'lganda bir palata yuqori palata, ikkinchi palata qo'yi palata maqomiga ega bo'ladi. Ular turli tartibda tashkil qilinadi. Ularning birgalikdagi va mutlaq vakolatlari mavjud. Qarang: Senat, Qonunchilik palatasi.

ISTE'MOLCHI HUQUQINING USTUNLIGI – konstitutsiya qoidalaridan biri (65-modda). Unga asosan davlat iste'molchi huquqining ustunligini ta'minlaydi. "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" maxsus qonun bo'lib, unda iste'molchi huquqlari batafsil ko'rsatilgan. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishda, ularning huquqlarini ustuvorligini ta'minlashda "iste'molchilar jamiyati" alohida o'rin egallaydi. Uni tashkil qilish tartibi, vakolatlari yuqoridagi qonunda belgilangan.

ISTE'FO – Mansabdor shaxslarni vakolatini muddatdan oldin bekor qilish. Iste'fo ixtiyoriy, mansabdor shaxsning o'z xohishiga ko'ra yoki majburlov asosida amalga oshishi mumkin. Konstitutsiyada Bosh vazirni iste'foga chiqarish tartibi belgilangan. Qarang: Bosh vazir.

ISHONCHSIZLIK VOTUMI – Votum xalqaro atama bo'lib, parlamentda ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadigan qaror, fikr hisoblanadi. I.v. Bosh vazirga nisbatan uni iste'foga chiqarishda qabul qilinadigan parlament qarori. Qarang: Bosh vazirni iste'foga chiqarish.

ISHONCHSIZLIK VOTUMI BILDIRISH – (Qarang: Bosh vazirni iste'foga chiqarish).

ILMIY VA TEXNIKAVIY VA BADIY IJOD ERKINLIGI,

MADANIYAT YUTUQLARIDAN FOYDALANISH HUQUQI – Bunday huquq Konstitutsiyada belgilangan bo‘lib undan fuqarolarni foydalanish kafolatlanishi ham belgilangan (53-modda). Qarang: Ijod erkinligi.

ICHKI VA TASHQI SIYOSAT – davlatning tashqi munosabatda va mamlakat ichkarisida olib boradigan faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan biri. Oliy Majlis palatalari birgalikda ichki va tashqi siyosat masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi. Davlatning odilona to‘g‘ri tashqi siyosati, mamlakatni tinch-totuv yashashi, kuch, g‘ayratni, moddiy boyliklarni yaratish, farovon turmushni ta‘minlashga qaratishga sharoit yaratadi.

IQTISODIY FAOLIYAT – turmush uchun, hayot uchun zarur moddiy ne‘matlar yaratish manbasi. Shuning uchun davlat yaratuvchanlikka qaratilgan har qanday iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi, rag‘batlantiradi, shu faoliyatni rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi.

ISHONCHLI VAKIL – Ishonchli vakil Prezidentlikka nomzod, qonun tashviqot-targ‘ibot ishlarini olib boruvchi, davlat organlari, jamoat birlashmalarining organlari, saylovchilar bilan uchrashuv va munosabatlarda, shuningdek saylov komissiyalarida nomzodlarning manfaatini himoya qiluvchi shaxs. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod o‘n beshtagacha, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod o‘ntagacha, Mahalliy Kengash deputatligiga nomzodlar besh - uch nafargacha ishonchli vakilga ega bo‘ladi.

ISHONCH YORLIG‘I – Chet mamlakatlarning, xalqaro tashkilotlarning diplomatik vakillarini lavozimiga kirish oldidan tegishli davlat boshlig‘iga (O‘zR Prezidentiga) topshiradigan rasmiy hujjati. Ishonch yorlig‘i davlat bolada tomonidan qabul qilingach, vakil rasman faoliyatini boshlaydi. Ishonch yorlig‘ini topshirish alohida marosim

sifati o'tkaziladi.

ISHSIZLIKDAN HIMOYALANISH HUQUQI – Konstitutsiya har kimga mehnat qilish, mehnatga yarasha adolatli haq olish huquqidan tashqari, ishsizlikdan himoyalaniş huquqini ham beradi (42-modda). Davlat ish o'rinlarini yaratish choratadbirlarini ko'radi. Ma'lum sabablar bilan ishsizlik vujudga kelganda undan himoyalaniş choralarini ko'radi.

J

JAMIYAT – ma'lum maqsad yo'lida insonlar birlashmasi. J. vujudga kelishi bilan insonlar o'rtasida alohida munosabatlar vujudga keladi. Tarixiy taraqqiyot natijasida J. faqat insonlar birlashmasigina bo'lib qolmay, u turli tuzilmalarni (jamoat birlashmalarini) ham birlashmasi sifatida namoyon bo'ladi. Fuqarolik jamiyatida davlat ham uning tarkibiy qismlariga aylanadi. Jamiyatda jamiyat fuqaro davlat munosabati jamiyatning fuqarolik jamiyati sifatida e'tirof etishda asosiy masala hisoblanadi.

JAMIYAT VA DAVLAT ISHLARIDA ISHTIROK ETISH HUQUQI – fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, siyosiy huquqlar turkumiga kiradi. Konstitutsiyaga binoan fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita va vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Qarang: Bevosita demokratiya; vakillik demokratiyasi (36-modda).

JAMIYATNING IQTISODIY NEGIZLARI – iqtisodiy tizimni xarakterlovchi (aniqlovchi) xususiyatlar yig'indisi. Iqtisodiy tizim bozor munosabatlariga asoslangan yoki ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan bo'lishi mumkin. O'zbekiston o'z iqtisodiyotini bozor munosabatlari prinsiplari asosida qurishni maqsad qilib qo'ygan. Shunga mos ravishda

jamiyatning iqtisodiy negizlari belgilangan. Mamlakatimiz iqtisodiyoti negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchi huquqini ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi (65-modda).

JAMOAT BIRLASHMALARI – fuqarolarning qobiliyati, qiziqishi, kasbi, yoshi, jinsi nuqtai nazaridan qonuniy tarzda birlashadigan uyushmalari (tuzilma). J.b. ixtiyoriylik asosidagi a'zolikka asoslanadi. Konstitutsiyaga asosan, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari j.b. hisoblanadi. J.6., jamoat tashkilotlari ham deb yuritiladi. J.b.ni tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlash masalasi faqat sud qaroriga asosan amalga oshiriladi. J.b. o'zlari ham o'z faoliyatini tugatishi mumkin (70-modda).

JAMOAT BIRLASHMALARIGA UYUSHISH HUQUQI – bu fuqarolarning siyosiy konstitutsiyaviy huquqi bo'lib, uning amal qilishi natijasida fuqarolar kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etishi mumkin (73-modda). Jamoat birlashmalariga uyushish ixtiyoriylik asosida bo'ladi. A'zolik vujudga kelgandan keyin, fuqarolarni tegishli jamoat birlashmalari oldida ma'lum majburiyatlari ham vujudga keladi.

JAMOATCHILIK NAZORATI – fuqarolik jamiyatining muhim sharti. Davlat, davlat organlari, tashkilot, muassasalar faoliyati ustidan J.n. o'rnatilishi, davlatni, uni tuzilmalarini

qonuniy ishlashini ta'minlaydi. Jamoatchilik nazorati Konstitutsiyaning 36-moddasida belgilangan. «O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonun ham qabul qilingan.

JISMONIY SHAXS – fuqarolik huquqida keng ishlatiladigan va alohida shaxsga nisbatan qo'llaniladigan atama. Jismoniy shaxs atamasi fuqarolarga, chet el fuqarolariga, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

K

KAFIL (KAFOLAT) – Konstitutsiyada ishlatilgan atama. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining, Respublika suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini kafili Prezidentdir. Prezident o'z faoliyatini, o'zining vakolatlarini, bor imkoniyatini shularni ta'minlashga qaratadi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishiga, o'z burchini sadoqat bilan bajarishga qasamyodida so'z beradi (108, 109-modda, 1-band).

KVORUM – hokimiyat vakillik organlarida ularning vakolatli bo'lishi, qabul qilgan hujjatlari qonuniy bo'lishi uchun qancha deputatlar albatta ishtirok etishi belgilab qo'yilgan miqdor. Kvorum sonlar bilan yoki umumiy songa nisbatan foiz bilan belgilanadi. Oliy Majlis palatalarida deputatlar, Senatorlarning umumiy sonini kamida yarmi ishtirok etsa majlis vakolatli hisoblanadi. Qonun qabul qilish uchun, konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilish uchun ham alohida kvorum belgilangan. Qonun qabul qilish uchun deputatlar (senatorlar) umumiy sonining yarmidan ko'pi, konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonun qabul qilish uchun deputatlar (senatorlar) umumiy sonining uchdan ikki qismi

ovozi talab etiladi.

KOMPETENSIYA (VAKOLAT) – davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning davlat organlari tizimida aniq o‘rnini ko‘rsatuvchi huquqiy jihatdan belgilangan huquq va burchlarining yig‘indisi, vakolatligi.

KONSTITUTSIYA – davlatning asosiy qonuni bo‘lib, eng yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan hujjatdir. U eng muhim ijtimoiy munosabatlari asoslarini tartibga soladi. Konstitutsiya konstitutsiyaviy tuzum asoslari, davlat tuzilishi, davlat boshqaruv shakli, shaxsning huquq, erkinlik va burchlari, davlat organlarini tuzish tartibi, ularning vakolatlarini belgilovchi huquqiy normalardan iborat. Konstitutsiya me‘yorlari bilan jamiyatlardagi eng muhim ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrda Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan edi. Shu kun umumxalq bayrami deb belgilangan. K. muqaddima, 6 bo‘lim, 26 bob va 128 moddadan iborat bo‘lgan. Muqaddimada konstitutsiya qabul qilish sabablari va mamlakatimiz oldiga qo‘yilgan vazifalar belgilangan. Konstitutsiya bo‘lim va boblari huquqiy institutlarni ahamiyatiga qarab ketma-ketlikda mustahkamlagan. Konstitutsiyamiz xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o‘rganish, xalqaro hujjat qoidalarini inobatga olish, milliy davlatchilik an‘analarimizni e‘tiborga olish natijasida yaratilgan. U jahon andozalariga mos kelib, xalqaro talablarga javob beradi. Konstitutsiya xalqimiz ruhiyatini, axloqini aks ettira olgan, u huquqiy ongimiz, xalq ijodkorligi mahsulidir. Unda insonni eng oliy qadriyat darajasiga ko‘taruvchi normalar o‘z o‘rnini yetarlicha topgan. Konstitutsiya qonunchiligimiz asosi, farovon turmush, xavfsizligimiz garovi hisoblanuvchi

muqaddas hujjatdir.

2023 yil 30 aprelda Referendum yo'li bilan O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi. U XXVII bob, 155 moddadan iborat. Konstitutsiya O'zbekistonni demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat deb belgiladi. Unda inson huquq va erkinliklari ko'paytirildi, ularning kafolatlari, davlatning mas'uliyati kuchaytirildi. Hokimiyat tizimi mustahkamlandi, vakolatlari aniqlashtirildi.

KONSTITUTSIYA MUQADDIMASI – Konstitutsiya qabul qilish zarurati, mamlakatning konstitutsiya qabul qilishdan maqsadi, oldiga qo'ygan bosh vazifasi, nimalarga amal qilishi zarurligi ko'rsatilgan konstitutsiyaning kirish qismi.

KONSTITUTIONALIZM – bu konstitutsiyaga asoslangan boshqaruv, konstitutsiya doirasida ishlash, konstitutsiyaga asoslangan siyosiy tizim, boshqaruvining konstitutsiyaviy usulidir. Umuman bu konstitutsiyaviy tuzumga asoslangan siyosiy-huquqiy nazariyadir.

KONSTITUTSIYA VA QONUNLARGA RIOYA ETILISHNING KAFILI – Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishni, ularga amal qilishni samarali va kuchli garovi. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishning kafili O'zbekiston Prezidentidir. Bu haqda Prezidentning o'zi qasamyodida e'tirof etadi va bu konstitutsiyada uning asosiy vazifasi, mas'uliyati sifatida mustahkamlangan. (108, 109-moddalar, 1-bandi).

KONSTITUTSIYA VA QONUNNING USTUNLIGI – huquqiy davlatning muhim shartlaridan biri. Bunda Konstitutsiya va qonunlarga hammaning so'zsiz amal qilishi zarurligi, hech qanday hujjat ularga zid bo'lmasligi tushuniladi. Boshqa huquqiy hujjatlar ular asosida qabul

qilinadi. Konstitutsiya va qonunlarga zid keluvchi har qanday hujjat bekor qilinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar (15, 16-moddalar).

KONSTITUTSIYA MUQADDIMASI – Konstitutsiya qabul qilish zarurati, mamlakatning konstitutsiya qabul qilishdan maqsadi, oldiga qo'ygan bosh vazifasi, nimalarga amal qilishi zarurligi ko'rsatilgan konstitutsiyaning kirish qismi.

KONSTITUTSIYAVIY NAZORAT – Davlatning alohida faoliyati bo'lib, u orqali Konstitutsiyaning amal qilishi, Konstitutsiyaga qonun va boshqa hujjatlarning mos kelishi, zid bo'lmashligi nazorat qilinadi. Bu nazorat davlat boshlig'i, parlament va maxsus organlar tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekistonda bu vazifa maxsus O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga yuklangan (qarang: Konstitutsiyaviy sud).

KONSTITUTSIYAVIY SUD – O'zbekiston Respublikasining sud tizimiga kirib, qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qabul qilgan qarorlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumat, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi; O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi; Qoraqalpog'iston

Respublikasining Konstitutsiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunlari O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi; O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarining O‘zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko‘rib chiqadi; Konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O‘zbekiston Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to‘g‘risida axborot taqdim etadi; O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko‘rib chiqadi. Masalan, Prezident Oliy Majlisni K.s. bilan bamaslahat tarqatib yuborishi mumkin. Konstitutsiyaviy sud – Prezident taqdimiga binoan Senat tomonidan, Sudyalar Oliy kengashi tavsiya etgan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog‘iston vakilini qo‘shgan holda saylanadi. U o‘z tarkibidan rais va o‘rinbosarini saylaydi (133-modda).

KONSTITUTSIYAVIY TUZUM – Konstitutsiya va boshqa konstitutsiyaviy-huquqiy hujjatlar bilan o‘rnatiladigan va qo‘riqlanadigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy munosabatlar tizimi. «Konstitutsiyaviy tuzum»ni «davlat tuzumi»dan farqlash kerak. Davlat tuzumidan farq qilib, konstitutsiyaviy tuzum hamma vaqt konstitutsiya bo‘lishi, unga amal qilish bilan ajralib turadi. Xalq suvereniteti, hokimiyat bo‘linishi, umume’tirof etilgan inson huquqlarining buzilmasligi, cheklanmasligi Konstitutsiyaviy tuzumning zarur shartlari va asoslari bo‘lib hisoblanadi.

Davlat tuzumida bu belgilar bo'lmashligi mumkin.

KONSTITUTSIYAVIY TUZUMNI HIMOYA QILISH –

davlatning asosiy vazifalaridan biri. Konstitutsiyada belgilangan konstitutsiyaviy tuzum asoslarini himoya qilish orqali tuzum himoya qilinadi. Konstitutsiyaviy tuzum himoyasi konstitutsiyaga amal qilish orqali amalga oshiriladi (71-modda). Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishda davlat maxsus organlar faoliyatidan foydalanadi. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatuvchi Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifasi, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdir.

KONSTITUTSIYANI SHARHLASH – Konstitutsiya normalarini kengroq ifodalash, izohlash, tushuntirib berish. Sharhlar rasmiy-majburiy va ilmiy bo'lishi mumkin. Rasmiy-majburiy sharhda izohlar, tushuntirishlar majburiy xarakterga ega bo'ladi. Konstitutsiyaga asosan Konstitutsiya normalariga sharh berish Konstitutsiyaviy sud vakolatiga kiradi. (Konstitutsiyaning 133-modda, 5-bandi). Konstitutsiya normalariga Konstitutsiyaviy sud tomonidan berilgan sharh, ya'ni izoh, tushuntirish bajarilishi shart. Sharhning ikkinchi turi ilmiy sharh bo'lib, bunda Konstitutsiya normalariga ilmiy baho berilib, ular kengroq, ommabop qilib tushuntirib beriladi. Bu izoh va ta'kidlar majburiy emas, ular Konstitutsiya normalarini tushunishni, qo'llashni osonlashtiradi.

KONSTITUTSIYAVIY QONUN – ayrim mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda qonunning alohida turi bo'lib, konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbalaridan biri. Konstitutsiyaviy qonun Konstitutsiyaviy darajada hal qilinishi, tartibga solinishi, o'rnatilishi mumkin masalalar bo'yicha chiqariladi. Uni qabul qilish va unga o'zgartirish kiritish tartibi ham oddiy qonunlarga nisbatan boshqacha.

Oddiy qonunlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinsa va o'zgartirish kiritilsa, Konstitutsiyaviy qonun qabul qilish, unga o'zgartirish kiritish uchun parlament a'zolarini uchdan ikki qism ovoz talab qilinadi.

KONSTITUTSIYAVIY QONUNIYLIK – konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar ishtirokchisi bo'lgan barcha subyektlar Konstitutsiya va boshqa konstitutsiyaviy-huquqiy aktlarga so'zsiz amal qilishi.

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ – bu atama turli ma'noda ishlatiladi. Birinchisi, inson va fuqarolarning konstitutsiyada belgilangan asosiy huquqlariga, ikkinchisi, ma'lum bir fan, ya'ni konstitutsiyaviy huquq faniga, uchinchisi, huquq tarmog'iga. Konstitutsiyaviy huquq har bir mamlakatning (jumladan, O'zbekistonning ham) huquq tizimidagi yetakchi huquq. Shu bilan birga huquqni alohida tarmog'i ham. Uning yetakchiligi shundaki, boshqa har qanday huquqlar tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning asosi Konstitutsiyaviy huquqda belgilanadi (masalan mehnat huquqi, fuqarolik huquqi, ma'muriy huquq va boshqa huquqlar). Bundan tashqari konstitutsiyaviy huquqning o'zini tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlari bo'lib, bu uni huquq tarmog'i sifatida ko'rsatadi. Konstitutsiyaviy huquq konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, shaxsning huquqiy holatini, (asosiy huquq va burchlar) davlatning milliy va ma'muriy, hududiy tuzilishini, hokimiyat asoslarini, saylov tizimini tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidir.

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ MANBALARI –

Konstitutsiyaviy huquqiy normalarning mustahkamlanish shakli. Huquq normalarining tashqi ifodasi. Bu tegishli nomdagi hujjat shaklida bo'ladi. Hujjatlar Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy qonunlar, qonunlar, xalqaro huquq

normalari, Oliy vakillik, ijro etuvchi hokimiyat, mahalliy hokimiyat va Konstitutsiyaviy sud hujjatlari bo'lishi mumkin. Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonunlar to'raligicha konstitutsiyaviy huquq manbaidir, boshqa hujjatlar konstitutsiyaviy munosabatlarni tartibga solishni maqsad qilgandagina konstitutsiyaviy huquq manbasi bo'ladi.

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ FANI – Konstitutsiya, uning mazmuni, mohiyati, ahamiyati, yuridik tabiati, jamiyatdagi o'rni haqida ma'lumot beruvchi fan. Shuningdek, k.h. konstitutsiyaviy-huquqiy normalar, ular bilan tartibga solinadigan munosabatlar, huquqiy normalar bilan munosabatlarning bir-biriga mutanosib kelishi haqidagi bilimlar tizimi. Bu fan konstitutsiyaviy-huquqiy normalarga, munosabatlarga baho beradi. Konstitutsiyaviy institutlarni o'rganadi, muammolarni aniqlab, ularni hal qilish yo'llarini ko'rsatadi.

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ TIZIMI – Konstitutsiyaviy huquqning tuzilishi. Konstitutsiyaviy huquqning ichki tuzilishi, uning boshqa huquqlardan farqini ko'rsatuvchi qism va elementlarni izchil yagona holda joylashtirib mujassamlashtirish. Konstitutsiyaviy-huquqiy institutlar ahamiyati, bir-biriga ta'siri va bog'liqligi asosida belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi tizimi Konstitutsiya tizimga mos kelib, asosiy prinsiplar, fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jamiyat va shaxs, ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi, davlat hokimiyatining tashkil etilishini belgilovchi normalardan iborat institutlardan tashkil topgan. Ular o'z navbatida kichik institutlarga bo'linadi.

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQBUZARLIK – konstitutsiyaviy

munosabatlar ishtirokchilarining (subyektlari) Konstitutsiya normalariga rioya qilmasligi. Rioya qilmaslik ehtiyotsizlikdan yoki qasddan bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda Konstitutsiya normalarini buzish boshqa qonunlarni buzish bilan qo'shib ketadi. Natijada jinoiy, ma'muriy, intizomiy javobgarlik kelib chiqadi.

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY INSTITUTLAR – bir turdagi va o'zaro bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish natijasida mustaqil guruhni vujudga keltiruvchi konstitutsiyaviy huquq normalar tizimi. Ijtimoiy tuzum asoslari, inson va fuqarolarning huquqiy holati, saylov tizimi, hokimiyat tizimini tartibga soluvchi alohida guruh normalarini ko'rsatish mumkin. Ular konstitutsiyaviy huquq institutlaridir.

KONSTITUTSIYAVIY SHIKOYAT – Shikoyat qilish huquqi fuqarolarning asosiy huquqlaridan hisoblanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, fuqarolarga, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, sudga ko'rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida Konstitutsiyaviy sudga shikoyat bilan murojaat qilish huquqini berdi (133-modda). Bu yerda murojaatni (shikoyatni) qo'llanilgan qonunni Konstitutsiyaga mosligini aniqlash, va shikoyatni Konstitutsiyaviy sudga berilishi, shikoyatni Konstitutsiyaviy shikoyat darajasida ekanligini ko'rsatadi.

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ PREDMETI –

Konstitutsiyaviy huquqni huquq sifatida predmeti va fan sifatida predmeti mavjud. Konstitutsiyaviy huquqning huquq sifatida predmeti, uning normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Bu ijtimoiy munosabatlar

hokimiyatni amalga oshirish jarayonida, huquq erkinliklari amalga oshirish, burchlarni bajarish, davlat va fuqaro munosabatlarida va boshqa jarayonlarda vujudga keladi.

Konstitutsiyaviy huquqning fan sifatida predmeti esa, shu fan o'rganadigan masalalar hisoblanadi. Bu fan konstitutsiyani, konstitutsiyaviy tuzimni, davlat suverenitetini, hokimiyatchilikni, shaxs huquqiy holati, ma'muriy hududiy tuzilishini, jamiyat va shaxs munosabatini o'rganadi. Yana fan konstitutsiyaviy normalarni, ularni ijtimoiy munosabatga mos kelishi masalalarini o'rganadi.

KONSTITUTSIYAVIY–HUQUQIY MUNOSABATLAR –

Konstitutsiyaviy normalar bilan tartibga solinadigan hamda ular asosida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar ularning obyekti bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy qiymatlar, shaxsiy erkinlik va farovonlik, mulkiy munosabatlar, milliy munosabatlar, hokimiyat va erkinlik munosabati, insonning asosiy huquq va erkinliklarini amal qilishi hisoblanadi. Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarda fuqaro va davlat munosabati asosiy munosabat hisoblanadi.

KONSTITUTSIYAVIY–HUQUQIY NORMALAR –

umummajburiy, prinsip va deklarativ xarakteridan normalar bo'lib, u ma'lum ijtimoiy munosabatlarni belgilaydi va tartibga soladi. Bu normalar davlat tomonidan o'rnatilib, uning amal qilishi ta'minlanadi. Bunda davlat majburlov vositasidan ham foydalanadi. Majburlov Konstitutsiyaning maqsad normalariga, prinsiplariga taalluqli emas.

KONSTITUTSIYAVIYLIK – Konstitutsiya normalari va prinsiplari asosida, Konstitutsiyani jamiyat va davlat asosiy qonuni sifatida ta'minlash va unga amal qilish tartibi (rejimi).

KO'PPARTIYAVIYLIK – mamlakatda ikki va undan ortiq

partiyalarning bo'lishi. Bu demokratik davlatni xarakterlovchi xususiyat. Mamlakatda bir necha partiyalarning bo'lishi, fikrlar xilma-xilligini ta'minlaydi. Ko'ppartiyaviylikka konstitutsiya asos solgan. Partiyalarni tashkil etish, ro'yxatdan o'tkazish, faoliyatini to'xtatish, tugatish maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi. Partiyalar safiga kirish, chiqish ixtiyoriy. Faqat partiyalar qonunsiz tashkil qilinishi, harakat qilishi mumkin emas. Konstitutsiyaviy tuzumga, inson huquq va erkinliklariga qarshi kurashishni maqsad qilib qo'ygan partiya tuzish taqiqlanadi. (71-modda). Qarang: Siyosiy partiyalar.

KO'CHIB YURISH HUQUQI – har bir shaxsning o'z yashash joyini o'z ixtiyori bilan belgilashi. Har bir shaxs mamlakat bo'ylab erkin harakatlanishi, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega. Bunda shaxs respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, mamlakatga kelish, mamlakatdan chiqib ketish huquqiga ega. Bu masalada ba'zi cheklashlar qonun bilan belgilab qo'yilishi mumkin (32-modda).

KONSTITUTSIYA PRINSIPLARI – Konstitutsiyani mohiyatini, tavsifini, maqsadini, ahamiyatini ko'rsatuvchi g'oyalar. Ular konstitutsiya haqida tasavvur hosil qiladi, boshqa konstitutsiyalardan farqini aniqlashga yordam beradi. O'zbekiston Konstitutsiyasining prinsiplari quyidagilardir: insonparvarlik prinsipi, Konstitutsiyaning ustunligi prinsipi, Konstitutsiyani kelajak maqsad, rivojlanishni ko'zlashi prinsipi, konstitutsiya normalarini to'g'ridan to'g'ri amal qilishi prinsipi va boshqalar.

KONSTITUTSIYAVIY PRINSIPLAR – Konstitutsiyada mustahkamlangan, konstitutsiyaviy huquqiy institutlarga xos asosiy g'oyalardir. Ular konstitutsiyaviy tuzum prinsiplari ham deb ataladi. Ularning ba'zilari konstitutsiyani o'zida

prinsip deb ko'rsatilsa, masalan hokimiyat bo'linishi prinsipi, ayrimlarini ularning mazmunidan prinsip ekanligini aniqlash mumkin. Masalan, Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi, davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasligi. Konstitutsiyaviy prinsiplar asosan Konstitutsiyaning «Asosiy prinsiplari» bo'limida mustahkamlangan bo'lib, ularni davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, davlatning tashqi siyosati prinsiplari deb ham hisoblash mumkin.

KONSTITUTSIYANING TUZILISHI Qarang: Konstitutsiya.

KONSTITUTSIYANING TO'G'RIDAN-TO'G'RI AMAL

QILISHI – Konstitutsiya mamlakatimizning bugun xududida oliy yuridik kuchga ega bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Konstitutsiya normalarining amal qilishi uchun qo'shimcha normativ hujjatlar, ko'rsatmalar talab etilmaydi. Davlat va uning organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolar Konstitutsiya normalariga bevosita amal qiladi (15 modda).

KONSTITUTSIYANI QABUL QILISH – Konstitutsiya qabul qilish tartibi turli mamlakatlarda turlicha. Asosan Konstitutsiya parlament Oliy Qonunchilik organi tomonidan mutloq ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi yoki referendum (umumxalq ovozi) orqali qabul qilinadi. 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Konstitutsiyasi shu davrdagi Oliy qonunchilik organi Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya referendum orqali qabul qilindi. Konstitutsiya qabul qilish, loyiha ishlab chiqish, umumxalq muhokamasi o'tkazish, parlamentda loyihani muhokama qilish va qabul qilish, kuchga kiritish jarayonlaridan iborat. Konstitutsiya qabul qilishda loyiha

ishlovchi maxsus komissiya tuziladi. Qarang: lug‘atni Kirish qismi.

KONSTITUTSIYAGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH – zarur hollarda konstitutsiyaga yangi normalar kiritish, eskilarini chiqarib tashlash yoki ularni takomillashtirish, O‘zbekiston Konstitutsiyasining oltinchi bo‘limi (154-155-moddalar) Konstitutsiyaga o‘zgartirish tartibini belgilaydi. Unga asosan Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar Oliy Majlisning qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki respublikaning referendumini bilan kiritiladi.

KONSTITUTSIYAVIY TUZUMNI O‘ZGARTIRISH – Konstitutsiyaviy tuzum konstitutsiyaviy islohotlar natijasida, referendum orqali o‘zgartirilishi, takomillashtirilishi mumkin. Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlilik bilan o‘zgartirish mumkin emas. Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlilik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi harbiylashtirilgan birlashmalar, milliy va diniy ruhdagi partiyalar hamda jamoat birlashmalari tuzish taqiqlanadi. Respublika suvereniteti yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolar huquq va erkinliklariga qarshi harakatlar, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qilish, xalqning sog‘lig‘i, ma‘naviyatiga tajovuz qilish konstitutsiyaviy tuzumga qarshi harakat hisoblanadi (71-modda).

KONSTITUTSIYADA BELGILANGAN BURCHLARNI BAJARISH – har bir fuqaroni asosiy majburiyati. Konstitutsiyada belgilangan burchlarni ixtiyoriy bajarish taraqqiyot, totuvlik, barqarorlik kafolatidir. Barcha fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan burchlarni bajarishi konstitutsiyaviy qoida sifatida belgilangan. Undan

tashqari konstitutsiyaning XI bobida belgilangan barcha burchlarni va konstitutsiyaning boshqa moddalaridagi burchlarni bajarishdan har bir fuqaro, shaxs, davlat, jamiyat manfaatdordir.

KONSTITUTSIYA VA QONUNLARGA RIOYA ETISH BURCHI – fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’nini va qadr-qimmatini hurmat qilishga majbur ekanligidir (60-modda). Konstitutsiya va qonunlarga ixtiyoriy rioya etish ijobiy holat bo’lib, agar bu burchga ixtiyoriy bajarilmasa davlat majburlov choralaridan foydalanadi.

KASABA UYUSHMALARI – Jamoat birlashmalari tizimiga kiruvchi, xodimlarni ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etuvchi va himoya qiluvchi ixtiyoriylik asosida tuziladigan uyushma. Xalq xo’jaligi, ijtimoiy sohaning turli tarmoqlarida kasaba uyushmalari tuziladi. Ularning respublika miqyosidagi organlari mavjud. Tashkilot, korxona, muassasalarda boshlang’ich tashkilotlari, hududlarda hududiy tashkilotlari mavjud. Kasaba uyushmalari a’zolik badallarini to’laydi (73-modda).

KELISHUV KOMISSIYASI – Qonunchilik palatasida qabul qilingan qonun Senat tomonidan rad etilgan holda, yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Senat a’zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan tenglik asosida tuziladigan organ, faqat bir maqsad uchun tuziladi, oldiga qo’yilgan vazifa hal bo’lgach faoliyatini to’xtatadi. Komissiyaga nomzod Senat raisi va Qonunchilik palatasi Spikeri maslahatlashuvi asosida tanlanadi.

KUZATUVCHI – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga saylov davrida saylovlarni oshkora,

qonuniy, haqqoniy o'tishini nazorat qiluvchilar. Kuzatuvchilar milliy kuzatuvchi mamlakat fuqarolaridan iborat hamda xalqaro kuzatuvchilardan iborat bo'lishi mumkin. Xalqaro kuzatuvchilar xorijiy mamlakat vakillari hamda xalqaro tashkilot vakillarida bo'lishi mumkin. Ichki (milliy) kuzatuvchilar siyosiy partiyalar, OAV o'zini o'zi boshqarish organlari vakillaridan iborat bo'ladi. Kuzatuvchilikni rasmiylashtirish, ularning huquq va majburiyatlari saylov to'g'risidagi qonunlarda belgilangan.

KUCH ISHLATMASLIK – xalqaro huquqning muhim prinsipi O'zbekiston konstitutsiyasida davlatimizning tashqi siyosat prinsiplari qatorida kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik belgilangan. Uning natijasida nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashmaslik qoidalari ham konstitutsiyada o'z ifodasini topgan (17-modda).

KICHIK BIZNES – iqtisodiy faoliyatning bir turi. K.b. katta bo'lmagan kapitalga va shunga mos ravishda foydaga tayanadi. Kichik biznes rivojlangan mamlakatlarning iqtisodi barqaror bo'lib, ishlab chiqarishda k.b. katta hissaga ega. K.b.ni amalga oshirish shakllari kichik firmalar, kooperativlar bo'lishi mumkin. Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadbirlar o'tkazilmoqda.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – Korrupsiya jamiyatni yemiradigan, boshqaruv tizimini izdan chiqaradigan, tengsizlikni vujudga keltiradigan illat. Shu sababli unga qarshi kurash konstitutsiyaviy darajada olib borilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi asosiy organi tashkil etilishi va uning Senat bilan munosabati konstitutsiyaviy asosga ega. Korrupsiyaga qarshi kurash organining rahbari

lavozimiga nomzod Prezident tomonidan taqdim etiladi va Senat tomonidan saylanadi (95-modda, 1-band, 109-modda, 13-band).

L

LEGITIMLIK (LEGITIMNOST) – muhim ahamiyatga ega ijtimoiy tartiblarga nisbatan ishlatiladigan va ularni qonuniyligini ko'rsatuvchi yuridik atama. Parlament, hukumat qonun talablari asosida shakllantirilgan bo'lsa, u legitim hisoblanadi, ularning faoliyati xalqaro miqyosda ham e'tirof etiladi.

LOBBIZM – vakillik organlariga ta'sir o'tkazish. Ayrim kishilar yoki guruhlar o'z manfaatlarini qonunda ifodalash uchun, o'ziga mos qonun normalari qabul qilinishi uchun turli yo'llar bilan: fuqarolardan imzo to'plash, deputatlarga yozma va og'zaki murojaatlar qilish, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etish orqali vakillik organlari a'zolarini o'ziga og'dirishga, parlamentda, manfaatini himoya qilishiga urinish. O'zbekistonda bu institutga yo'l qo'yilmagan.

M

MADANIY QADRIYATLAR – Madaniy sohadagi tushuncha, hodisalarni, umuminsoniyligi, zarurligi, ahamiyatini ko'rsatuvchi tushuncha. Har bir xalqning (millatning) madaniyat sohasidagi ko'pchilik uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar, hodisalar, voqealar (ma'rifat, madaniyat, moddiy va madaniy boyliklar, madaniy yodgorliklar) madaniy qadriyat hisoblanadi. M.q. moddiy va ma'naviy bo'ladi.

MADANIYAT YODGORLIKLARI – taraqqiyotni turli davrlarida insoniyat tomonidan yaratilgan hozirgacha

insonlarni quvontiradigan, ularda yaxshi kayfiyat tug'diradigan inshootlar, me'morlik natijalari. M.yo. xalqimiz o'tmishi, uning aql-idroki darajasini ko'rsatib turadi. Madaniy yodgorliklardan barcha foydalanadi va ularni asrab avaylashga majbur. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent shahri madaniy yodgorlikka boy shaharlar.

MAJORITAR SAYLOV TIZIMI – ko'pchilik mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda qo'llaniladi. Ovoz berishda aniq bir nomzodga ovoz beriladi. Ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning nisbiy ko'pchiligining ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanadi. (ovoz berishda belgilangan foiz, O'zbekistonda 30% ishtirok etganda). Deputatlar bir mandatli saylov okruglaridan saylanadi. O'zbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga 75 ta deputat majoritar saylov yo'li bilan saylanadi.

MALAKALI YURIDIK YORDAM OLISH HUQUQI — inson huquqlarining eng asosiy konstitutsiyaviy kafolatlaridan biri bo'lib, u eng avvalo, jinoyat jarayoni (protsessi)da insonning huquqlarini ishonchli himoya etishni ta'minlashga qaratilgan. Bu huquqning asosiy mazmuni, aksariyat davlatlarning sud jarayonida (ko'proq jinoiy ishlarda) advokat xizmatidan foydalanish imkoniyatining mavjudligida ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga ko'ra yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi.

MARKAZIY BANK BOSHQARUVI RAISI – mamlakat bank tizimini Markaziy bank boshqaradi. Boshqaruv Raisi bank tizimidagi yuqori mansabdor shaxs. Markaziy bank boshqaruvi Raisi Prezident taqdimiga binoan Oliy Majlis Senati tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod

qilinadi. Markaziy bank barcha bank organlari faoliyatiga rahbarlik qiladi, ularni nazorat qiladi. Boshqa banklarning majburiy zaxiralarini, mamlakatning rasmiy oltin valyuta zaxiralarini saqlaydi va boshqa vazifalarni bajaradi (95-modda, 15-band).

MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASI – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining referendumini tashkil etish va o‘tkazish uchun, tuziladigan va mustaqillik, qonunchilik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlilik prinsiplari asosida doimiy ishlaydigan organ. Uning a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashining tavsiyasiga ko‘ra Oliy Majlis palatalari tomonidan saylanadi. M.s.k. raisi komissiya a‘zolari orasidan Prezident taqdimi bo‘yicha komissiya majlisida 5 yil muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq komissiyaning raisi etib saylanishi mumkin emas.

MAFKURA – g‘oyalar yig‘indisi. Mafkura g‘oyalarga asoslanadi. Uni qanday bo‘lishi shu g‘oyalarga bog‘liq. Shuning uchun mafkuralar yaratuvchan yoki buzg‘unchi, vayronagarchilik keltiruvchi bo‘lishi mumkin. Vayrona keltiruvchi mafkuraga “fashizm”ni ko‘rsatish mumkin. O‘zbek xalqi uzoq yillar davomida kommunistik mafkura asosida yashadi. Mustaqillikka erishgandan keyin Milliy istiqlol g‘oyasi mafkura sifatida e‘tirof etildi. Bu mafkura xalqlar, millatlar do‘stligi, farovon hayotga erishish g‘oyalariga tayanadi. Shu bilan birga konstitutsiya hech bir mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilmasligini u ixtiyoriy amal qilishini

belgilagan.

MA'MURIY-HUDUDIIY TUZILISH – mamlakat hududining ma'lum qismlarga bo'linishi. Bunday bo'linish idora etishning qulay bo'lishi, davlat organlarini aholiga yaqin bo'lishini, ishlab chiqarishni samarali tashkil qilishni nazarda tutib amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi hududi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tuman, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardan iborat. Shaharlar respublika miqyosidagi shahar (Toshkent shahri), viloyat tarkibidagi shaharlar, tuman tarkibidagi shaharlarga bo'linadi. Tumanlar viloyat tarkibidagi tumanlarga va shahar tarkibidagi tumanlarga bo'linadi. Toshkent shahri viloyatga tenglashtirilgan va Respublikaga bo'ysunuvchi yagona shahar.

MAHALLA – mamlakatimizda tarixiy vujudga kelgan aholining birlashib yashash makoni. M. fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tashkil qilinadigan hudud. Mahallalar tashkil qilish, tugatish, chegarasini o'zgartirish, qo'shib yuborish davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Insonlarni axloqiy tarbiyalashda, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda M. muhim rol o'ynaydi.

MAHALLIY DAVLAT ORGANLARI – mamlakatimiz ma'muriy hududiy tuzilishlarida tashkil qilinadigan va faoliyat ko'rsatadigan davlat organlari. Mahalliy davlat organlari viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlardagi xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklardir. Shu hududda turli tarmoq va sohalar boshqaruvchi idora organlari tuzilib ular hokimliklar tarkibida bo'ladi va unga bo'ysunadi. Masalan, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi va boshqa sohalar bo'yicha bo'lim va boshqarmalar. Mahalliy vakillik davlat hokimiyati organlari saylov asosida tashkil

qilinadi va kollegialchilik asosida ish yuritadi. Ijro organlari tayinlash asosida tashkil qilinib, yakka boshchilik asosida ish yuritadi.

MAHALLIY O‘ZINI O‘ZI BOSHQARUV – fuqarolarning joylarda davlat va jamiyat ishlarida ishtirokini ta’minlovchi, joylarda davlatning ayrim funksiyalarini amalga oshirish vositasi hokimiyatning bir turi. Ko‘pchilik mamlakatlarda mahalliy miqyosda davlat hokimiyati organlari tashkil etilmay, u yerda faqat mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari tashkil etiladi (Rossiyada). O‘zbekistonda joylarda mahalliy davlat hokimiyati organlari ham, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruv organlari ham mavjud. O‘zbekistondagi mahalliy boshqaruv organlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruv organi fuqarolar yig‘inidir. Qarang: Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari.

MEHNAT HUQUQI – ikki ma’noda ishlatiladi. Birinchisi, ma’lum munosabatlarni (mehnat munosabatlarini) tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi bo‘lib, bunda u huquqning alohida bir tarmog‘i hisoblanadi. Ikkinchi ma’nosi mehnat huquqi deganda shaxsning mehnat qilish huquqini bildiradi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 42-moddasida mehnat qilish huquqi shaxsning asosiy huquqlari sifatida belgilangan. Unga asosan, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqiga ega. Davlat mehnat huquqini kafolatlab, har bir shaxsga yaxshi, adolatli mehnat sharoitlarini yaratib berish, ishsizlikdan himoya qilish majburiyatini oladi. Mehnatga yarasha haq to‘lash qonun bilan belgilanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari hech kim majburiy mehnatga jalb qilinishi mumkin emas, bu bilan sotsializmda o‘rnatilgan mehnat qilish burchi bekor bo‘ldi. Voyaga yetmaganlarning, ayollarning mehnat

huquqi alohida himoya qilinadi. Ular uchun kam ish kuni va soati o'rnatiladi, og'ir va zararli ishlarga jalb qilish taqiqlanadi.

MILLIY OZCHILIK – mamlakatda shu jumladan O'zbekistonda yashovchi o'zbek bo'lmagan (asosiy millatga nisbatan kam sonli) boshqa millatlar. Masalan, O'zbekistonda ruslar, qozoqlar, qirg'izlar, tojiklar, tatarlar, uyg'urlar, koreyslar yashaydi va ular milliy ozchilikni tashkil etadi. Konstitutsiyaga asosan ularning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinib, ularni tili, madaniyati, urf-odati rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi (4-modda).

MILLIY TENG HUQUQLILIK – Shaxsning huquqiy holati prinsiplaridan. Barcha fuqarolar millatidan qat'i nazar qonun oldida, davlatni boshqarishda va barcha huquqlardan foydalanishda tengdir. Bu masalalarda biror-bir millatga imtiyozlar ham berilmaydi, kamsitilmaydi ham. Kamchilikni tashkil etuvchi millatlarning madaniyati, tili, urf-odatlar hurmat qilinadi va ularning rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi.

MITING, YIG'ILISH, NAMOYISH O'TKAZISH HUQUQI – fuqarolar faolligini bildirish usullari. Fuqarolar turli masalalarga o'z munosabatlarini (rozilik, norozilik) mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazish orqali bildiradilar (38-modda). Ularni o'tkazish haqida avvaldan hokimiyat organlari ogohlantirilib, ularning roziligini olish talab etiladi.

Faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina miting, yig'ilish va namoyish o'tkazish to'xtatilishi yoki taqiqlanishi mumkin. Bunday tadbirlar boshqalarni huquq va manfaatiga zarar yetkazmasligi kerak.

MONARXIYA – davlatning boshqaruv shakli. Bunda davlat

boshlig'i nasldan-naslga o'tadi va monarx umrbod davlat boshlig'i bo'ladi. Monarxiyaning ikki turi mavjud, birinchisi mutloq (absolyut) monarxiya, bunda monarxning vakolati cheklanmagan, u yagona hukmdor bo'ladi, ikkinchisi konstitutsiyaviy monarxiya, bunda monarxning vakolati cheklangan bo'lib mamlakatda qonunchilikni parlament, ijro hokimiyatini hukumat olib boradi va mustaqil sud hokimiyati mavjud. Mutloq monarxiya hozirgi kunda ozchilik mamlakatlarda saqlangan. Ular qatoriga Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirligi, Quvayt va boshqalar kiradi. Qolgan monarxiya davlatlari konstitutsiyaviy monarxiya hisoblanadi. Ularga Angliya, Ispaniya, Yaponiya, Gollandiya va boshqalar kiradi. Monarxlar turli mamlakatlarda turli nomlar bilan ataladi. Masalan, Yaponiyada imperator, Angliya va Ispaniyada qirol, Malayziyada sulton, Quvaytda amir, Lyuksemburgda buyuk gersog. Keyingi paytda mutloq monarxiyadan konstitutsiyaviy (cheklangan) monarxiya o'tish yo'li kuzatilmoqda. Mutloq monarxiya davlatlarida konstitutsiyalar qabul qilinmoqda.

MULK SHAKLLARI – mulkni kimga tegishliligidan kelib chiqadi. Bozor munosabatiga asoslangan iqtisodiyotda mulkning shakllari turli tuman bo'ladi. Konstitutsiyada xususiy mulk va umummilliy boylik hisoblanuvchi davlat mulki shakli qayd qilingan. O'zbekistonning «Fuqarolik kodeksi»da mulkning xususiy va ommaviy shakli bo'lishi belgilangan. Ommaviy mulk davlat mulkiga nisbatan qo'llaniladi. O'z navbatida ommaviy mulk Respublika va mahalliy mulkka bo'linadi. Xususiy mulk, va ommaviy huquq davlat tomonidan birdek muhofaza qilinadi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsizdir.

MULKDOR – mulk egasi. Har bir kishi qonuniy asosda mulk egasi bo‘lishi (ya’ni mulkni qonun asosida qo‘lga kiritishi) mumkin. Mulkdor o‘z mulkini egallashi, foydalanishi, tasarruf etishi, merosga qoldirishi (vasiyat qilishi) mumkin. Bankka qo‘yilgan omonatlar va hisob-varaqalari sir tutiladi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi (41-modda).

MULKDOR BO‘LISH HUQUQI – har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli. Qarang: Mulkdor (41-modda).

MUOMALA LAYOQATI – turli masalalarda munosabatga kirisha olishning ta’minlovchi yosh chegarasi. Fuqarolarning muomala layoqati ma’lum yoshdan, ya’ni 18 yoshdan vujudga keladi. 18 yosh shaxsni voyaga yetganligini bildiradi va shu paytdan boshlab u o‘z xatti-harakati, harakatsizligi oqibatlari uchun javob bera oladi. Voyaga yetgan shaxs u necha yoshligidan qat’iy nazar sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilishi mumkin. Bunda sud meditsina xulosasiga tayanadi. 18 yoshga to‘lmaganlar va sud qarori asosida muomalaga layoqatsiz deb topilganlarni manfaatini ota-onalar, vasiylar ifoda etadi.

MUQOBIL SAYLOV – ovoz berishda tanlash uchun imkoniyat yaratadi. Saylov byulletenlariga ikki va undan ortiq nomzod kiritilib, saylovchi ixtiyoriy ulardan biriga ovoz beradi. Belgilangan miqdordagi ovozni olgan nomzod saylangan hisoblanadi.

MUQOBIL XIZMAT – fuqarolarning konstitutsiyaviy burchi. Harbiy xizmat o‘tamaslik uchun ba’zi uzrli sabablari bo‘lgan fuqarolar o‘taydigan majburiy xizmat. Kimlar, qanday holda, qancha muddat muqobil xizmat o‘tashi maxsus qonun bilan tartibga solinadi. Bu xizmat turi ko‘pchilik mamlakatlarda keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonda u o‘z o‘rnini topmadi.

MUXOLIFAT – o‘z fikriga ega ozchilik. Konstitutsiya ijtimoiy

hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishni belgilagan. Buni ro'yobga chiqarish uchun muxolifat bo'lishi zarur. Muxolifat huquqlari Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan. Konstitutsiyaga asosan hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas (34-modda). «Davlat boshqaruvini yangilashi va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi qonunda (2-modda), hukumatni yo'lga qo'shilmaydigan siyosiy partiya fraksiyalari muxolifat bo'lishi belgilanib, ularning huquqlari ko'rsatib qo'yilgan.

N

NATURALIZATSIYA (NATURALLASHTIRISH) – chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni o'zlarini iltimoslariga ko'ra tegishli davlatning fuqaroligiga qabul qilish. Fuqarolikka qabul qilish uchun ma'lum shartlar o'rnatilgan. Jumladan shu mamlakatda ma'lum muddat yashagan bo'lish va boshqalar. Talablar maxsus qonun bilan tartibga solinadi.

NIKOH – Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqligiga asoslangan shartnoma. An'anaviy qadriyatlarga asoslanish nikoh ikki jinsli insonlar o'rtasida tuzilishini bildiradi. Ya'ni erkak va ayolning oila qurishi avlodni davom ettirish uchun ixtiyoriy ittifoqidir. Nikoh maxsus qonun asosida FXDYo organlari tomonidan tuziladi.

NOMZOD KO'RSATISH – saylov jarayonida amalga

oshiriladigan, qonun bilan tartibga solingan tadbir. Nomzodlar saylov davrida Prezidentlikka, deputatlikka ko'rsatiladi. O'zbekistonda turli davrlarida nomzod ko'rsatish tartibi, nomzod ko'rsatuvchilar doirasi har xil bo'lgan. Amaldagi qonunchilikka asosan O'zbekiston Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga va mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar faqat siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatiladi. Bunda siyosiy partiyalar saylovgacha to'rt oy oldin Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerak.

NOMZODLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR – nomzodni

ro'yxatga olish uchun zarur shartlardir. Prezidentlikka nomzod, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod, mahalliy Kengash deputatligiga nomzodlar uchun turli talablar qo'yilgan. Bu talablarni ayrimlari konstitutsiyada, ayrimlari saylov qonunchiligida belgilangan.

Masalan, O'zbekiston Prezidenti bo'lib saylanish uchun Konstitutsiyaga binoan, shaxs 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan bo'lishi kerak. Qonunda Prezidentlikka nomzodga yana quyidagi talablar qo'yilgan: qasddan sodir etgan jinoyat uchun ilgari sudlangan fuqarolar, shuningdek, diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari ham Prezidentga nomzod bo'la olmaydi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari nomzodlariga konstitutsiya bo'yicha quyidagi talablar qo'yilgan: nomzod saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan va O'zbekiston hududida kamida besh yil muqim yashagan bo'lishi kerak. Deputatlikka nomzodlarga qonun bo'yicha quyidagi talablar qo'yilgan: sodir etgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun sudlanganlik holati tugamagan yoki

olib tashlanmaganlar. Qurolli kuchlarning harbiy xizmatchilari, Davlat xavfsizlik xizmatining, Milliy gvardiyaning, Ichki ishlar vazirligining, Davlat bojxona qo'mitasining, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari, diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod bo'la olmaydi.

Mahalliy Kengash deputatligiga nomzodlarga ham qonunda talablar qo'yilgan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarga qo'yilgan talablar bularga ham to'la tatbiq qilinib, qo'shimcha ravishda, sudyalari, prokuratura organlari, va ijroiya hokimiyati organlarining mansabdor shaxslari (hokimlar bundan mustasno) deputat etib saylangudek bo'lsalar, egallab turgan lavozimlaridan bo'sh shah to'g'risida ariza berishlari talab etiladi.

NOMZODLARNI RO'YXATGA OLISH – Prezidentlikka nomzodlar, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan, viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar tegishlicha, viloyat, tuman, shahar Kengashiga saylov komissiyalari tomonidan saylov qonunchiligida belgilangan hujjatlar asosida ro'yxatga olinadi.

NOMZODLARNING HUQUQLARI – Prezidentlikka, deputatlikka nomzod etib ko'rsatilganlarning barchasi birdek teng huquqqa ega. Har bir nomzod belgilangan miqdorda ishonchli vakiliga ega. Ular saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish, OAVlarida chiqish vaqtida o'rtacha ish oyligi saqlangan holda ishlab chiqarish yoki xizmat vazifasini bajarishdan ozod etiladi. Prezidentlikka nomzod Respublika-ning butun hududida, deputatlikka nomzodlar o'z okrugi hududida transportdan tekin foydalanish huquqiga ega

(qonunda belgilab qo'yilgan transport turlaridan tashqari).

NOMZODLIK MAQOMIDAN MAHRUM BO'LISH –

Prezidentlikka nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalar saylovga yetti kun qolganda, deputatlikka nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalar saylovga besh kun qolganda nomzod ko'rsatganlik haqidagi qarorini bekor qilishi mumkin. Saylov davrida nomzod ko'rsatgan siyosiy partiya faoliyatini to'xtatsa, u ko'rsatgan nomzodlar saylovda ishtirok etish huquqidan mahrum bo'ladi. Prezidentlikka nomzod sayloviga kechi bilan yetti kun qolganda, deputatlikka nomzod istagan vaqtida nomzodlikdan o'z ixtiyoriga ko'ra voz kechishi mumkin.

O

OVOZ BERISH – referendum va saylovda ishtirokchilarning istak-xohishini amalga oshirish shakli. O.b. yashirin yoki ochiq bo'lishi mumkin. O.b. demokratik o'tishi, ovoz beruvchiga tashqi ta'sir bo'lmasligi uchun yashirin ovoz berish tartibi o'rnatiladi. Referendumda biror-bir masalaga ovoz berilsa, saylovda shaxsga nisbatan ovoz beriladi. O.b. faqat umumiy saylovlarda emas, vakillik organlarining faoliyatida ham qo'llaniladi. Har bir masala u yerda ovozga qo'yilib hal qilinadi. Qanday masalalar ochiq ovoz bilan, qanday masalalar yashirin ovoz berish yo'li bilan hal qilinishi qonun va boshqa hujjatlarda belgilab qo'yiladi.

OVUL – O'zbekiston Respublikasi ma'muriy hududiy tuzilishining tarkibiy qismi. Ovullar asosan Qoraqalpog'iston Respublikasida tashkil qilinadigan, aholi istiqomat qiluvchi ma'muriy hududiy birlik.

ODIL SUDLOV – davlat faoliyati shakllaridan hisoblanadi. Uning mazmuni turli sudlar tomonidan o'z vakolatiga taalluqli

ishlarni ko'rib chiqish va hal qilishdir. Sudda ko'riladigan ishlar jinoiy, ma'muriy, fuqarolik ishlari bo'lishi mumkin. Sudlov, uni amalga oshiruvchi organlar tizimi, prinsiplari, sud yurgizish tartibi qonunlar da belgilab qo'yiladi. Sudlov faqat qonunda belgilangan sud organlari tomonidan amalga oshirilishi, ishlar oshkora ko'rilishi, qonuniylik va qonun oldida barchaning tengligi, sudning mustaqilligi, sudda ayblanuvchilar himoya bilan ta'minlanishi sudlovning konstitutsiyaviy prinsiplari hisoblanadi.

OZODLIK DAN MAHRUM QILISH JOYLARI – ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash tashkil qilinadigan maxsus joy. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazo sud hukmiga asosan o'taladi. Bunday muassasalar ichki ishlar vazirligi tasarrufidadir.

OILA – jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Oila jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Oilada er-xotinlik, ot-onalik, farzandlarning o'zaro shaxsiy hamda mulkiy huquqi va manfaatlari bilan bog'liq munosabatlar mujassamlashgandir (76-modda).

OLIY BOSH QO'MONDON – mamlakat Qurolli kuchlarining oliy rahbari. Bosh qo'mondon tinch davrda ham, urush paytida ham Qurolli kuchlar boshlig'i hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Oliy Bosh qo'mondoni – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hisoblanadi. U Qurolli kuchlarning oliy qo'mondonlarini vazifasiga tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi (109-modda, 20-bandi).

OLIY MAJLIS – O'zbekiston Respublikasining Oliy qonunchilik organi – Parlamenti. O.M. Oliy davlat vakillik organi. O'zR O.M.ning palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. Har ikki palataning vakolat

muddati besh yil. Palatalarning tashkil qilish tartibi, faoliyati, vakolatlari, o'zaro munosabatlari qonunlar bilan tartibga solinadi. Qarang: Senat, Qonunchilik palatasi.

OLIY MAJLISNING VAKOLATLARI – Qarang: Palatalarning birgalikdagi vakolatlari.

OLIY MAJLISNING INSON HUQUQLARI BO'YICHA VAKILI – Qarang: Ombudsman.

OLIY MAJLISNING PALATALARINING QO'SHMA MAJLISI – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qabul qilganda, mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatini eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarining davlat boshliqlari nutq so'zlaganda, Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi ko'rib chiqilganda palatalarning qo'shma majlisi o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlis boshqa masalalarda ham o'tkazilishi mumkin.

OLIY MAJLIS PALATALARINING QO'MITA VA KOMISSIYALARI – Qonunchilik palatasida qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, qonunlar va palata tomonidan qabul qilingan qarorlarni ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolati muddatiga deputatlar orasidan qo'mitalar saylaydi.

Oliy Majlis Senati, Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlab ko'rib chiqish va tayyorlash, qonunlar hamda Senat qarorlarini ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolat muddatiga Senatorlar orasidan qo'mitalar saylaydi. Har ikki palata zarurat bo'lganda, muayyan vazifani bajarish uchun tegishlicha deputatlar va Senatorlar orasidan komissiyalar tuzadi. Qo'mita doimiy ishlovchi organ,

komissiya ma'lum vazifani bajargach faoliyatni tugatadi.

OLIY MAJLISNI TARQATIB YUBORISH – Qarang: vakillik organlarini tarqatib yuborish.

OLIY SUD – O'zbekiston Respublikasining Oliy sud muassasasi bo'lib, uning raisi va o'rinbosari Prezident taqdimi bilan Oliy Majlis Senati tomonidan 5 yil muddatga saylanadi. Bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq rais va rais o'rinbosari etib saylanishi mumkin emas. Oliy sud fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Unda jinoiy ishlar, fuqarolik ishlari, harbiy ishlar bo'yicha hay'atlar mavjud. O.s. quyi sudlarda ko'rilgan ishlarning qonuniyligini nazorat qiladi. Plenumlarida sudlar uchun majburiy ko'rsatmalar beradi hamda alohida ahamiyatli ishlarni o'zi birinchi instansiya tartibida ko'rib chiqadi. Oliy sudda quyi sudlar qabul qilgan hukm va ajrimlar bekor qilinadi, o'zgartiriladi. Qabul qilgan hujjatlari O'zbekistonning barcha hududida majburiydir. O.s. a'zolari deputat bo'lishi, siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishi mumkin emas.

OMBUDSMAN – inson huquqlariga amal qilinishini nazorat qilish uchun maxsus saylanadigan (yoki tayinlanadigan) mansabdor shaxs. Ular inson huquqlarini turli ma'muriy organlar tajovuzidan saqlashni maqsad qilib qo'yadi. Ular fuqarolarning murojaati yoki o'z tashabbusi bilan tekshiruv ishlarini yuritadi. Huquq buzilishlarini aniqlagan vaqtda, shu huquq buzilishi aybdori bo'lgan organga qonunsiz hujjat yoki harakatlarini bekor qilishini taklif etadi. Agar taklif bajarilmasa, u holda sudga yoki parlamentga murojaat qiladi. Ombudsman turli mamlakatlarda turli normalar bilan ataladi. Masalan, Shvetsiya, Daniya, Polsha, Kanadada – ombudsman, Ispaniya va Kolumbiyada – xalq himoyachisi,

Fransiyada – vositachi, Ruminiyada – xalq advokati, Rossiyada – inson huquqlari bo'yicha vakil. O'zbekistonda ham inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili lavozimi bo'lib, u Oliy Majlis palatalari tomonidan saylanadi va faoliyati alohida qonun bilan tartibga solinadi.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI – mamlakatda va chet ellarda bo'layotgan muhim masalalarni fuqarolarga yetkazib turuvchi, davlat ishlari haqida xabar beruvchi vositalardir. U aholini ongini shakllantiruvchi, yoshlarni vatanparvarlik, axloqiy xislatlarda tarbiyalash vositasini o'tovchi vositadir. OAV so'z erkinligini ta'minlaydi. Ular erkin faoliyat yuritadi va qonunga muvofiq ish olib boradi. Axborotni to'g'riligi uchun javobgardirlar. OAV faoliyatida senzura yo'l qo'yilmaydi (81, 82 moddalar). OAV bo'lib gazeta, jurnal, radio, televideniya hisoblanadi.

OMMAVIY MULK – Qarang: mulk shakllari.

OMMAVIY HARAKAT – jamoat birlashmasi shakli. U jamoat manfaatini ko'zlovchi maslakdoshlarni birlashtiradi. O.X. davlat ro'yxatidan o'tganda qonuniy hisoblanadi. O.X.da masalalar demokratik, kollegial hal qilinadi.

OTA-ONANING FARZANDLAR OLDIDAGI MAS'ULIYATI – Konstitutsiyaviy burch bo'lib, har qaysi ota-ona o'z farzandlarini voyaga yetgunlarigacha boqish, tarbiyalashga majburdir (77-modda). Boqish va tarbiyalash majburiyatiga bolaga bilim berish ham kiradi. Majburiy ta'limni amalga oshirishda ham ota-ona tegishli majburiyatga ega.

OSHKORALIK PRINSIPI – demokratik prinsiplardan biri. U prinsip saylovlarni demokratik o'tishi, vakillik organlari ishini ochiq olib borilishini ta'minlaydi. Oshkoralik prinsipini amal qilishda OAV alohida rol o'ynaydi. Bu

prinsipni kuchaytirishda «Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida» qonun muhim rol o'ynaydi. Olib borilayotgan axborot sohasidagi islohotlar ham oshkoralikni kengroq ta'minlashga qaratilgan.

P

PARLAMENT – bu soʻzning asl maʼnosi “munozara joyi”, fransuzcha “parla” gap soʻz baxs, “ment” joy, oʻrni demakdir. Demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomidir. Parlament birinchi marta XIII asrda Angliyada tashkil qilingan. Oliy vakillik organlari bir necha mamlakatlarda jumladan, Angliya, Fransiya, Italiya, Kanada, Belgiyada toʻgʻridan-toʻgʻri parlament deb ataladi. AQSh va baʼzi Lotin Amerikasi mamlakatlarida Kongress, Rossiyada Federal Majlis, Litva, Latviya, Polshada Seym deb ataladi. Oʻzbekistonda esa u Oliy Majlisdir. Parlamentni tashkil qilish tartibi, vakolat muddati, vakolat doirasi turli mamlakatlarda turlicha boʻlib, ular Konstitutsiya hamda qonunlarda belgilab qoʻyiladi.

PARLAMENT NAZORATI – Davlat nazoratining bir shakli. Parlament nazoratining taʼsir kuchi Prezidentlik va parlamentar respublikalarda har xil boʻladi. Parlament nazorati hukumat va boshqa organlarning hisobotlari, axborotlarini eshitish, maʼlum masalani oʻrganish yuzasidan maxsus komissiyalar tuzish hamda oʻzining organlari, deputatlari, qoʻmita va komissiyalari faoliyati orqali tashkil qilinadi. Parlament nazoratida ombudsman instituti alohida rol oʻynab, u fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qiladi. Bunday tuzilma Oʻzbekiston Oliy Majlisning inson huquqlari boʻyicha vakilidir. (qarang: Ombudsman). Konstitutsiyaning 93-moddasi 16-bandida Parlament nazorati

qonunlashtirilgan.

PARLAMENT PALATALARINING BIRGALIKDA

VAKOLATLARI — Oliy Majlisning parlament sifatidagi vakolatlari bo'lib, ularni palatalar birgalikda hal qiladi. Konstitutsiyaning 93-moddasida Oliy Majlis palatalari Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari belgilangan. Bunday tartib O'zbekistonga xos.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar qoida tariqasida avval Qonunchilik palatasida, so'ng Senatda ko'rib chiqiladi. Agar masala qo'shma majlisda ko'rib chiqilsa, ovoz berish alohida-alohida o'tkaziladi.

PARLAMENT PALATALARINING MUTLOQ

VAKOLATLARI — faqat shu palatada ko'riladigan va shu palatagina hal qilishi huquqiga ega masalalar. Oliy Majlis Senatining mutloq vakolatlari konstitutsiyaning 95-moddasida Qonunchilik palatasining mutloq vakolatlari 94-moddada mustahkamlab qo'yilgan. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada Qonunchilik palatasining mutloq vakolatlari ko'paytirildi.

PARLAMENT SO'ROVI — Parlament nazoratining samarali shakli. Qonunchilik palatasi, deputatlar, shuningdek, Senat va senatorlar davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslangan tushuntirish berish yoki nuqtai nazariga bayon qilish talabi bilan parlament so'rovi yuborishga haqli. Parlament so'roviga javob mansabdor shaxslar so'rov olgandan kundan e'tiborli o'n kundan kechiktirilmay Qonunchilik palatasi majlisida beriladi. Senatning navbatdagi majlisida so'rovga javob beriladi. So'rov bo'yicha axborot palatalar majlisida muhokama qilinishi mumkin. Palatalar muhokama bo'yicha qaror qabul

qiladi.

PARLAMENT O'QISHI — Parlament palatalarida qonun loyihalarini moddama-modda ko'rib chiqish, muhokama qilishga va qabul qilishning bosqichlari. Qonunchilik palatasi reglamenti to'g'risidagi qonunga asosan Qonunchilik palatasi qonun loyihasini qoida tariqasida uch o'qishda ko'rib chiqadi. Senatda o'qish ko'zda tutilmagan, chunki o'qish loyihaga taalluqli, Senat esa bir necha o'qishda Qonunchilik palatasi qabul qilgan qonunni ko'rib chiqadi.

PARLAMENTAR RESPUBLIKA — davlat boshqaruvi Respublika shaklining bir turi bo'lib, parlament rasmiy ravishda to'liq hokimiyatga ega organligi bilan xarakterlanadi. Ya'ni, uning oldida hukumat siyosiy javobgar sifatida tashkil etiladi. Prezident parlament tomonidan to'g'ridan to'g'ri yoki alohida saylovchilar kollegiyasi tomonidan saylanadi. Prezident faqat davlat boshlig'i bo'lib, ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanmaydi. Bunda Prezident o'z vakolatlarini qoida bo'yicha bosh vazir boshchiligidagi hukumatning taklifiga asosan amalga oshiradi. Agar hukumat parlamentda ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, parlament hukumatga ishonchsizlik bildirib, uni iste'foga chiqarishi mumkin. Bu holda Prezident hukumatning taklifi bo'yicha parlamentni tarqatib, muddatidan oldin saylovlar o'tkazish huquqiga ega bo'ladi. Parlamentar respublikalarga GFR, Italiya, Vengriya, Chexiya, Latviya, Estoniya misol bo'ladi.

PARLAMENTARIZM — Boshqaruvning alohida tizimdagi shakli. Bunda qonunchilik va ijro etuvchi hokimiyat funksiyalari aniqroq chegaralanadi va rasmiy jihatdan Parlamentning boshqa organlarga ta'siri ustuvor darajada bo'ladi. Hukumat parlament tomonidan tuziladi va uning

oldida javobgardir.

PARLAMENTDA KO'PCHILIK — Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan siyosiy partiya fraksiyasi Parlamentdagi ko'pchilik hisoblanadi. Ular ma'lum vakolatlarga ega.

PARLAMENTDAGI MUXOLIFAT — Qarang: Muxolifat.

PARLAMENTNI TARQATIB YUBORISH — parlamentar respublika davlatlarida, shuningdek, respublika boshqaruvining aralash shaklidagi davlatlarda davlat hokimiyatini amalga oshirishdagi konstitutsiyaviy mexanizmning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Parlamentni tarqatib yuborish huquqi (parlamentga muddatidan avval saylovlar o'tkazish) davlat boshlig'iga tegishlidir. Parlamentar respublikalarda bu huquqni davlat boshlig'i amalga oshirsada, qoida bo'yicha u hukumatning taklifi bilan bo'ladi. Qarang: Vakillik organlarini tarqatib yuborish tartibi.

PARTIYAVIY TIZIM — jamiyat ichida siyosiy faoliyatni shakllantiruvchi, tashkil etuvchi siyosiy institutlar majmuasidir. Siyosiy institutlar bu bir tomondan, siyosiy partiyalar bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, boshqa tomondan partiyalar, siyosiy tizimining ijtimoiy elementlari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari ifodasi. Davlatlarda bir partiyaviy yoki ko'ppartiyaviy tizim mavjud. O'zbekiston ham ko'ppartiyaviylik tizimiga ega.

PASSIV SAYLOV HUQUQI (SAYLANISH HUQUQI) — ma'lum yoshga yetgan, muomalaga layoqatli fuqarolarga taalluqli. Mahalliy Kengash deputatligiga 21 yoshga, Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputatligiga va senatorlikka 25 yoshga, Respublika Prezidentligiga 35 yoshga yetgan fuqarolar saylanish huquqiga egadirlar. Saylanish huquqiga

ega bo'lishi uchun yana boshqa shartlar ham qo'yiladi. Masalan: Prezident bo'lib saylanish uchun O'zbekiston kamida oxirgi 10 yil ichida muhim yashagan bo'lishi va davlat tilini yaxshi bilishi kerak. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senator bo'lib saylanish uchun kamida so'nggi besh yilda O'zbekistonda doimiy yashagan bo'lishi kerak. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas (128-modda). Saylanish huquqiga ega bo'lish uchun boshqa shartlar ham qo'yilishi mumkin. Qarang: Nomzodlarga qo'yiladigan talablar.

POYTAXT — mamlakatning bosh shahri Poytaxt mamlakatni ma'muriy-siyosiy markazi. Poytaxtda davlatning oliy, markaziy organlari joylashadi. Poytaxt madaniy, maorif muassasalar maskani. Poytaxt to'g'ridan-to'g'ri markazga bo'ysunadi. Konstitutsiyaga asosan O'zbekiston poytaxti Toshkent shahridir (6-modda).

POG'ONALI SAYLOV — aylanuvchilarni (O'zbekiston senatorlar) bevosita to'g'ridan to'g'ri emas bilvosita ya'ni saylovchilar tomonidan saylangan vakillar (O'zbekistonda mahalliy Kengash deputatlari) tomonidan saylash. Oliy Majlis Senati a'zolari, saylovchilar tomonidan saylangan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar xalq deputatlari Kengashi deputatlari tomonidan saylanadi.

PREZIDENT — respublika boshqaruvidagi mamlakatlarda davlat boshlig'i. Prezident birinchi marta davlat boshlig'i sifatida 1787 yilda AQShda joriy qilingan. Ayrim mamlakatlarda u faqat davlat boshlig'i ayrim mamlakatlarda ham davlat boshlig'i, ham ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. Ayrim

mamlakatlarda bevosita xalq tomonidan, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylanadi (Fransiyada), ayrim mamlakatlarda saylovchilar vakillari tomonidan saylanadi (AQShda), ayrim mamlakatlarda esa parlament tomonidan saylanadi (Chexiyada), ayrim mamlakatlarda maxsus kengash tomonidan saylanadi (Germaniyada). Vakolat muddati har xil 4 yildan 7 yilgacha. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig‘i hisoblanadi. U Qurolli kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir. O‘zbekiston Prezidenti 35 yoshga to‘lgan, O‘zbekistonda oxirgi 10 yil davomida doimiy yashagan, davlat tilini yaxshi biladigan O‘zbekiston fuqarolari orasidan, umumiy, teng, to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan yetti yil muddatga saylanadi. Bir shaxs ketma-ket surunkasiga ikki muddatdan ortiq Prezident bo‘lib saylanishi mumkin emas. Prezident saylash tartibi, vakolatlari Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo‘yiladi.

PREZIDENT ADMINISTRATSIYASI — Prezident vakolatlarini amalga oshirish, vazifalarini bajarish uchun ko‘maklashuvchi yordamchi tuzilma. Administratsiyada turli sohalar bo‘yicha mutaxassislar faoliyat ko‘rsatadi. Mamlakatdagi ahvol tahlil qilinib Prezidentga yetkaziladi, Prezident tomonidan qabul qilinadigan hujjat loyihalari tayyorlanadi. Administratsiya shtati, tuzilmasi Prezident tomonidan belgilanadi va o‘zgartirish kiritiladi (109-modda, 24-band).

PREZIDENT VAKOLATLARI — Prezidentga o‘z vazifasini bajarish imkoniyatini beruvchi huquqlar yig‘indisi. Prezident huquqlariga nisbatan ishlatiladigan atama P.v. konstitutsiyaning 109-moddasida berilgan. P.v.

konstitutsiyaning boshqa moddalarida ham ko'rsatilgan. Masalan, 10-modda xalq nomidan ish olib borishi, 99-modda Qonunchilik tashabbusi huquqiga egaligi, 111-modda Oliy Majlis palatalarini tarqatib yuborishi, 99-modda Oliy Majlis palatalarida qabul qilingan qonunlarni imzolab, e'lon qilishi yoki o'z e'tirozlari bilan Oliy Majlisga qaytarishi, muddatdan oldin saylov tayinlashi (128-modda). Prezident ayrim vakolatlarini o'zi mustaqil hal qiladi, ayrim masalalarni hal qilganda Oliy Majlis palatalariga shu masalani tasdiqlashga kiritadi, ayrim masalalarni boshqa organlar bilan maslahatlashib hal qiladi, ayrim masalalarni tegishli organlar taqdimiga ko'ra hal qiladi. Bular konstitutsiyada belgilab qo'yilgan. Prezident qabul qilgan hujjatlar butun Respublika hududida bajarilishi majburiydir.

PREZIDENT DAXLSIZLIGI — (Prezident vakolatlarini daxlsizligi) — Prezident shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi. Prezidentni ushlab turish, so'roq qilish, tintuv yoki shaxsiy narsalarini ko'zdan kechirish mumkin emas. Prezident javobgarlikka tortilmaydi. Prezident faoliyatining kafolatlari "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun mustahkamlab qo'yilgan. Qonunga asosan Prezident daxlsizlik immunitetiga ega. Daxlsizlik uning turar joyiga, xizmat xonalariga, yukiga, shaxsiy va transport vositalariga, tegishli hujjatlariga tatbiq etiladi. Prezidentning xavfsizligi alohida ta'minlanadi. Prezident hayoti, sog'lig'i, sha'ni, obro'siga qarshi qilingan harakatlar uchun jinoyat kodeksida javobgarlik belgilangan. Prezident faoliyatining asosiy kafolatlari vakolat muddati tugab iste'foga chiqqan Prezidentga ham tatbiq qilinadi.

PREZIDENT MAS'ULIYATI — Prezident zimmasidagi

bajarilishi shart vazifalar. Prezident mas'uliyati uning qasamyodidan kelib chiqadi. Qasamyod qabul qilishda Prezident xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishga, konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni vijdonan bajarishga so'z beradi. Prezidentning vakolatlari qayd qilingan moddada ham Prezidentga mas'uliyat yuklovchi normalar mavjud. Masalan, mamlakat suvereniteti, xavfsizligi va huquqiy yaxlitligini muhofaza etish haqidagi vazifa katta mas'uliyatni keltirib chiqaradi.

PREZIDENT MUROJAATI — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan Prezident tomonidan qilinadigan rasmiy murojaat. Bundan tashqari Prezident boshqa davlatlarga, xalqqa ham turli masalalar yuzasidan murojaat qilishi mumkin (109-modda, 6-band).

PREZIDENT SAYLASH¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti umumxalq tomonidan, umumiy, teng, to'g'ri saylov prinsiplari asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan yetti yil muddatga saylanadi. Prezident saylovi, uning vakolat muddati tugaydigan yilda, oktabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Saylov kampaniyasi boshlanganligini Markaziy saylov komissiyasi e'lon qiladi. Saylov kampaniyasi Prezident vakolati tugashidan kamida uch oy oldin e'lon qilinadi. Zarurat bo'lganda, muddatdan oldin saylov o'tkazish mumkin. Muddatdan oldin saylov Prezident tomonidan tayinlanadi (128-modda).

Qarang: Nomzod ko'rsatish tartibi, nomzodlarga qo'yiladigan talablar.

¹ Bundan keyin Prezidentga tegishli barcha atamalar faqat O'zbekiston Prezidenti misolida izohlanadi.

PREZIDENT QABUL QILADIGAN HUJJATLAR —

Prezident butun respublika hududida kuchga ega farmon, qaror, farmoyish qabul qiladi. Farmon va qarorlar asosan ijtimoiy xarakterda bo'lsa, farmoyishlar farmon va qarorni bajarish yuzasidan, yoki aniq bir masalaga (individual xarakterda) qaratilgan bo'ladi.

Prezidentning farmon va qarorlari asosan to'g'ridan to'g'ri bajarilsa ayrim farmon va qarorlarini Oliy Majlis yoki uni palatalarini biri tasdiqlashi kerak bo'ladi. Prezidentning vazirliklar va boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlari, Senat tasdig'iga, urush holati, favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmonlar Oliy Majlis tasdig'iga kiritiladi.

PREZIDENT QASAMYODI — Konstitutsiyada matnni belgilangan va saylangan Prezident lavozimga kirishiga asos bo'luvchi, prezidentning ayrim masalalarni va zimmasidagi vazifaning vijdonan bajarishga beradigan tantanali va'dasi. Qasamyod matni quyidagicha belgilangan: "O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklangan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman". Qasamyod Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida qilinadi.

PREZIDENTLIK BOSHQARUVI — favqulodda holatlar joriy etilganda davlat boshqaruvida qo'llaniladigan vaqtinchalik boshqaruv shakli bo'lib, u asosan, federativ tuzilishdagi davlat boshqaruvida qo'llaniladi. U subyektlar federal Konstitutsiya yoki qonunlarni, hukumatning qonuniy talablarini buzganda, inson huquqlari poymol etilganda,

jiddiy tartibsizliklar ro'y berganda yoki federativ davlatning yagonaligiga xavf solinganda amalga oshiriladi. Prezidentlik boshqaruvi davlat boshlig'ining maxsus farmoni (dekreti) bilan e'lon qilinadi. Unda konstitutsiya va qonunlarni buzuvchilar aybdor sifatida javobgarlikka tortiladi, noqonuniy harakat qilgan davlat organlari rahbarlari lavozimidan olinib, o'rniga markaziy davlat apparatidan vakillar tayinlanadi, parlament-vakillik organi vaqtinchalik tarqatib yuboriladi.

PREZIDENTLIK RESPUBLIKASI — davlat boshqaruvi respublika shaklining turlaridan biri bo'lib, qoida bo'yicha Prezident xalq tomonidan saylanadi. Unda Prezident yuridik va rasman davlat hamda ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanadi. Hozirgi jahon tajribasida Prezidentlik respublikasining bir qancha ko'rinishlari mavjud. Prezidentlik respublikasining klassik modeliga ko'ra (AQShda) prezident o'z ma'muriyatini parlamentning yuqori (senat) palatasi roziligisiz tashkil etadi. Uning a'zolari faqat prezident oldida siyosiy javobgar hisoblanadilar. Bunda prezident parlamentni tarqatib yubora olmaydi. Lekin parlament prezidentga impichment berishi mumkin. BMTga a'zo davlatlarning ko'pchiligida prezidentlik lavozimi mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi prezidentlik respublikasidir.

PREZIDENTNING VAZIFASI — Prezident bajarishi, hal qilishi kerak masalalar doirasi. Konstitutsiyada ba'zi vazifalarni albatta qilishi ko'rsatilgan bo'lsa ayrim masalalarni hal qilish, bajarish Prezidentning o'ziga havola qilinadi. Masalan, diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qilish, tegishli sudlarni sudyalarini lavozimi tayinlash va ozod etish vazifasi albatta

bajarish kerak bo'lgan vazifalardan bo'lsa, fuqarolikka va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal qilish vazifasini o'zi xohlagancha bajaradi.

PREZIDENTNING LAVOZIMGA KIRISHI — yangi saylangan Prezidentni rasman vazifasini bajarishga kirishi. Prezident Oliy Majlis yig'ilishida (palatalar qo'shma majlisida) qasamyod qabul qilgan vaqtdan boshlab o'z lavozimiga kirishgan hisoblanadi (108-modda).

PREZIDENTNING ISTE'FOGA CHIQISHI — Prezident vakolat muddati tugagach iste'foga chiqadi va umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi. Konstitutsiyada Prezident o'z vazifalarini bajara olmagan paytda Prezident vazifasini vaqtincha boshqaruvchi zimmasiga yuklanish holati belgilangan. Qarang: Vaqtincha Prezident vazifasini bajarish.

PROKURATURA — qonun va boshqa huquqiy hujjatlarning hamma yerda bir xilda bajarilishini nazorat qiluvchi maxsus davlat organi. O'zbekistonda prokuratura tizimini Bosh prokuror boshqaradi. Prokuraturaning quyi tuzilmalari ma'muriy-hududiy tuzilishlarda, viloyatlarda, tumanlarda va shaharlarda tuziladi. Shuningdek, sohalar bo'yicha ham prokuraturalar tuzilishi mumkin. Masalan: Transport prokuraturasi. Prokuratura markazlashgan va yakka boshchilik tartibida ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlariga nazorat vazifasidan tashqari, tergov ishlarini olib borish, ular ustidan nazorat qilish vazifasi ham yuklangan. Ularning faoliyati prokuratura to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi.

PROPORSIONAL SAYLOV TIZIMI — Jahon saylov tajribasida uchraydi. Saylovchilar aniq nomzodga emas, partiyalar tomonidan taqdim qilingan ro'yxatga (aniqrog'i

partiyaga) ovoz beradi. Saylov natijalari aniqlanganda, partiya ro'yxatlari uchun berilgan ovozlar soniga qarab deputat o'rinlari ajratiladi. Ma'lum foiz ovoz to'play olmagan partiyalarga deputatlik o'rni berilmaydi. Ovozlar chegarasi har xil foiz qilib belgilanishi mumkin. O'zbekistonda 2024-yil 27-oktyabrda bo'lib o'tadigan saylovlardan boshlab Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga 75 ta deputat proporsional saylovlarda saylanadigan bo'ldi.

PUL — KREDIT TIZIMI – O'zbekiston Respublikasi o'z moliya, pul-kredit tizimiga ega. Pul kredit tizimi mamlakatimizda pul muomalasini va kredit berish tartiblarini belgilash va tashkil qilishdagi shakl va usullarni huquqiy normalar bilan tartibga solishdir. Pul tizimi rasmiy pul birligini, turli qiymatli pul belgilarini, ularni muomalaga chiqarish tartibi va ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Q

QONUN — mamlakat miqyosida oliy yuridik kuchga ega hujjat. Qonun mamlakatning oliy vakillik organi - O'zbekistonda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan birgalikda qabul qilinadi. Qonunlar umumxalq ovozi - referendum yo'li bilan ham qabul qilinishi mumkin. Qonunlar muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun qabul qilinadi. Qonunlar - konstitutsiyaviy qonunlar va oddiy qonunlar shaklida qabul qilinishi mumkin. Qonun qabul qilishning aniq jarayon va tartiblari belgilangan. (Qarang: Qonunchilik).

QONUN LOYIHASINI KIRITISH — Qonun loyihasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlar tomonidan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritiladi. Loyiha palata devonida ro'yxatga olingan kundan Qonunchilik

palatasiga kiritilgan hisoblanadi. Loyiha palata Spikeri tomonidan mas'ul qo'mitaga topshiriladi. Mas'ul qo'mita loyihani konstitutsiya va qonunlari talablariga masalani aniqlaydi va talabga javob bersa Qonunchilik palatasi Kengashi muhokamasiga kiritadi.

QONUN LOYIHASINI MUHOKAMA QILISH — Qonunchilik palatasi Kengashi loyihani ko'rib chiqib ma'qul deb topsa, ko'rib chiqish uchun qabul qiladi yoki qaytaradi. Ko'rib chiqishga qabul qilingan qonun loyihasi qo'mitalarda muhokama qilinadi va palata muhokamasiga kiritiladi. Qonun loyihasini muhokamasida partiya fraksiyalari ishtirok etishi mumkin. Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalariga daxldor qonun loyihalari umumxalq muhokamasiga kiritiladi. Palatalarda loyiha bir necha o'qishda muhokamadan o'tadi.

QONUN LOYIHASI — qabul qilinishi taklif etilayotgan qonunning matni bo'lib, qonun chiqaruvchi organ muhokamasiga kiritish uchun tayyorlangan bo'ladi. Qonun loyihasi tayyorlash jarayoni - loyihani tayyorlash to'g'risida qaror qabul qilish, uning matnini ishlab chiqish, dastlabki loyihani muhokama qilish va oxiriga yetkazish, uning barcha manfaatdor organlar va tashkilotlar tomoni dan ma'qullanishi bosqichlarini o'z ichiga oladi. Qonun loyihasi tayyorlash nihoyasiga yetganidan so'ng qonunchilik tashabbusi tartibida qonun chiqaruvchi organga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

QONUNIYLIK — Konstitutsiya va barcha qonunlarga hamda ular asosida va ularni amalga oshirish uchun chiqarilgan, ularga zid bo'lmagan hujjatlarga hamma davlat va jamoat organlarining, mansabdor shaxslarning, fuqarolarning og'ishmay amal qilishidir. Qonuniylik demokratik va

huquqiy davlatning ajralmas belgisi, elementidir.

QONUNCHILIK — mavjud barcha qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlarning yig'indisidir. Qonunchilik - qonun yaratishdir.

QONUNCHILIK JARAYONI — qonunlarni yaratish bo'yicha qonun chiqaruvchi organ faoliyatining tartibi bo'lib, odatda u Konstitutsiya va tegishli vakillik organining reglamentida mustahkamlanadi. Qonunchilik jarayoni uchun aniq yuridik reglamentatsiyaning bo'lishi xarakterlidir. O'zbekiston Respublikasida qonunchilik jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat. Birinchi - qonun loyihasini kiritish - qonunchilik tashabbusi, ikkinchi - Qonunchilik palatasida uning qo'mitalarida qonun loyihasini muhokama qilish, uchinchi - Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qonunning qabul qilinishi, to'rtinchi - Qonunchilik palatasi qabul qilingan qonunni Senatda ko'rib chiqilishi, beshinchi - qonunning Prezident tomonidan imzolanishi va e'lon qilinishi.

QONUNCHILIK ORGANLARI — davlat vakillik kollegial muassasalari bo'lib, Konstitutsiyada ularga davlatning asosiy funksiyalaridan - qonunchilik hokimiyatini amalga oshirish yuklatiladi. Bundan tashqari, qonunchilik organlariga odatda davlat budjetini tasdiqlash, ijro hokimiyati organlari ustidan nazorat qilish, shuningdek, muayyan doiradagi yuqori mansabdor shaxslarni (sudlar, ombudsman) saylash, xalqaro bitim va shartnomalarni ratifikatsiya hamda denonsatsiya qilish huquqlari berilgan. O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlis - qonunchilik organi hisoblanadi.

QONUNCHILIK TASHABBUSI HUQUQI — Qonunchilik muassasasiga (Parlamentga) belgilangan tartibda qonun loyihasini taqdim etish. Zamonaviy davlatlarda qonunchilik

tashabbusi huquqiga, odatda, parlament deputatlari, parlament qo'mitalari, hukumat, davlat boshlig'i va umum-milliy kompetensiyali alohida idoralar egadirlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga ko'ra qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasiga ega. O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Bosh prokurori ham o'z vakolatlari jumlasidagi masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

O'zbekistonning saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, Oliy Majlis Senati, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritishi mumkin.

QONUNCHILIK HOKIMIYATI — hokimiyat bo'linishi prinsipi va nazariyasiga muvofiq davlatning uch hokimiyat tarmog'idan biri. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 91-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

QONUN QABUL QILISH — Qonun loyihasi Qonunchilik palatasida qoida tariqasida uch o'qishda ko'rib chiqiladi va deputatlar umumiy sonining ko'pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi. Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilishda, deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismi talab qilinadi.

Qonunchilik palatasida qabul qilingan qonun qabul qilingan

kundan e'tiboran o'n kun ichida Oliy Majlis Senatiga yuboriladi. Senat qonunni oltmish kun ichida ko'rib chiqib ma'qullaydi yoki Qonunchilik palatasiga qaytaradi. Qonun Senat tomonidan ma'qullansa o'n kun ichida Prezidentga imzolash va e'lon qilish uchun yuboradi. Senat oltmish kun ichida qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilmasa, u qonun ma'qullangan hisoblanadi va imzolash uchun Prezidentga yuboriladi. Senat qonunni ma'qullamay Qonunchilik palatasiga qaytarsa, Qonunchilik palatasi qonunni Senat e'tirozlari bilan kelishib qabul qilishi yoki avvalgi holda qabul qilishi mumkin. Bunda Palata deputatlarining uchdan ikki qismi ovozi talab etiladi. Qonunchilik palatasi Deputatlar sonining uchdan ikki ovozi bilan qabul qilingan qonun endi imzolash va e'lon qilish uchun Prezidentga yuboriladi va shu qonun Oliy Majlisda qabul qilingan hisoblanadi. Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan kelishmovchilikni hal qilish uchun palatalar kelishuv komissiyasi tuzishi mumkin. Qarang: Kelishuv komissiyasi.

QONUNNI IMZOLASH VA E'LON QILISH — Qonunchilik palatasida qabul qilingan Qonunni Senat ma'qullasa, o'n kunlik muddatda imzolash va e'lon qilish uchun Prezidentga yuboradi. Qonun Prezident tomonidan oltmish kun ichida imzolanib e'lon qilinadi.

QONUNNI IMZOLAMAY QAYTARISH (QONUNNI RAD ETISH) — Qonun holatlari bilan kelishmasa, Prezident o'z e'tirozlari bilan qonunni Oliy Majlisga qaytarish huquqiga ega. Bunday holda palatalar Prezident e'tirozlarini hisobga olib qonunni qayta qabul qiladi yoki avvalgi qabul qilingan tahrirda qabul qiladi. Avvalgi qabul qilingan tahrirda qonun qabul qilish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat

a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovoz talab etiladi.

QONUNNI KUCHGA KIRISHI — Prezident tomonidan rasmiy nashrlarda e'lon qilingan qonunda, qonunni kuchga kirish muddati va shartlari ko'rsatilmagan bo'lsa, qonun e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

QONUN OLDIDA TENGLIK — barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

QONUNCHILIK PALATASI — Oliy Majlisning quyi palatasi u doimiy ishlovchi organ Qonunga muvofiq saylanadigan 150 deputatdan iborat.

QONUNCHILIK PALATASINING VAKOLATLARI — Konstitutsiyada belgilangan bo'lib, ular Senat bilan birgalikda vakolatlar va mutloq vakolatlarga bo'linadi. Mutloq vakolatlar faqat Qonunchilik palatasi tomonidan uning majlislarida amalga oshiriladi (94-modda).

QONUNCHILIK PALATASINING KENGASHI — Palata faoliyatini samarali tashkil etish, qo'mitalar ishini rejalashtirish masalalarini dastlab ko'rib chiqish ishini tashkil qilish maqsadida tuziladigan organ. Kengash tarkibiga palata Spikeri, uning o'rinbosarlari, qo'mita rahbarlari, fraksiya va deputatlar guruhi rahbarlari kiradi.

QONUNCHILIK PALATASINING SPIKERI — Qonunchilik palatasi o'z tarkibidan, vakolat muddatiga yashirin ovoz berish yo'li bilan Spikerini saylab oladi. Spiker deputatlar umumiy sonining ko'pchiligi ovozi bilan saylanadi. Deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ini ovozi bilan muddatdan oldin chaqirib olishi mumkin.

Spiker palata majlisini chaqiradi va unga rahbarlik qiladi, palata majlislariga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga rahbarlik qiladi, qo'mita va komissiyalar faoliyatini va boshqa (qonunda ko'rsatilgan) vazifalarni bajaradi (100-modda).

QONUNCHILIK PALATASINING SPIKERINING O'RINBOSARI — o'rinbosarlar saylash va lavozimdan chaqirib olish tartibi aynan Spikerni saylash va chaqirib olishga o'xshaydi. O'rinbosarlar Spikerga vazifasini bajarishda yordam beradi, uni topshiriqlarini bajaradi. Ular o'rtasida vazifalar taqsimlanadi.

palatasi Spikerini birinchi o'rinbosari ham mavjud.

QONUNCHILIK PALATASINING QO'MITA VA KOMISSIYALARI — Qarang: Parlament qo'mita va komissiyalari.

QONUNCHILIK PALATASI FAOLIYATINING TASHKILiy SHAKLI — uni sessiyalari davrida o'tkaziladigan majlislaridir. Qonunchilik palatasi birinchi majlisni saylovdan so'ng ikki oydan kechiktirilmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi va uni MSK raisi ochadi va Spiker saylanguncha majlisga raislik qiladi. Qolgan majlislar sessiya davrida o'tkaziladi. Qonunda belgilangan hollarda va Senat bilan kelishgan hollarda qo'shma majlis o'tkaziladi. **Qarang: palatalarning qo'shma majlisi.**

QONUNCHILIK PALATASINING SESSIYASI — Q.p. o'z vakolatini amalga oshirish uchun faoliyatini tashkil qiladigan davr. Navbatdagi sessiyalar qoida tariqasida sentabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi (davom etadi).

QONUNCHILIK PALATASI QABUL QILADIGAN

HUJJATLAR — Qonunchilik palatasi Qonun qabul qiladi va qonun qabul qilish talab etilmaydigan masalalar yuzasidan qaror qabul qiladi. Senat bilan birgalikdagi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qabul qilgan qarorini Senatga yuboradi.

QISHLOQ — O‘zbekistonni ma‘muriy-hududiy tuzilishini eng quyi bo‘g‘ini. Qishloqlar shaharlardan tashqarida joylashadi va asosan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi aholi yashash joyi hisoblanadi. Qishloqlar tuman tarkibiga kiradi.

QONUNCHILIK PALATASI VA SENAT MAJLISIDA ISHTIROK ETUVCHILAR — Ularning majlislarida, shuningdek, ularning organlari (qo‘mita, komissiya) majlislarida O‘zbekiston Prezidenti, Bosh vazir, VM a‘zolari, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi raislari, Bosh prokuror, Markaziy bank boshqaruvi raisi ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat raisi, Senat va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin (98-modda).

QONUNCHILIK TASHABBUSI HUQUQI — Kimlar bunday huquqqa egaligi Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan. 98-moddaga asosan: Bunday huquqqa, O‘zbekiston Prezidenti, davlat hokimiyatini oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi ega. Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Bosh prokuror xam o‘z vakolatlari jumlasiga kiruvchi masalalar bo‘yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Bu xuquq, yuqoridagi subyektlar tomonidan qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi. Bu yerda qonun loyihasi kiritilishi nazarda tutilgan.

Saylov huquqiga ega bo'lgan yuz ming nafardan kam bo'lmagan O'zbekiston fuqarolari, Senat, Ombudsman, Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarining qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritishiga haqli.

Birinchi holatdagi subyektlar loyixa kiritadi, ikkinchi holatdagi subyektlar esa taklif kiritadi.

QONUNLARNI IMZOLASH, QAYTARISH VA E'LON QILISH — Konstitutsiyaning 109-moddasi, 17 bandiga asosan qonunlar O'zbekiston Prezidenti tomonidan imzolanadi va e'lon qilinadi. Prezident qonuni o'z e'tirozlari bilan takroran muhokama qilish uchun va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli. Qonun 60 kun ichida imzolanib, e'lon qilinadi. Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahrirda Senat va Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismi ovozi bilan ma'qullansa, Prezident 14 kun ichida qonunni imzolab e'lon qilishi kerak (Qon 99-modda).

QONUNNI KUCHGA KIRISHI — Qonun Prezident tomonidagi imzolangach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy manbalarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi.

QONUN USTUVORLIGI — Qonuniylik prinsipini amal qilishidagi muhim omil. Qonun ustuvorligi boshqa huquqiy hujjatlar: farmon, qaror va boshqa qonun osti hujjatlarga nisbatan qonunni yuqori kuchga ega ekanligida ko'rinadi. Qonun va boshqa qonun osti hujjatlari normalari o'rtasida qarama-qarshilik bo'lsa, qonun normalari amal qiladi.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI -O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren respublika. U o'z konstitutsiyasiga, fuqaroligiga, hududiga, Oliy hokimiyat organlariga ega. Q.R. hududi va chegaralari uning rozilgisiz

o'zgartirilmaydi. O'zining ma'muriy-hududiy tuzilishini o'zi mustaqil hal qiladi. Oliy Majlis Senatida va Vazirlar Mahkamasida doimiy vakillariga ega. Q.R. O'zbekiston munosabatlari O'zbekiston Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi. Q.R. xalqining umumiy referendumida asosida O'zbekiston tarkibidan ajralib chiqishi mumkin. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'rtasida nizolar kelib chiqsa murosaga keltiruvchi vositalar bilan hal etiladi (XVII bob, 86-90 moddalar).

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI JO'QORG'I

KENGESI — Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. J.K. hududiy saylov okruglar bo'yicha ko'p partiyalilik asosida besh yil muddatga saylanadigan deputatlardan iborat.

QO'MITA — tegishli soha ichidagi tarmoq faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi hamda tizimdagi rahbariy faoliyatni kollegial asosda tashkil etadigan, shuningdek, vazirlikning tashkiliy bo'ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi. Oliy Majlis palatalari yordamchi organ sifatida vakolat muddatiga deputat va senatorlardan turli sohalar bo'yicha qo'mitalar tuzadi.

R

RATIFIKATSIYA — Xalqaro shartnomalarni shu shartnoma ishtirokchilari bo'lgan davlat tomonidan tasdiqlash. Shartnoma ratifikatsiya qilingach kuchga kiradi. O'zbekistonda xalqaro shartnomalar Oliy Majlis tomonidan ratifikatsiya qilinadi (93-modda, 3-band).

REGLAMENT — fransuzcha «reglement» so'zidan olingan

bo'lib, «qoida» ma'nosini bildiradi, turli ma'nolarda ishlatiladi. 1) vakillik organlarining majlis, yig'ilish, sessiya va syezdlar o'tkazish tartibi; 2) parlament yoki uning palatalarining faoliyat shaklini va ichki tartibini tartibga soladigan hamda deputatning huquqiy holatini belgilaydigan (doimiy yoki vaqtinchalik) qoidalar to'plami (yig'indisi). Ushbu qoidalar parlament yoki palatalar tomonidan konstitutsiya, konstitutsiyaviy yoki boshqa qonunlarning prinsiplari va boshqa qoidalariga mos holda qabul qilinadi. Parlamentda reglamentga amal qilinishini nazorat qiluvchi qo'mita tuzilishi mumkin; 3) hukumat ishining ichki tashkil etilishi va tarkibini tartibga soladigan qoidalar majmui va boshqalar.

RESPUBLIKA — lotincha «respublika» so'zidan olingan bo'lib, «res» ish, «publisus» jamiyat, ijtimoiy degan ma'noni anglatadi davlat boshqaruvining respublika shaklini quyidagi turlari mavjud: 1) prezidentlik respublikasi (AQSh, Meksika), bunda Prezident umumxalq yoki saylovchi vakillari tomonidan saylanib, bir vaqtning o'zida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanadi; 2) parlamentar respublika (Italiya, GFR, Vengriya) bunda parlament to'liq hokimiyatga ega bo'lib, uning oldida hukumat siyosiy javobgar hisoblanadi. Prezidentni parlament saylaydi. Bunda Prezident faqat davlat boshlig'i bo'lib, ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanmaydi; 3) aralash tipdagi respublika (yarim prezidentlik) bunda Prezidentlik respublikasi bilan parlamentar respublika xususiyatlari qo'shib ketadi. Ya'ni Prezident umumxalq saylovlarida saylanib, yuridik va real keng vakolatlarga ega bo'ladi. Hukumat nafaqat Prezident oldida, balki parlament oldida ham siyosiy javobgar bo'ladi. Hukumatga Bosh vazir rahbarlik qiladi. Prezident ma'lum

holatlar yuz berganda parlamentni tarqatib yuborish huquqiga ega.

REFERENDUM — eng muhim masalalarni xalqning bevosita ishtirokida hal qilish. Referendum umumxalq ovozi hisoblanadi (9-modda). U mamlakat hayotidagi muhim masalalarni hal qilish, qonunlar qabul qilish uchun o'tkaziladi. Referendum kuni, unda hal qilinadigan masalalar Oliy Majlis tomonidan belgilanadi. Referendumda byulletenga savollar yozilgan bo'lib, fuqarolar ularga nisbatan o'z munosabatlarini bildiradilar. Referendumda ovoz berish yashirin o'tkaziladi. O'zbekistonda o'tkazilgan Referendum natijasida Prezidentning vakolati uzaytirilgan, ikki palatali parlament tashkil qilingan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilingan. Referendum xalqning jamiyat va davlat ishlarida ishtirokini ta'minlovchi muhim vosita. Uni o'tkazish tartiblari maxsus qonun bilan belgilangan.

S

SAYLOV — ma'lum bir davlat organlarini shakllantirish usuli. Saylov umumxalq saylovlari (vakillik organlariga, Prezidentlikka saylov) yoki biron bir organ (Senatorlarni saylash, sudyalarni saylash, vakillik organlarini rahbar va yordamchi organlarini saylash) miqyosida bo'ladi. Saylovlar ochiq yoki yashirin o'tkazilishi mumkin. Bu qonunlarda belgilanib qo'yiladi. Har qanday holatda ham saylov ovoz berish, va ularning natijasini aniqlashdir. Har bir saylovga alohida tayyorgarlik ko'riladi.

Saylovlarni o'tkazish muddatlari, tartiblari Konstitutsiyada, qonunlarda belgilab qo'yiladi. Masalan, O'zbekiston Konstitutsiyasida Prezident saylovi, vakillik organlariga saylov shu organlarning vakolat muddati

tugaydigan yilda oktyabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkazilishi belgilangan. Saylovlar maxsus organlar saylov komissiyalari tomonidan o'tkaziladi. O'zbekistonda saylovlar jahon miqyosida umum e'tirof etilgan umumiy, teng, to'g'ri prinsip asosida yashirin ovoz berish orqali erkin va ixtiyoriylik asosida o'tkaziladi. Mamlakatda o'tkaziladigan saylovlar mamlakatni xarakterini ko'rsatadi, unga jahon hamjamiyati baho beradi. Saylov fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarish huquqini amalga oshiruvchi, muhim vositalardan biridir. Saylov orqali fuqarolar jamiyat va davlat ishlarida bevosita ishtirok etadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlashga haqli ekanligi belgilangan.

SAYLOV KAMPANIYASI (SAYLOV O'TKAZISH TADBIRLARI) — fransuzcha «campagne» so'zidan olingan bo'lib, «saylov o'tkazish tadbirlari» ma'nosini bildiradi. Siyosiy partiyalar saylovlarda saylovchilarning ko'proq miqdorda ovozlarini olish uchun o'tkazadigan saylov oldi tashviqot tadbirlari saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilishgandan so'ng amalga oshiriladi. Saylov kampaniyasida, shuning bilan birgalikda, turli qo'llab-quvvatlovchi guruhlar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar ishtirok etadi. Saylov kampaniyasida tashviqot qilishning asosiy shakllari bu saylovchilarning yig'ilishlari va mitinglar o'tkazish, gazeta va jurnallarda maqolalar chop etish, saylovoldi afishalari va plakatlarini yopishtirish, radio va televideniya chiqishlar qilish va boshqalardan iborat. Saylov kampaniyasida saylovoldi tashviqoti saylov qonunlariga

asosan nomzod ro'yxatga olingandan boshlanadi. Saylov kampaniyasini boshlanganligi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan, saylovdan kamida uch oy avval e'lon qilinadi.

SAYLOV KVOTASI — deputatning hamda boshqa saylanuvchilarning saylanishi uchun zarur bo'lgan eng kam ovozlar soni. Saylov kvotasi har bir saylov okrugi uchun alohida aniqlanishi yoki butun mamlakat uchun belgilanishi mumkin. O'zbekistonda har bir okrugdagi ro'yxatga olingan saylovchilarning o'ttiz uch foizi saylovda ishtirok etib, shu saylovchilarning nisbiy ko'pining ovozini olgan deputat saylangan hisoblanadi.

SAYLOV KOMISSIYALARI — saylovlarni tashkil etuvchi maxsus kollegial organ. Saylov komissiyalarining tizimi, tashkil topish tartibi va vakolatlari saylovlar to'g'risidagi qonunlar bilan belgilanadi. O'zbekistonda saylov komissiyalari tizimiga: Markaziy saylov komissiyasi, hududiy saylov komissiyalari, tuman va shahar saylov komissiyalari, okrug saylov komissiyalari va uchastka saylov komissiyalari kiradi. Markaziy saylov komissiyasi mazkur tizimga boshchilik qiladi (129-modda). O'zbekiston Markaziy saylov komissiyasi doimiy ishlovchi organ. Okrug va uchastka saylov komissiyalari faqat saylov o'tkazish uchun tuziladi va saylov tugagach, faoliyati to'xtaydi. Viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalari, keyingi saylovgacha faoliyat ko'rsatadi.

SAYLOV KORPUSI — qonunga asosan (aktiv saylov huquqi) ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar yig'indisi (yuridik saylov korpusi) yoki real ovoz beruvchi fuqarolar yig'indisi (amaliy jihatdan saylov korpusi).

SAYLOV OKRUGLARI — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

saylovini o'tkazishda O'zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish uchun yetmish beshta hududiy bir mandatli saylov okrugi tuziladi.

Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxati (bundan buyon matnda partiya ro'yxati deb yuritiladi) asosida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi.

SAYLOV OLDI TASHVIQOTI — Saylovlarda aniq nomzodlarni saylovda g'olib bo'lishini ta'minlash vositasi. Saylov oldi tashviqoti to'g'ri tashkil qilish qilinishi ko'p jihatdan saylov ishtirokchilariga bir xil, teng sharoit yaratilishiga bog'liq. Shu munosabat bilan mamlakatimiz saylov qonunchiligiga saylov oldi tashviqoti bo'yicha jiddiy o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Qonunda saylov oldi tashviqoti tushunchasi aniqlashtirilib, tashviqotga bog'liq to'rtta yangi modda kiritildi. Amaldagi qonunchilikka asosan saylov oldi tashviqoti saylov kuni va ovoz berish boshlanishiga bir kun qolganda to'xtatiladi.

SAYLOV ORGANLARI — Qarang: Saylov komissiyalari.

SAYLOV TIZIMI — saylov o'tkazish tartiblarining hamda ularni o'rnatuvchi huquqiy normalarning yig'indisi hisoblanadi. U o'z ichiga saylovni o'tkazuvchi barcha huquqiy hujjatlar, saylov tizimi tamoyillari, fuqarolarning barcha saylov huquqlarini oladi. Saylov tizimi atamasi proporsional va majoritar o'tkazish tartibiga ham qo'llaniladi. (majoritar tizim, proporsional tizim).

SAYLOV UCHASTKALARI — Saylovchilardan ovoz qabul qilib olish va dastlabki ovoz berish natijasini aniqlash

maqsadida tuziladigan saylov birligi. S.u. okrug saylov komissiyasi tomonidan kamida 20 nafar ko'pi bilan 3 ming saylovchidan iborat tarkibda tuziladi. Xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarda, sanatoriy va dam olish uylarida, kasalxona va boshqa statsionar davolash muassasalarida, olis va borish qiyin bo'lgan fuqarolar turgan joylarda ham saylov uchastkalari tuzilishi mumkin. Saylov uchastkalariga hokimiyat organlari binolar ajratadi. Saylov uchastkalari saylovchilarga qulay sharoitlar yaratishni maqsad qilib qo'yadi.

SAYLOV SENZLARI (SAYLOVDA CHEGARALASH SHARTLARI) — konstitutsiya yoki saylov to'g'risidagi qonunlarda saylov huquqlarini olish yoki amalga oshirish uchun o'rnatilgan shartlar. Turli davlatlar konstitutsiyaviy tajribasida saylov senzlarining quyidagi turlari mavjud bo'lgan: yoshi, fuqaroligi, mulkiy, bilim, jinsi, irqi, xizmati, tiliga qarab shartlar belgilanadi. Bu cheklash shartlarining ba'zilar mulkiy, jinsiy, irqiy kabilar demokratik prinsiplarga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Boshqalari har bir davlatning saylov to'g'risidagi qonunlarida belgilangan doirada amalda mavjuddir. Masalan, saylash huquqi 18 yoshdan, saylanish huquqi nomzodning qaysi organga saylanishiga qarab turli yosh belgilanishi mumkin. O'zbekistonda yosh senzi mavjud.

Qarang: Passiv saylov huquqi.

SAYLOV HUQUQI — ikki ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, saylovni tashkil qilish va o'tkazishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar yig'indisi; ikkinchidan fuqarolarning saylov huquqlari, ya'ni ovoz berish, saylanish, saylov davrida boshqa tadbirlarda, nomzodlar bilan uchrashish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish huquqlari.

Saylov huquqi Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilanadi.

SAYLOVCHI — saylab qo'yiladigan davlat va jamoat organlaridagi lavozimlarga va vakillik organlari deputatligiga o'tkaziladigan saylovlarda ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxs. Saylov kuniga qadar yoki saylov kunida 18 yoshga to'ladigan, tegishli saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilib turgan fuqarolar saylovchilar hisoblanadi. Har bir saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. Biror bir sababga ko'ra, saylovchilar ro'yxatiga vaqtda kirmay qolgan saylovchi uning shaxsi, fuqaroligi va turar joyini tasdiqlovchi hujjatga asosan uchastka saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga kiritiladi. Saylovchi ovoziga qo'yilgan qarorlarni (referendumda) nomzodlarni (saylovda) yoqlab yoki ularga qarshi tashviqot yuritish huquqiga egadir.

SAYLOVCHILARNING RO'YXATINI TUZISH — fuqaroning saylovda ishtirok etish huquqini tasdiqlash tartibi; bu ish tegishli organlar uchastka saylov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Saylovchilarni ro'yxatga olishning ahamiyati shundaki, uning natijasida saylov paytida ovoz berish huquqiga ega fuqaroning shaxsini aniqlash va faqat shu shaxs saylov byulletenini to'ldirib, saylov qutisiga tashlash imkoniyati vujudga keladi. Saylov kuniga qadar yoki saylov kunida 18 yoshga to'lgan, ro'yxat tuzilayotgan vaqtda mazkur saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining familiyalari saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. Ro'yxatda har bir saylovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi va manzili ko'rsatiladi.

SENZURA — bosmadan chiqariladigan va chiqarilgan

mahsulotning mazmuni, uning chop etilishi va tarqatilishi ustidan, shuningdek, sahna asarlari, radio eshittirishlar va televizion ko'rsatuvlar, ba'zida esa shaxsiy yozishmalarning mazmuni hamda ijrosi ustidan rasmiy hokimiyat idoralarining nazorat olib borishi. Bundan maqsad o'sha hokimiyat idoralari tomonidan ziyon yetkazuvchi yoki noma'qul deb hisoblangan g'oyalar va ma'lumotlar (davlat va jamiyat manfaatlariga zid) tarqatilishini taqiqlash yoki cheklashdan iborat. Ko'plab zamonaviy konstitutsiyalarda axborot erkinligi e'tirof etilib, senzura to'g'ridan-to'g'ri taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 82-moddasiga ko'ra O'zbekistonda senzura yo'l qo'yilmaydi.

SENAT — Parlament palatalarning (odatda yuqori palataning) nomi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning yuqori palatasi ham Senat deb nomlangan. Oliy Majlis Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib Senat a'zolaridan (Senatorlardan) iborat. Demak, Senat a'zolari va Senator bir ma'noni bildiradi.

SENAT KENGASHI — Senat faoliyatini samarali tashkil qilish, palata qo'mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, kun tartibi bo'yicha takliflar tayyorlash, qonunlarni dastlab ko'rib chiqish uchun tuziladigan organ. Uning tarkibiga Rais, uning o'rinbosarlari va qo'mita raislari kiradi.

SENAT MAJLISLARI — Qarang: Senat faoliyatining tashkiliy shakli.

SENAT RAISI — Oliy Majlis Senati o'z tarkibidan Prezident taklifiga ko'ra Senat Raisini saylaydi. Rais yashirin ovoz berish yo'li bilan, Senatni vakolat muddatiga Senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi. Senat Raisi yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining

uchdan ikki qismi ovozi bilan lavozimdan chaqirib olinishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Senatning Raisi bo'lishi mumkin emas.

Rais Senat faoliyatini tashkil qiladi ya'ni, Senat majlislarini chaqiradi va unga raislik qiladi, qo'mita va komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, Senat muhokamasiga kiritilgan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi va boshqa tashkiliy ishlarni amalga oshiradi. Prezident o'z vazifalarini bajara olmagan paytda vaqtincha Prezident vazifasini bajaradi.

SENAT RAISING O'RINBOSARLARI — Senat o'z tarkibidan Rais bilan birga uning o'rinbosarlarini saylaydi. O'rinbosarlar Raisga vazifasini bajarishda yordam beradi, uni topshiriqlarini bajaradi. Senat Raisi o'rinbosarlaridan biri albatta Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili bo'ladi. Rais o'rinbosarlari yashirin ovoz berish yo'li bilan senatorlar umumiy sonining ko'pchiligi ovoz bilan senat vakolat muddatiga saylanadi. Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari lavozimi ham mavjud.

SENAT FAOLIYATINING TASHKILIY SHAKLI —

Senat faoliyatining tashkiliy shakli uning majlisidir. Uning majlislari zaruratga qarab lekin bir yilda kamida uch marta o'tkaziladi. Senatni birinchi majlisi Senat tarkib topgandan keyin bir oydan kechiktirilmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi. Birinchi majlisni MSK Raisi ochib, rais va o'rinbosar saylanguncha majlisga raislik qiladi. Senatning navbatdan tashqari majlislari Prezident, Senat Raisi taklifiga binoan yoki Senat a'zolarining umumiy sonini kamida uchdan bir qismi taklifiga ko'ra chaqiriladi. Senat majlislarini Senat Raisi chaqiradi. Senat majlislarida senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etsa

majlis vakolatli hisoblanadi. Senat qonunda belgilangan hollarda shuningdek qonunchilik palatasi bilan kelishilgan holda qo'shma majlis o'tkazishi mumkin. Senat mutloq vakolatlarni faqat majlislarida hal qiladi.

SENAT QABUL QILADIGAN HUJJATLAR — Senat Qonunchilik palatasida qabul qilingan qonunni ma'qullaydi. O'z vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Qaror Senatorlar umumiy sonining ko'pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi.

SENATNI SHAKLLANTIRISH — turli mamlakatlarda Senat ya'ni parlamentning yuqori palatasi turli yo'llar bilan shakllantirilad¹. Oliy Majlis Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – to'rt kishidan saylanadi. Senatning to'qqiz nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan Prezident tomonidan tayinlanadi. Senat a'zosi bo'lib 25 yoshga to'lgan, kamida besh yil O'zbekistonda muqim yashagan fuqarolar saylanishi va tayinlanishi mumkin.

SENATNING MUTLOQ VAKOLATLARI — faqat Senat hal qiladigan masalalar. Senat Oliy Majlisning tarkibida, uning bir palatasi sifatida mavjud bo'lib, qonunchilik palatasi bilan birga bajaradigan vazifalari bo'lsa-da, uni o'zi mustaqil hal qiladigan masalalar doirasi ham mavjud. Senatning mutloq

¹ Bundan keyin faqat Oliy Majlis Senati haqida gap ketadi.

vakolatlari faqat Qonunchilik palatasida qabul qilingan qonunlarni ma'qullash yoki rad etish bilan cheklanmaydi, Senat davlat qurilishi, ichki-tashqi siyosat sohasida ko'pgina vakolatlarga ega. Jumladan, Oliy sud, Konstitutsiyaviy sud raislari, o'rinbosarlari va sudyalari Prezident taqdimiga binoan Senat tomonidan saylanadi. Bosh prokuror, Davlat xavfsizlik xizmati raisi, Hisob palatasi raisini lavozimga tayinlash va ozod etishda ishtirok etadi. Senat Prezident taqdimi bo'yicha amnistiya haqida qaror qabul qiladi, chet davlatlar va xalqaro tashkilotlarga diplomatik vakillar tayinlaydi va boshqa vakolatlarga ega. Senatning mutloq vakolatlari Konstitutsiyaning 95-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

SENATOR (SENAT A'ZOSI) — Senator ma'muriy birliklardan teng miqdorda mahalliy Kengashi deputatlari orasidan saylangan Senatda faoliyat ko'rsatuvchi shaxs. Vakolat muddati besh yil. Senatorlarning bir qismi faqat Senatorlik faoliyati bilan shug'ullanadi, bir qismi senatorlik faoliyatini asosiy ish xizmati bilan qo'shib olib boradi. Senator bo'lib saylanish uchun ma'lum talablar qo'yiladi va ular daxlsizlik huquqidan foydalanadi.

SENATORNI (SENAT A'ZOSINI) CHAQIRIB OLIISH — Senatni vakolatini muddatidan avval tugatish. Senat a'zosini chaqirib olish uchun quyidagilar asos bo'ladi: qonun hujjatlarni javobgarlikka olib kelish mumkin bo'lgan darajada buzish, axloq, odobning umume'tirof etilgan normalarini qo'pol ravishda buzish hamda Senatorlik nomiga dog' tushiruvchi harakatlar, vakillik organini obro'siga putur yetkazuvchi nojo'ya ishlar sodir etish, o'z vazifasini muntazam ravishda uzrsiz bajarmaslik, vakillik organlari topshiriqlarini bajarmaslik. Senatni chaqirib olish zarurligi

haqidagi qaror Senat tomonidan qabul qilinadi va Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi. Senator mahalliy vakillik organi deputati sifatida chaqirib olinadi.

Qarang: Deputatni chaqirib olish.

SIYOSIY BOSHANA — o‘zlarining mamlakatlarida mavjud totalitar, nodemokratik tuzimga norozilik bildirish, ozodlik harakatlarida ishtirok etish orqali quvg‘inga uchragan chet el fuqarolariga boshqa mamlakatda yashashga ruxsat berish. O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham bu masala ko‘rsatilgan (109-modda, 22-band). Siyosiy boshpana siyosat bilan bog‘liq. Boshpana berish huquqi Prezidentga tegishli. Siyosiy boshpana berilgach, shaxs davlat himoyasida bo‘ladi.

SIYOSIY INSTITUTLAR — Siyosiy institutlar ijtimoiy, siyosiy hayotda ishtirok etuvchi tuzilmalardir. Siyosiy institutlar jamiyat va davlatni boshqarishda fuqarolar ishtirokini ta‘minlaydi, ularga keng imkoniyatlar yaratadi. Davlatning o‘zi, siyosiy partiyalar siyosiy institutlar tizimida alohida o‘rin tutadi. Mamlakatimizdagi barcha ma‘muriy hududiy tuzilishlar, ulardagi davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari siyosiy hayotda ishtirok etadi.

SIYOSIY PARTIYALAR — qarash va maqsadlari bir bo‘lgan turli tabaqa va guruhlardagi fuqarolarning siyosiy maqsadni ko‘zlab tuzgan birlashmalari tashkilotlaridir. Ular aniq a‘zolardan tuziladi. Siyosiy partiyalar saylovlarda ishtirok etib, tegishli organlarga o‘z vakillarini o‘tkazish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatida ishtirok etadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda beshta siyosiy partiya mavjud bo‘lib, bular O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O‘zbekiston liberal demokratik

partiyasi, O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi. Siyosiy partiyalar tegishli tartibda ro'yxatga olingach, faoliyatini amalga oshiradi. Ularning faoliyati Konstitutsiya va boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi.

SIYOSIY REJIM — jamiyatda siyosiy (davlat hokimiyati ham birgalikda) hokimiyatni amalga oshirishning usullari, uslublari, shakllari, yo'llari siyosiy tizimini bildiradi. Bu hokimiyatning funksional tavsifidir. Davlatchilik tarixida siyosiy rejim ikkita katta guruhga bo'linadi: demokratik va demokratiyaga zid rejimdagi siyosiy rejim. O'z navbatida, demokratiyaga zid rejim uchta totalitar, fashistik, avtokratik turlarga va demokratik rejim liberal-demokratik va asl demokratik rejimga bo'linadi.

SIYOSIY HUQUQLAR — fuqarolarning davlatni boshqarishda, davlat organlarini tuzishda va boshqa jamoat ishlarida ishtirok etishini ta'minlovchi huquqlardir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolarining siyosiy huquqlari Konstitutsiyaning VIII bobida berilgan. Siyosiy huquqlarga saylov huquqi, referendumda ishtirok etish, mitinglar, namoyishlar, yig'ilishlar o'tkazish, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, davlat organlariga murojaat etish huquqlari kiradi.

SOLIQ — jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan (daromadlardan) davlat budjetiga to'lanadigan to'lov. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Oliy Majlisi haqli (93-modda). Mahalliy soliqlar esa davlat hokimiyati mahalliy organlar tomonidan joriy qilinishi mumkin. Soliqlar davlat va mahalliy budjetni to'ldirishning asosiy manbai.

SOLIQ VA MAHALLIY YIG'IMLAR TO'LASH BURCHI —

fuqarolarning konstitutsiyaviy burchi (63-modda), bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlaridan biri. Barcha fuqarolar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majbur. Soliq va yig'implarni vaqtida to'lamaslik yoki to'lashdan butunlay bosh tortish, daromadlarni yashirish javobgarlik keltirib chiqaradi.

SOLIQ TIZIMI — mamlakatda ayni paytda mavjud bo'lgan, belgilangan tartibda soliqqa tortishning muhim shart-sharoitlari majmuidir (yig'indisi). Yana soliq tizimi bu tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy birlikka ega bo'lgan alohida soliqlar yig'indisidir.

SOG'LIQNI SAQLASH VA MALAKALI TIBBIY XIZMATDAN FOYDALANISH HUQUQI — har kim bu huquqdan foydalanadi. Fuqarolar tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan, ya'ni bepul olishga haqli.

Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil shakllarini rivojlantirish choralarini ko'radi; aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi (48-modda).

SUVERENITET — hokimiyatning oliyligi, mustaqilligi bo'lib, mamlakatning mustaqilligini bildiruvchi tushuncha. Konstitutsiyaviy huquqda davlat suvereniteti, millat suvereniteti, xalq suvereniteti tushunchalari ishlatiladi. Davlat suvereniteti hokimiyatning mamlakat ichida oliyligi va tashqi munosabatlarda to'la mustaqilligidir. Bunda hech qanday tashqi davlat davlat ishlariga ta'sir qila olmaydi. Millat suvereniteti millatlarning to'la hokimiyatini, ularning

to'la siyosiy erkinligini, o'z hayotini ixtiyoriy tashkil qila olishini, mustaqil davlatini tashkil qila olishini bildiradi. Xalq suvereniteti xalqning to'la hokimiyatini bildiradi, ya'ni xalq jamiyat va davlatni boshqarish imkoniyatini beradigan hamma iqtisodiy va siyosiy vositalarga ega bo'ladi.

SUD — odil sudlovni amalga oshiruvchi organ bo'lib, muayyan davlatning amaldagi qonunlariga asosan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa toifadagi ishlarni hal etadi. Sud oddiy va favqulodda sudlarga bo'linadi. Favqulodda sudlarni tashkil etish deyarli barcha davlatlar konstitutsiyasida man etilgan. Oddiy sudlar umumiy vakolatli va ixtisoslashtirilgan: ya'ni harbiy, iqtisodiy (arbitraj, savdo) bojxona, soliq, (moliyaviy), mehnat nizolari bo'yicha va boshqalar bo'lishi mumkin. Sudning alohida turlari Konstitutsiyaviy va ma'muriy sudlar hisoblanadi. Ba'zi mamlakatlarda hatto diniy sudlar (masalan, musulmon davlatlarida shariat sudlari Eron, Pokiston, Sudan va b.) mavjud.

SUD TIZIMI – hokimiyatning bo'linishi prinsipi natijasida vujudga kelgan va har qanday boshqa organlardan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan davlat hokimiyatining bir turidir. Sud hokimiyati sud organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekistonda sud hokimiyati Konstitutsiyaviy sud va odil sudlov organlari tomonidan amalga oshiriladi. Sud tizimi deb, qonun asosida tashkil qilinadigan va ish yuritadigan sud organlarining yig'indisiga aytiladi. Sudlar faqat qonunga bo'ysunadi. Ularni tashkil qilish tartibi, vazifalari Konstitutsiya va maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi.

SUD HOKIMIYATI — Konstitutsiya, davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipiga asosan hokimiyat tarmog'i bo'lib, u sud

organlari orqali amalga oshiriladi. Ular O'zbekistonda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudidan tashkil topadi. (qarang: Sud tizimi).

SUDYALAR OLIY KENGASHI — Sudyalar tartibini shakllantirish ishtirok etuvchi maxsus tuzilma. S.o.k. faoliyati orqali sud tartibini shakllantirishda boshqa hokimiyat tuzilmalari ishtiroki cheklanadi. O'zbekiston Prezidenti S.o.k. raisi va o'rinbosari Oliy Majlis Senatiga taqdim etadi va rais hamda o'rinbosar Senat tomonidan besh yillik muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Sudyalar oliy kengashining raisi, rais o'rinbosari etib saylanishi mumkin emas (135-modda).

T

TABIY HUQUQ — konstitutsiyaviy huquq nazariyasidagi tushuncha bo'lib, insonga tabiatning o'zi tomonidan in'om etilgan prinsiplar, qoidalar, huquqlar va qadriyatlar majmuini anglatadi. Tabiiy huquqning mavjud bo'lishi, bu uning biror bir davlat tomonidan qonuniy tan olinishi va ta'minlanishi-dir. Masalan, yashash huquqi tabiiy huquq va fuqaroning shaxsiy huquqi sifatida e'tirof etiladi.

TADBIRKORLIK ERKINLIGI — demokratik jamiyatda insonning asosiy konstitutsiyaviy iqtisodiy erkinliklaridan biri. Bu o'z ichiga tadbirkorlik uchun o'z qobiliyati va mulki baxsh etish, shuningdek, qonun bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanish huquqi, yerga egalik qilish, olingan foydani mustaqil taqsimlash huquqini oladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasi tadbirkorlik erkinligini huquqiy kafolatlaydi.

TAKRORIY OVOZ BERISH — Prezidentlikka saylovda ikkitadan ortiq nomzod ishtirok etib, ularning birontasi

belgilangan ovozni to'play olmasa, deputatlikka saylovda ikki nafardan ortiq nomzod, saylovda ishtirok etib birortasi yetarli ovoz to'play olmagan bo'lsa, eng ko'p ovoz olgan ikki nomzod bo'yicha takroriy ovoz berish tashkil qilinadi.

TAKRORIY SAYLOV — Prezidentlikka saylovda saylov o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilsa, shuningdek, saylovda bitta nomzod ishtirok etib, belgilangan ovozni to'play olmagan bo'lsa, deputatlikka saylovda saylov okrugida saylov o'tmagan bo'lsa, yoki haqiqiy emas deb topilsa, takroriy saylovda ham saylanganlikni aniqlash imkoniyati bo'lmasa, deputatlikka ko'pi bilan ikki nomzod qo'yilib ularning birortasi ham yetarli ovoz ololmagan bo'lsa takroriy saylov o'tkaziladi.

Takroriy ovoz berish, takroriy saylov Senatorlar saylashda ham qo'llaniladi.

TARIXIY, MA'NAVIY VA MADANIY MEROSNI AVAYLAB ASRASH BURCHI — Tarixiy, ma'naviy va madaniy meros xalqimizning uzoq yillik mehnati, aql-idroki, qobiliyati mahsulidir. Ular ham moddiy ham ma'naviy bo'lishi mumkin. Bu meros xalqimizning bosib o'tgan yo'lini ko'rsatadi va hozirgi hamda kelajak avlod uchun juda katta tarbiyaviy, axloqiy ahamiyatga ega. Agar ular davlat tomonidan asralmasa, bunga barchani majbur qilinmasa, uzoq vaqt saqlash qiyin. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent shaharlari tarixiy, ma'naviy va madaniy meros, yodgorlik, tarixiy obidalar eng ko'p saqlangan shaharlardir. Ularni asrash har bir fuqaroning burchidir (61-modda).

TENG VAKILLIK — saylov tizimi prinsipi bo'lib, unga ko'ra bitta vakillik organining deputati teng miqdordagi saylovchilar tomonidan saylanishi shart.

TENG SAYLOV HUQUQI — saylov huquqiga ega mamlakat

fuqarolarining saylovlarda teng ishtirok etishidir. Tenglik saylashda ham, saylanishda ham ta'minlanadi. Teng saylov huquqi har bir fuqaroning bitta ovozga egaligi bilan, hamma uchun bir xil vakillik normasi o'rnatilishi bilan ro'yobga chiqariladi. Bir saylovchining bir saylov uchastkasida ro'yxatga olinishi va shu yerdagina ovoz berishi mumkinligining o'rnatilishi teng saylov huquqini kafolatlaydi. Siyosiy partiyalarga, nomzodlarga teng sharoit yaratish, teng saylov prinsipini amaliy ifodasidir. Teng saylov huquqi Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan va u saylov huquqining asosiy tamoyillaridan biridir.

TENG FUQAROLIK — qator mamlakatlar Konstitutsiyaviy huquqidagi prinsip bo'lib, unga ko'ra fuqarolar muayyan davlatning fuqaroligini olish, asos (usul)laridan qat'i nazar, teng huquq, erkinlik va majburiyatlarga ega bo'ladilar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'i nazar, hamma uchun tengdir.

TENG HUQUQLILIK — barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga egaligida, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar ularni qonun oldida tengligida ko'rinadi. Teng huquqlilik buzilgan taqdirda tegishli javobgarlik vujudga keladi.

TUMAN — O'zbekiston Respublikasida o'rta ma'muriy-hududiy birliklardan birining nomlanishi. Tuman 2 xil bevosita viloyatlar tarkibidagi tumanlar va shaharlar tarkibidagi tumanlarga bo'linadi. Tumanlarni mahalliy davlat hokimiyati organlari tuman hokimlari va xalq deputatlari

tuman Kengashlari boshqaradi. Tumanlar tashkil qilishda aholini soni ishlab chiqarish tashkil etish qulayligi hisobga olinadi.

TO‘G‘RI SAYLOV HUQUQI — saylov huquqining asosiy tamoyillaridan bo‘lib, bu huquq orqali saylovchilar har qanday darajadagi davlat organlarini tuzishda bevosita ishtirok etadi. To‘g‘ri saylov huquqi natijasida Prezident, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari mahalliy Kengash deputatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri, saylovchilar tomonidan saylanib, ularning vakili hisoblanadi. Bu huquqni saylovchilar istiqomat joylarida ovoz berish orqali amalga oshiradilar. To‘g‘ri saylovda saylovchining ovozi deputatlarni, Prezidentni saylashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. To‘g‘ri saylov huquqi Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan.

U

UY-JOYLI BO‘LISH HUQUQI — bu doimiy oila bilan yashash manbaidir. Hech kim sudni qarorisiz, qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum qilinishi mumkin emas. Qonuniy asosda uy-joyi buzilgan shaxsga uy-joyi qiymati, ko‘rgan zarari to‘la qoplab beriladi. Aholini ehtiyojmand qatlamlarini uy-joy bilan ta‘minlashda imtiyozlar beriladi (47-modda).

UMUMIY SAYLOV HUQUQI — bu huquq orqali mamlakat fuqarolarining ko‘pchilik qismi saylovlarda ishtirok etadi. Saylov huquqining asosiy tamoyillaridan bo‘lgan umumiy saylov huquqi ortiqcha cheklashlarning bo‘lmasligiga nazarda tutadi. Saylovlar haddan tashqari ko‘p va asossiz cheklashlar bilan o‘tkazilsa, saylov umumiy bo‘lmaydi.

Umumiy saylov natijasida fuqarolar ma'lum yoshga yetgach, muomala layoqatiga ega bo'lsa, saylovda ishtirok eta oladi. Umumiy saylov huquqi Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan.

UMUMINSONIY PRINSIPLAR — Umuminsoniy prinsiplar jahonda mutloq ko'pchilik e'tirof etadigan prinsiplardir. Bu eng avvalo inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadriyat qimmat va boshqa daxlsiz huquqlarini oliy qadriyat hisoblanishidir. Insonni hurmatlash, uni huquqlarini himoya qilish bir davlat chegarasidan chiqib, xalqaro masalaga aylangan. Umuminsoniy prinsiplar amal qiluvchi mamlakatda yashovchi inson baxtli insondir.

UMUMMILLIY BOYLIK — mamlakatimizda yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda tabiiy zaxiralar umummilliy boylik deb belgilangan. Ulardan barchani manfaati yo'lida foydalaniladi. Umummilliy boyliklar davlatning alohida himoyasida bo'ladi. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin (68-modda).

UMUMXALQ MUHOKAMASI — xalq muhokamasiga qo'yilgan qonun loyihasiga kiritish uchun fikrlar, takliflar yuborish bilan, ularda namoyon bo'ladigan fuqarolarning va ularning tashkilotlarining huquq ijodkorligida ishtirok etish shakli. Bu demokratiyaning bevosita ko'rinishidir. Yuqoridagi takliflar qonun chiqaruvchi organga yuborilib, bu organ qonun loyihasini takomillashtirish jarayonida ularni rasman hisobga olishini taqozo etadi. Umumxalq muhokamasi faqat qonun loyihalari bo'yichagina emas, muhim masalalar bo'yicha ham o'tkazilishi mumkin.

UNITAR DAVLAT — davlatning oddiy ko‘rinishi bo‘lib, u davlat tuzilishi shakllaridan biri hisoblanadi. Unitar davlatda hudud, Konstitutsiya, fuqarolik, Oliy davlat hokimiyati yagona bo‘ladi. Uning tarkibida davlat belgilari mavjud milliy-hududiy tuzilmalar ham bo‘lishi mumkin, masalan, muxtor viloyat, muxtor respublika. O‘zbekiston tarkibida davlat tuzilishiga xos belgilari mavjud bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi mavjud.

URUSH — mamlakatlarning yoki mamlakatdagi turli kuchlarning (guruhlar) qurolli to‘qnashuvi. Odatda urushlar hujum qilish va himoya qilishni maqsad qiladi. Natijada hududlar egallab olinadi, himoya qilinadi yoki ozod etiladi. Urushlar xarakteriga qarab adolatli va adolatsiz (bosqinchi) bo‘ladi. Boshqa davlatlarning hududini zo‘rluk bilan bosib olishga shu hudud aholisini qirish, qiynoq-azoblarga solishga qaratilgan urushlar adolatsiz, o‘z hududini himoya qilishga qaratilgan urushlar adolatli hisoblanadi. Mamlakat ichkarisida turli kuchlar urushi, fuqarolik urushi deb ataladi. Ikki tarafda ko‘plab davlatlarning turib urushishi jahon urushi deb nomlanadi. Urush turli xalqaro kelishmovchilik va mojarolar natijasida vujudga keladi. O‘zbekiston Konstitutsiyasida xalqaro kelishmovchiliklar kuch ishlatmaslik orqali, nizolar tinch yo‘l bilan hal qilinishi belgilab qo‘yilgan (17-modda).

Xalqaro hujjatlarda ham urushga yo‘l qo‘ymaslik ko‘rsatilgan.

URUSH HOLATI — mamlakatimiz konstitutsiyasida belgilangan. Unga asosan urush holati mamlakatimizga tashqaridan hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zarurati tug‘ilganda e‘lon qilinadi.

Urush holati Prezident tomonidan e'lon qilinadi va bu haqda qabul qilingan qaror uch kun ichida Oliy Majlis palatalari tasdig'iga kiritiladi. (109-modda, 18-band).

Urush holati e'lon qilingan vaqtda, mamlakatda boshqaruvda, ijtimoiy hayotda o'zgarishlar amalga oshadi. Qonunlar to'xtatilishi, huquq va erkinliklar cheklanishi mumkin.

V

VAZIR – Tarmoq yoki sohani boshqaruvchi yuqori mansabdor shaxs. V. milliy davlatchilik tariximizda ham mansabdor shaxs sifatida mavjud bo'lgan. O'zbekiston mustaqillikka erishib, o'z davlatchiligini o'rnatgan vaqtda ilgari qo'llanilib kelingan «ministr» o'rniga «vazir» atamasi ishlatila boshlandi.

Vazir V.M. a'zosi bo'lib, ularning nomzodi Qonunchilik palatasida ko'rib chiqilib, ma'qullangach Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadi.

VAZIRLAR MAHKAMASI – Respublika hukumati bo'lib, ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar asosida uning vazifalari aniq belgilanadi (115-modda).

Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir. Amaldagi Vazirlar Mahkamasi

yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi, biroq Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilguniga qadar mamlakat Prezidentining qaroriga muvofiq o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

VAZIRLAR MAHKAMASI MA'RUZASI – Konstitutsiyaviy huquqda yangi atama. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida, endi Oliy Majlisga Prezident emas, Vazirlar Mahkamasi har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi (94-modda, 6-band).

VAZIRLAR MAHKAMASINING A'ZOLARI –

Qarang: Vazirlar Mahkamasining tarkibi.

VAZIRLAR MAHKAMASINING VAKOLATLARI –

Vazirlar Mahkamasining vakolatlari Konstitutsiyaning 115-moddasida va V.M. to'g'risidagi qonunda belgilangan.

VAZIRLAR MAHKAMASINING RAISI – 2002 yilgacha O'zbekistonda hukumat boshlig'ining nomlanishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2002 yilgacha bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasining Raisi ham hisoblangan. Bu lavozim 2002 yildan bekor bo'lgan va hukumat boshlig'i bosh vazir hisoblanadi.

VAZIRLAR MAHKAMASINING TARKIBI – Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari va vazirlardan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi (114-modda).

VAZIRLAR MAHKAMASINING HARAkat DASTURI –

Harakat dasturi Bosh vazir nomzodi ko'rilayotgan vaqtda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etiladi (118-modda). Harakat dasturi yaqin va uzoq muddatga

mo'ljallangan Vazirlar Mahkamasining faoliyatini ko'rsatuvchi ko'rsatkichdir.

Uning asosliligi, ishonchliligi Bosh vazir nomzodini tasdiqlashsa, unga ishonch bildirishga sabab bo'ladi, bu parlamentning hukumat faoliyati ustidan nazorat qilish shakli hamdir.

VAZIRLAR MAHKAMASINI SHAKLLANTIRISH –

Bosh vazir nomzodi Oliy Majlis palatalarining mansabdor shaxslari saylangandan so'ng Prezident tomonidan barcha siyosiy partiyalar bilan maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng bir oy ichida Qonunchilik palatasi ko'rib chiqishi va ma'qullashi uchun taqdim qilinadi. Qonunchilik palatasi 10 kun ichida nomzodni ko'rib chiqadi.

Nomzodi ko'rib chiqilayotgan shaxs Oliy Majlisga Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturini taqdim etadi.

Nomzod uchun Qonunchilik palatasi deputatlarining umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda, tasdiqlangan hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining a'zolari Qonunchilik palatasida ko'rib chiqilib, tasdiqlangach, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Bosh vazir lavozimiga taqdim etilgan nomzod uch marta rad etilsa, Prezident Bosh vazirni tayinlaydi va Qonunchilik palatasini tarqatib yuboradi (118-modda).

VAZIRLIK – tegishli sohalarda yagona davlat siyosatini ishlab chiquvchi, alohida tarmoq va sohalarni boshqaruvchi markaziy idora organi. Masalan, ichki ishlar Ichki ishlar vazirligi, sog'liqni saqlash Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan idora qilinadi. Ayrim v.lar faoliyati faqat shu tarmoq yoki soha bilan bog'liq bo'lib, idora etish tarmoq yoki

sohaga taalluqli bo'lsa, yana shunday v.lar borki ularning faoliyati keng qirralidir. Masalan, Moliya vazirligi. Yangi vazirliklar tuzish yoki mavjudlarini tugatish, qo'shib yuborish Prezident farmoni bilan amalga oshiriladi va shunday farmon Oliy Majlis palatalariga tasdiqlash uchun kiritiladi. Vazirlik faoliyati yakkaboshchilikka tayanadi.

VAKILLIK – biron bir tadbirda, turli organlar va tashkilotlarda, xalqaro munosabatlarda ma'lum jamoa, guruh, shaxs yoki fuqarolar nomidan ish yurituvchi. Konstitutsiyaning 10-moddasida O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Oliy Majlisi va Prezident ish olib borishi mumkin deb belgilangan. Turli vakillik organlariga saylangan deputatlar ham saylovchilar vakilidir.

Vakillar doirasi keng va vazifasi xilma-xildir. Masalan, saylovlar davrida Prezidentlikka nomzodning, deputatlikka nomzodning ishonchli vakillari, siyosiy partiyalarning vakolatli vakillari va boshqalar. Har qanday vakil o'zini vakil qilgan jamoa, shaxs nomidan, ularning manfaatidan kelib chiqib harakat qiladi.

VAKILLIK DEMOKRATIYASI – demokratiyaning bir shakli bo'lib, davlatni boshqarishda, davlat va jamoat ishlarida fuqarolar vakillari orqali ishtirok etadi. Vakillik demokratiyasining yorqin ifodasi xalq deputatlari bo'lib, ular saylovchilarning vakilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham xalq vakilidir. V.d.si amal qilishi natijasida fuqarolarning aksariyat ko'pchiligi davlat va jamiyatni boshqarishda, ularning faoliyatida keng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

VAKILLIK ORGANLARINING NAZORATI –

Vakillik organlarini nazorati deganda odatda ijro organlarini faoliyati ustidan vakillik organlarini nazorati nazarda tutiladi.

Bu hokimiyatlar bo'linishining muhim shartlaridandir. Vakillik organlarining nazorati hukumat faoliyati ustidan parlament nazorati, hokimlar faoliyati ustidan xalq deputatlari Kengashlari nazorati orqali namoyon bo'ladi.

Buni amaliy ifodasi hukumatni, Bosh vazirni Qonunchilik palatasi oldida hisob berishda, hokimlarning Kengashlar oldida hisob berishida ko'rinadi. Vakillik organlari nazoratini amalga oshishida parlament (deputat) so'rovlari, doimiy qo'mita, komissiyalar faoliyati muhim rol o'ynaydi. Oliy Majlisning Parlament nazoratini olib borish vazifa va vakolati Konstitutsiyada mustahkamlangan.

Qarang: deputat so'rovi; parlament so'rovi; doimiy qo'mita; vakillik organlarining komissiyalari.

VAKILLIK ORGANLARINING QO'SHMA MAJLISI –

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mahalliy Kengashlarning (viloyat, tuman, shahar) ma'lum masalani hal qilish uchun o'tkazadigan qo'shma majlislari. Bu asosan mahalliy vakillik organlari, Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin, Senatorlar saylash uchun o'tkaziladi. Masalan bir viloyatda, viloyat Kengashi, tumanlar, shaharlar Kengashlari deputatlarining barchasi majlisda ishtirok etib, tegishli Kengash deputatlari orasidan Senatorlarni saylaydi. Qo'shma majlis jami deputatlarning uchdan ikki qismi ishtirok etsa vakolatli hisoblanadi. Qo'shma majlisni Markaziy saylov komissiyasi vakili ochib, majlisga raislik qiluvchi saylanadi.

VAKILLIK ORGANLARINI TARQATIB YUBORISH –

Vakillik organlarini vakolat muddati tugamasdan faoliyatini to'xtatish. O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida bunday hol ko'zda tutilgan. Konstitutsiyaning 111-moddasida Oliy Majlis palatalarini tarqatib yuborish asosi va

tartibi belgilangan. Unga asosan palatalarni tarqatib yuborishga quyidagilar asos bo'lishi mumkin.

- Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda;

- bir necha marta konstitutsiyaga zid qarorlar qabul qilinganda.

Shu ikki holatdan birortasi mavjud bo'lsa O'zbekiston Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat Oliy Majlis palatalarini tarqatib yuborishi mumkin. Konstitutsiyaning 118-moddasiga binoan Bosh vazir iste'foga chiqqan holda, Bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasi uch marta tasdiqlamay rad etgan taqdirda ham Prezident Qonunchilik palatasini tarqatib yuboradi. «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunning 6-moddasiga asosan, viloyatlar (Toshkent shahar) xalq deputatlari Kengashlariga Prezident tomonidan taqdim etilgan hokimlikka nomzod Kengash tomonidan uch marta tasdiqlanmay rad etilsa, Prezident tegishli Kengashni tarqatib yuborishga haqli. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Qonunchilik palatasi va Senat o'zini o'zi tarqatib yuborish tartibi belgilandi.

VAKILLIK HOKIMIYATI – hokimiyatni amalga oshirishning bir turi. Vakillik hokimiyatini mamlakatimizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a'zolari va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari amalga oshiradi. Ularning a'zolari Senatorlar deputatlar xalq vakillaridir. Senatdagi 9 senator Prezident vakili. Vakolatni

xalqdan olgan deputatlar Oliy Majlisda va Kengashdagi faoliyati orqali hokimiyatni ro'yobga chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi vakillik hokimiyati tizimi: Oliy Majlis, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlaridan iborat.

VAKOLAT – bir shaxsga, ya'ni vakilga boshqa shaxs yoki tashkilot (vakolat beruvchi) nomidan va uning manfaatini ko'zlab, bitim tuzish va boshqa xatti-harakatlar qilish uchun berilgan huquqdir. Vakolat yozma vakolatnomaga asoslanadi yoki to'g'ridan-to'g'ri qonunda ko'zda tutiladi, yoxud ma'muriy akt bilan belgilanadi. Vakil unga berilgan vakolat doirasidan chiqmasligi zarur. Vakolat jismoniy va yuridik shaxslarga ham, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ham berilishi mumkin. Davlat organlari, mansabdor shaxslarning vakolatlari qonunlarda belgilab qo'yilgan.

VAKOLATLI VAKIL – aslida barcha vakillar vakolatli vakil hisoblanadi, chunki ular o'zlarini vakil qilganlardan vakolat olgan. Bu yerda gap saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimcha natijasida vujudga kelgan yangi institut haqida gap bormoqda. Qonunchilikka kiritilgan qo'shimchaga asosan, Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengash deputatligiga nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalar ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish uchun o'z a'zolari orasidan vakolatli vakil tayinlash huquqiga ega. Vakolatli vakil tayinlash, uni rasmiylashtirish tartibini Markaziy saylov komissiyasi belgilaydi.

VATANNI HIMOYA QILISH – O'zbekiston Respublikasini himoya qilish uning barcha fuqarolarining konstitutsiyaviy burchidir. Bu burch o'z navbatida Qurolli kuchlar safida xizmat qilishini ham keltirib chiqaradi. Lekin Vatanni himoya qilish bilan Qurolli kuchlar safida xizmat qilish

burchi bir-biridan farq qiladi. Vatanni himoya qilish burchi barcha fuqarolarga tegishli bo'lsa, Qurolli kuchlarda xizmat qilish burchi erkak jinsiga taalluqli, ma'lum yoshdagi, jismonan shu ishga yaroqli fuqarolarga taalluqlidir (64-modda).

VAQTINCHA PREZIDENT VAZIFASINI BAJARISH –

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ma'lum sabablarga ko'ra o'z vazifasini bajara olmasa, vakolatlarini amalga oshira olmasa, uning vazifa va vakolatlarini vaqtincha bajarish Oliy Majlis Senati Raisi zimmasiga yuklanadi. Shunday hol ro'y bersa uch oy muddat ichida mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi. (112-modda).

VETO – biror bir huquqiy hujjatning kuchga kirishini to'xtatib qo'yish. Bu asosan parlamentda qabul qilingan hujjatlarga nisbatan davlat boshlig'i tomonidan qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis palatalari tomonidan tegishli tartibda qabul qilingan qonunlarni, u bilan kelishmasa, imzolamay, o'z e'tirozlari bilan Oliy Majlisga qayta ko'rib chiqish uchun qaytarishi mumkin (99-modda).

VIJDON ERKINLIGI – Fuqarolarning dinga munosabati; har qanday shaxs xohlasa dinga e'tiqod qiladi (ishonadi), xohlamasa e'tiqod qilmaydi (ishonmaydi) yoki o'zi tanlagan dinga e'tiqod qiladi. Dinga ishonish yoki ishonmaslik uchun ta'qib qilinmaslik, jazolanmaslik, kamsitilmaslik vijdon erkinligining amalda bo'lishidir. Biror-bir dinga e'tiqod qilishga majburlash ham, vijdon erkinligiga ziddir. Vijdon erkinligi dunyoviy davlat prinsiplaridan kelib chiqadi (35-modda).

VILOYAT – O'zbekiston Respublikasining ma'muriy hududiy tuzilishining yuqori pog'onasi. V. aholini soni sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish imkoniyati, hisobga olinib

tashkil qilinadi, O'zbekiston hududi viloyatlarga bo'lingan. V.lar tashkil etish, tugatish Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Toshkent shahri viloyat maqomiga tenglashtirilgan.

VOTUM Qarang: Ishonchsizlik votumi.

VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQINI HIMOYA

QILISH – o'n sakkiz yoshgacha bo'lganlar voyaga yetmagan hisoblanadi. Ular bilimi, tajribasi, jismoniy qobiliyati tomonidan voyaga yetganlardan farq qiladi, shuning uchun ularning huquqlari alohida himoya qilinadi. Ularni huquqini himoya qilishni davlat o'z zimmasiga olgan. Bundan tashqari voyaga yetmaganlar huquqlari xalqaro hujjatlar bilan xalqaro miqyosda ham himoya qilinadi. Bola huquqlarini himoya qilish konvensiyasi mavjud bo'lib, mamlakatimiz shu konvensiyaga amal qilish majburiyatini olgan.

X

XAVFSIZLIK KENGASHI — Prezident huzuridagi Prezident tomonidan tuziladigan kollegial organ. Xavfsizlik kengashiga Prezident boshchilik qiladi. Uning tarkibiga mamlakatdagi oliy mansabdorlar, muhim vazirliklar, idoralar rahbarlari kiradi. Xalqaro ahvol, mamlakatini mudofaa qobiliyati, xavfsizlik masalalari muhokama qilinadi (109-modda, 24-band).

XALQ — Konstitutsiyaviy huquq, fanida odatda muayyan davlatning barcha aholisi tushunilib, u yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy umumiylikni vujudga keltiradi (garchi u bir necha milliy umumiylikka bo'lingan bo'lsa-da). Shu ma'noda zamonaviy konstitutsiyalarda xalq to'g'risida «suverenitet egasi» va «hokimiyatning birdan bir manbai»

degan iboralar ko'p ishlatiladi. O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolar tashkil etadi. (8-modda).

XALQ VAKILLIGI — Xalq hokimiyatiga xos xususiyat bo'lib, u orqali xalq hokimiyatni o'zlarining saylaydigan vakillari orqali amalga oshiradi. Ma'lumki, O'zbekiston Konstitutsiyasining 91-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Joylardagi xalq vakilligi xalq deputatlari Kengashidir.

XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI — O'zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlaridir. Ular deputatlardan iborat bo'ladi. Bu organ viloyatlarda, tumanlarda va shaharlarda tashkil qilinadi. Tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda xalq deputatlari Kengashlari tashkil qilinmaydi. Kengashlar shu hududdagi fuqarolar tomonidan umumiy, teng, to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadi. Ularga 21 yoshga to'lgan fuqarolar saylanadi.

Xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlaridagi deputatlar soni quyidagicha belgilanadi:

aholi soni ikki million nafargacha bo'lgan hududlarda — o'ttiztadan qirqtagacha; aholi soni ikki milliondan uch million nafargacha bo'lgan hududlarda — qirqtadan elliktagacha; aholi soni uch million nafardan ortiq bo'lgan hududlarda — elliktadan oltmishtagacha.

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlaridagi deputatlik o'rinlari soni aholi sonidan kelib chiqqan holda tegishli mahalliy Kengash tomonidan quyidagicha belgilanadi:

aholi soni o‘ttiz ming nafargacha bo‘lgan hududlarda — o‘ntadan o‘n beshtagacha; aholi soni o‘ttiz mingdan yuz ming nafargacha bo‘lgan hududlarda — o‘n beshtadan yigirmatagacha; aholi soni yuz mingdan uch yuz ming nafargacha bo‘lgan hududlarda — yigirmatadan yigirma beshtagacha; aholi soni uch yuz ming nafardan ortiq bo‘lgan hududlarda — yigirma beshtadan o‘ttiztagacha.

XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI — Xalq deputatlari Kengashiga rahbarlik qiladi. U xalq deputatlari Kengashlari deputatlari orasidan Kengash vakolat muddatiga, ya’ni besh yilga saylanadi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shahar Kengashining raisi etib saylanishi mumkin emas.

XALQ NOMIDAN ISH OLIB BORISH — Bunday huquqqa xalq saylagan respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ega. Boshqa biror bir davlat organi, jamoat birlashmalari, siyosiy guruhlar bunday huquqqa ega emas (10-modda).

XALQ SUVERENITETI — Konstitutsiyaviy huquq fanida suverenitetning ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, xalqning to‘la hokimiyat egasi ekanligini, ya’ni xalqning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda real ishtirok etish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vositalarga ega bo‘lishidir. Xalq suvereniteti barcha demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy tuzum prinsiplaridan biri sanaladi.

XALQ HOKIMIYATI — xalqning o‘z xohish irodasini amalga oshirish usulidir. Demokratik mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda hokimiyatning yagona manbai xalqdir. Xalq o‘z hokimiyatini, o‘zi saylab qo‘ygan yoki tuzadigan organlar orqali ro‘yobga chiqaradi. Xalq hokimiyati davlat hokimiyati orqali siyosiy jarayonga aylanadi. Agar hokimiyat biron-bir narsaga ega bo‘lish, ta’sir o‘tkazish,

hatto majburlash imkoniyatiga ega bo'lsa, shu imkoniyatni xalq davlat hokimiyati orqali amalga oshiradi. Xalq hokimiyati saylov, referendum, muhokamalarda ishtirok etish, o'zini o'zi boshqarish organlari jamoatchilik nazorati orqali amalga oshiriladi. Xalq hokimiyati xalq suverenitetining ifodasidir.

XALQ HOKIMIYATCHILIGI — demokratiyani hozirgi umummiqyosda qabul qilingan tushunishning eng muhim elementlaridan biri. Xalq hokimiyatchiligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida asosiy konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida belgilangan. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir (7-modda).

XALQARO MUNOSABATLAR — davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy sohadagi aloqa, hamkorlik tizimi. Xalqaro huquq normalari bilan, davlatlar o'rtasida tuzilgan kelishuvlar, shartnomalar orqali tartibga solinadi.

XALQARO MUNOSABATLARNING TO'LA HUQUQLI SUBYEKTI — suveren davlatga xos xususiyat. Suveren davlatgina xalqaro munosabatning to'la huquqiy subyekti bo'ladi. Bu degani u har qanday davlat bilan o'zaro tenglik asosida hamkorlik qiladi, aloqa o'rnatadi. Barcha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga a'zo bo'la oladi. Bu davlatni to'la huquqligi uni xalqaro tashkilotlar, chet davlatlar tan olganligida ko'rinadi. O'z xavfsizligini, xalq farovonligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin bo'ladi. O'zbekistonni xalqaro munosabatlarni to'la huquqli subyekti ekanligi Konstitutsiyada mustahkamlangan (17-modda).

XALQARO SHARTNOMALAR — xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladigan va davlatlar imzolaydigan

(qo'shiladigan) xalqaro hujjat. Uning normalari shartnomani imzolagan davlatlar uchun majburiy. Xalqaro shartnomalar Birlashgan Millatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlanadi va turli nomlar bilan jumladan «konvensiya», «pakt», «deklaratsiya» deb ataladi. Masalan, «Bola huquqlari to'g'risida konvensiya», «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt».

XALQARO HUQUQ — Xalqaro munosabatlarni, davlatlar o'rtasida munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari yig'indisi. Bu huquq normalari xalqaro tashkilotlar tomonidan yaratiladi.

XALQARO HUQUQNING UMUME'TIROF ETILISH QOIDALARI — Xalqaro huquq normalari xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilinadi. Agar shunday hujjatlar ko'pchilik mamlakatlar tomonidan e'tirof etilib, bajarilsa ular umume'tirof etilgan qoidalar hisoblanadi. «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt», «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» va boshqalar umume'tirof etilgan hujjatlar, qoidalar hisoblanadi. Ularni e'tirof etgan davlatlar, qoidalariga amal qilish, bajarish majburiyatini oladi.

XALQARO HUQUQNING USTUVORLIGI VA TO'G'RIDAN-TO'G'RI HARAkatDA BO'LISHI PRINSIPI — bir qator davlatlar konstitutsiyaviy huquqidagi prinsip bo'lib, unga ko'ra umume'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalari tegishli mamlakat huquq tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini qabul qilinishida, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslanganligi

Konstitutsiyaning muqaddimasida e'tirof etilgan.

XALQNI O'Z TAQDIRINI O'ZI BELGILASH HUQUQI —

Birlashgan Millatlar tashkiloti Nizomida belgilangan va ko'pchilik davlatlar e'tirof etadigan, inson huquqlari sohasidagi eng muhim prinsip. Uning natijasida xalq qanday tuzumda yashashi, qanday boshqaruv shakli, davlat tuzilish shaklini ma'qullashi hal bo'ladi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 89-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston tarkibidan Qoraqalpog'iston xalqining umumiy referendumini asosida ajralib chiqadi deb belgilangan qoida xalqni o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini tan olishdir.

XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLAR TENG HUQUQLIGI —

shaxs huquqiy holatidan belgilashdagi eng muhim prinsiplardan hisoblanadi. Konstitutsiyaning 19-moddasida fuqarolarning jinsidan qat'i nazar qonun oldida tengligini belgilanishi, bu huquqning asosidir. Bundan tashqari 58-moddada «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deb alohida mustahkamlangan. Bu xotin-qizlarni ijtimoiy hayotning hamma sohasida davlat va jamoat ishlarida, mehnat qilishda, oilada tengligini ta'minlashga qaratilgan norma prinsipidir.

XUSUSIY MULK — mulk shakllaridan biri, bozor iqtisodiyoti asoslangan jamiyatda boylik, farovon hayot manbasi. Konstitutsiyada xususiy mulk jamiyatning negizi sifatida belgilangan. Xususiy mulkning daxlsizligi, boshqa mulk shakllari bilan teng asosda davlat tomonidan muhofaza qilinishi Konstitutsiyada belgilangan. Xususiy mulk alohida shaxslarning boyligigina bo'lib qolmay, uning hajmi mamlakat iqtisodiy qudratiga ham ta'sir qiladi (65-modda).

XALQARO ORGANLARGA MUROJAAT QILISH HUQUQI

— Har kim O‘zbekistonning qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli (55-modda).

Y

YURIDIK JAVOBGARLIK — huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan protsessual qonunchilik talablari asosida qo‘llaniladigan majburlov chorasi. Yuridik javobgarlikning maqsad uch narsaga qaratiladi. Birinchi saqlash, ikkinchi tarbiyalash, uchinchi ogohlantirish (oldini olish). Saqlash inson hayoti, sog‘lig‘i, huquq, erkinligini davlat tuzumi, ommaviy va xususiy mulk va boshqalarni saqlashni nazarda tutadi. Tarbiyalash huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni ongini o‘zgartirishni nazarda tutadi, ogohlantirish kelajakda yana shunday holatlar takrorlanmasligiga qaratiladi.

YURIDIK SHAXS — o‘z mulkiga, xo‘jalik yuritishda yoki operativ boshqaruvda alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mulkiy yoki nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilotdir. Yuridik shaxsning turlariga tijorat va notijorat tashkilotlar kiradi.

YOZISHMALARNING SIR SAQLANISHI – insonning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo‘lib, u barcha turdagi pochta, telegraf jo‘natmalari (xat, telegramma, posilka, radiogramma va b.), telefon so‘zlashuvlari va boshqa xabarlarning daxlsizligini qamrab oladi. Hech kimning shaxs irodasiga zid holatda uning yozishmalari, telefon

soʻzlashuvlari, telegraf maʼlumotlari bilan tanishishga haqi yoʻq. (31-modda) Sudning qarori asosidagina yuqoridagilarga aralashish mumkin.

YOSH SENZI – qonun bilan saylovda ishtirok etish uchun belgilangan yosh chegarasi. U saylash huquqi uchun alohida, saylanish huquqi uchun alohida belgilanadi. Oʻzbekistonda saylash uchun 18 yosh belgilangan. Xalq deputatlari mahalliy kengashiga deputat boʻlib saylanish uchun 21 yoshga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputati va Senator boʻlib saylanish uchun 25 yoshga, Prezidentlikka saylanish uchun 35 yoshga toʻlgan boʻlishi kerak. Yosh senzi turli mamlakatlarda har xil belgilangan. Fuqarolar Braziliya va Eronda 16 yoshdan, Indoneziyada 17 yoshdan saylash huquqiga ega boʻlsa, ayrim mamlakatlarda saylash huquqiga ancha yuqori chegara qoʻyilgan: Malayziya, Marokash, Boliviya 21 yosh. Saylanish huquqi ham baʼzi mamlakatlarda ancha yuqori boʻlib, Italiyada Prezidentlikka saylanish uchun 50 yosh belgilangan.

YAGONA FUQAROLIK — Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligining asosiy prinsipi boʻlib, Konstitutsiyaning 22-moddasiga koʻra Oʻzbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik oʻrnatiladi. Ushbu moddaning uchinchi qismida Qoraqalpogʻiston Respublikasining fuqarosi, ayni vaqtda, Oʻzbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanishi toʻgʻrisidagi qoida mustahkamlangan. Bu prinsip va qoidalar «Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligi toʻgʻrisida»gi Qonunda ham mustahkamlangan. Oʻzbekiston ikki fuqarolikni tan olmaydi.

YASHASH JOYI — fuqaroning doimiy yoki asosan yashab turgan joyidir. Oʻn toʻrt yoshgacha boʻlgan bolalarning yoki vasiylikda boʻlgan fuqarolarning qonuniy vakillari ota-

onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy – yashash joyi hisoblanadi. Yashash joyida fuqarolar tegishlicha ro'yxatdan o'tadilar.

YASHASH HUQUQI — insonning ajralmas muqaddas huquqidir.

Insonning hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat hisoblanadi. Yashash huquqidan mahrum qilishga hech kim haqli emas. Mamlakatimizda o'lim jazosini butunlay bekor qilinishi, yashash huquqining amal qilishini real holga aylantirdi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki avvalgi tuzum davrida qabul qilingan Konstitutsiyalarda yashash huquqi umuman ko'rsatilmagan edi. Konstitutsiyada o'lim jazosi taqiqlanadi, deb belgilab qo'yildi (25-modda).

YASHIRIN OVOZ BERISH — ovoz berishning bir turi. Bu ochiq ovoz berishga nisbatan demokratik hisoblanadi. Sababi, ovoz beruvchi alohida xonada hech kimning ishtirokisiz ovoz beradi, demak, unga hech kim ta'sir ko'rsata olmaydi, natijada, u o'z xohishiga ko'ra ovoz beradi. Yashirin ovoz berishda ovoz berish natijasi ham hech kimga ma'lum bo'lmaydi, chunki saylov qog'ozlari bir xil, ularda hech qanday belgi, raqam yo'q yashirin ovoz berish ham saylovchiga erkin ovoz berish imkoniyatini tug'diradi.

O'

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY-

HUDUDIIY TUZILISHI — mamlakat hududlarini samarali boshqarish, ishlab chiqarishni ham ashyo obyektlariga yaqinlashtirishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. Mamlakat hududi shunday birliklarga bo'lingan. Respublikaning ma'muriy hududiy tuzilishi Oliy Majlis

tomonidan o'zgartiriladi. Yangi viloyatlar, tumanlar, shaharlar tashkil qilish, qo'shib yuborish, ularni tugatish ham Oliy Majlis vakolatiga kiradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING PREZIDENTI —

mamlakatning davlat boshlig'i, biror bir hokimiyat tizimiga kirmaydi. Davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi.

Qarang: Prezident; Prezidentni saylash tartibi; Prezident vakolatlari; Prezidentning lavozimga kirishuvi; Prezidentning vazifasi; Prezident mas'uliyati; Prezident ma'ruzasi; Prezident qasamyodi; Prezident devoni; Prezident qabul qiladigan hujjatlar; Prezident daxlsizligi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATI

PRINSIPLARI — O'zbekistonning tashqi siyosat sohasida amal qilinadigan qoidalar. Bular davlatning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan muzokaralar olib borish orqali hal qilish, boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashmaslik, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalarini tan olish hisoblanadi (17-modda).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUKUMATI —

Qarang: Vazirlar Mahkamasi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATINING

QARORLARI — O'zbekiston Respublikasining hukumati Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'z kompetensiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va Prezident farmonlariga asoslanib hamda ularning ijrosini ta'minlash yuzasidan chiqariladigan, umumme'yoriy xarakterga ega boshqaruv hujjatidir. O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlariga Bosh

vazir imzo chekadi.

O'ZBEKISTON XALQI — mamlakatda yashovchi asosiy va ko'pchilik aholi. O'zbekistonda yashovchi hamma kishilarni O'zbekiston aholisi desak, ularning mutloq ko'pchiligini O'zbekiston xalqi tashkil etadi. O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston fuqarolari tashkil etadi. Demak, xalqni aniqlashda ularning millati emas, fuqaroligi hal qiluvchi belgi hisoblanadi (8-modda).

O'ZINI O'ZI BOSHQARISH — boshqaruvchining bir turi. Fuqarolar, xodimlar, talabalar va boshqalar birgalikda uyushib, masalalarni hal qilishi. O'zini o'zi boshqarish fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvidan keng. O'zini o'zi boshqaruvga korxonalarda, muassasalarda, o'quv yurtlarida va boshqa tashkilotlarda jamoatchilik asosida olib boriladigan faoliyatni ham kiritish mumkin. Ota-onalar qo'mitasi, jamoa kengashi, vasiylik kengashi va boshqalar.

O'ZINI O'ZI TARQATIB YUBORISH — bu ibora Parlament palatalari faoliyatida ishlatiladi. Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat, Senat senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan o'zlarini tarqatib yuborish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

SH

SHAXSIY DAXLSIZLIK — har kimni erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka egaligi (27-modda). Bu hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emaslik. Shaxsiy daxlsizlik huquqi qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini prokurordan sudga o'tkazilishi bilan yanada kengroq amal qila boshlandi. Yoki boshqacha

qilib aytganda bu tartib, shaxsiy daxlsizlikni yaxshiroq ta'minlaydi.

SHAXSIY HAYOTGA ARALASHISHDAN

HIMOYALANISH VA UY - JOY DAXLSIZLIGI — bu huquq orqali har kim o'z sha'niga va obro'siga qilingan tajovuzlardan shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniş va turar joyi daxlsizligiga ega bo'ladi (31-modda).

Bu degani hech kimni haqoratlash, sha'nini tahqirlash, obro'siga putur yetadigan harakatlarni sodir yetish taqiqlanadi. Shunday hol ro'y bersa shaxs tegishli organlarga birinchi navbatda sudga murojaat etib, sha'ni obro'sini tiklashni talab qilish huquqiga ega.

Shaxsiy hayotga aralashuvdan himoyalaniş va turar joy daxlsizligi esa hech kimning turar joyiga kirish, tintuv o'tkazish yoki uni ko'zdan kechirish, yozishmalar, telefonda so'zlashuvlar va boshqa xabarlar sirlarini oshkora qilish mumkin emaslikni bildiradi. Qonunda belgilangan tartiblar bundan mustasno.

SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR — fuqarolarning tabiiy

huquqlari bo'lib, ular shaxsning hayoti, sog'lig'i, nomusi, qadr-qimmatini ta'minlaydi. Shaxsiy huquq va erkinliklar davlat tomonidan berilmaydi, ularga har bir shaxs paydo bo'lishi bilan ega bo'ladi, davlat esa shu huquq va erkinliklarni to'la ta'minlashga majbur. Shaxsiy huquq va erkinliklar insonga tegishli bo'lgan boshqa huquq va erkinliklarga nisbatan ustuvor turadi, ular muqaddasdir. Shuning uchun ham O'zbekiston Konstitutsiyasida bu huquqlar boshqa huquqlarga nisbatan avval qayd qilingan. Shaxsiy huquq va erkinliklarga: yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik, ya'ni hech kimning, agar bunga asos bo'lmasa, qamoqqa olinishi, ushlab turilishi mumkin emasligi, turar joy

daxlsizligi, qiynoqqa solinmaslik, vijdon erkinligi va boshqa huquq-erkinliklar kiradi (VII bob, 25-35 moddalar).

SHAHAR — ma'muriy huquqiy tuzilish tarkibidagi birlik. Shahar sanoat ishlab chiqarish mavjud hudud. Shaharlar Respublikaga bo'ysunuvchi, viloyatga bo'ysunuvchi, tumanga bo'ysunuvchi shaharlarga bo'linadi. O'zbekistonda faqat Toshkent shahri Respublikaga bo'ysunadi. Shahar aholisi sanoat, savdo, fan va madaniyat, xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'ladi.

SHAHARCHA — O'zbekistonning eng quyi pog'onadagi ma'muriy hududiy tuzilmalaridan biri. Ular qishloqlardan shahar tipidagi hudud ekanligi bilan farq qiladi. Shaharchalar tuman tarkibiga kiradi. Bu yerda ham o'ziga yarasha sanoat, savdo, xizmat ko'rsatish ustuvor hisoblanadi.

CH

ChEGARA DAXLSIZLIGI — Qarang: Davlat chegarasi.

ChET EL FUQAROLARI — O'zbekiston hududida yashayotgan, boshqa mamlakatlarning fuqaroligiga ega shaxslar. Ularning O'zbekistonda bo'lishlariga turli sabablar bo'ladi. Masalan, shartnomalar asosida O'zbekistonda ishlashi, o'qishi, chet ellarning diplomatik va konsullik idoralarida ishlashi, sayyohlik yo'llanmasi bilan kelishi va hokazolar. Ularning huquqlari xalqaro huquq normalari va xalqaro shartnomalar bilan belgilanadi.

ChET EL FUQAROLARI VA FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLARNING HUQUQINI TA'MINLASH — bunday shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan barcha shaxsiy va iqtisodiy huquqlardan foydalanadi hamda belgilangan burchlarni

bajaradi.

MUNDARIJA

KIRISH	3
A.....	12
B.....	18
D.....	24
E.....	39
F.....	40
H.....	50
I.....	58
J.....	66
K.....	68
L.....	83
M.....	84
N.....	92
O.....	95
P.....	99
Q.....	111
R.....	120
S.....	122
T.....	135
U.....	139
V.....	141
X.....	150
Y.....	155
O‘.....	158
SH.....	160
CH.....	161

Husanov Ozod Tillaboyevich,
yuridik fanlar doktori, professor

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ ATAMALARI

Izohli lugʻat

Muharrir: Murakayev I.I.
Texnik muharrir: Ravshanov U.M.

Bosishga ruxsat etildi: 28.02.2024. Buyurtma № 46. Bichimi 60x84/16.
Times New Roman garniturasida bilan raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabogʻi 10,62. Adadi: 20 nusxa.

Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi